
ISNN 3030-3907

2026/3
VOLUME 1

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/3 VOLUME 1

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Sintetik dizel yoqilg‘ilari uchun azot saqlovchi qo‘shimchalarini sintez qilish va ularning korroziya jarayonlariga ta’sir mexanizmini o‘rganish *I.O.Hojiyev* *F.N.Nurqulov* *J. B. Fayziyev* *N.I.Nazarov*	9
2	Chakanda (hippophae rhamnoides l.) O‘simligining biologik aktiv moddalari va uning saratonga qarshi xususiyatlari *Nazirtashova Roziya Mamadaliyevna* *Abdulhayeva Gavharoy Xusanjon qizi*	18
3	Sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli gazlarni sun’iy intellektga asoslangan energiya tejamkor filtrlash qurilmasini ishlab chiqish. *To‘ychiyev Z.Z.* *Axmedov R.A.* *Tursunov D.A.*	24
4	Capillary water absorption properties of calcium stearate-coated perlite *T.X.Sayfullaev* *S.Sh.Lutfullaev*	31
5	Оптимизация методики формирования исследовательских навыков будущих инженеров в условиях цифровой трансформации образования *Муродова Зарина Рашидовна* *Зоирова Азиза Иргашевна*	39
6	Raqamli egizak (digital twin) texnologiyasi asosida murakkab texnik obyektlarni intellektual boshqarish modelini ishlab chiqish *Jurayev O‘tkirbek Murodullo o‘g‘li*	44
7	Rama konstruksiyalarida markaziy siqilishga ishlayotgan elementlarni mustahkamligini baholash *Kuvandikov Yo.T*	54
8	Plastinalarni egilashga sinab mustahkamligini baholash *Kuvandikov Yo.T*	58
9	Влияние параметров настройки прокатного стана на качество горячекатаного углового профиля *Ташматов Р.К.* *Анарбаева З.И.*	63
10	Феноллрнинг винилацетилен билан реакцияга киришишида эритувчи, ҳарорат ва вақтнинг таъсири. *Назаров Шомурод Комилович*	72
11	B-феноксибутадиен -1,3 синтези ва ундан олинган ҳосилаларнинг ишлатилиши *Назаров Шомурод Комилович*	77
12	Asinxron motorlarini issiqlik bo‘yicha tekshirish orqali energiya samaradorligiga erishish (jd336b elektrovoz ventilyatsiya motori misolida) *Jiyanqulov Laziz Akrom o‘g‘li* *Raximov Ulash Nomozovich*	84
13	O-fenilendiamin asosida olingan $[cu(opd)_2(3\text{-}nfa)_2] \cdot h_2o$ kompleks birikmasining kristall tuzilishi va tadqiqoti *A.X.Ibragimova* *X.X.Turayev* *A.A.Ahatov*	91
14	Aromatik uglevodorodlar ishlab chiqarishda katalitik riforming katalizatorlarining tahlili *Raxmatov Sherzod Shuxratovich* *Jumayeva Dilnoza Pardayevna*	100
15	Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishning ilg‘or tajribalari va ulardan o‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari *Berdaliyeva Gulasal Abdukunduzovna*	107
16	Qavariqlanadigan grafit asosida yong‘inbardosh qoplama polimer kompozitlar uchun kengaytirilgan grafit tayyorlash va qo‘llanilishi *Ovlayev Jamshid Oktamovich*	112
17	Enhancing structural deformation monitoring using close-range photogrammetry *Sobirxonova Sarvinoz* *Usmanov Saidislomkhon*	120

ISSN 3030-3907

18	Methodology and stages of organizing an inventory audit based on international standards on auditing (isa) *Pashaxodjayeva Dildora Djabborxonovna* *Toshnazarov Bobur Shuhratilloyevich*	129
19	Изменения фазового состава доломитового сырья при термической активации *Абылова А.Ж.* *Сайпов А.А.* *Бекбосынова Р.Ж.* *Абылов Ж.Ж.* *Калилаев Т.Т.*	139
20	Characteristics of the pharmaceutical sector and competitive opportunities of pharmacy organizations from the point of view chemical analisis *Ubaydulloeva F.* *Bazarova N.*	152
21	Исследование влияния композиционной спирт-амин-ароматической октаноповышающей присадки, синтезированной на основе местного сырья, на физико-химические и эксплуатационные свойства автомобильного бензина аи-92 *Махмудов Умирзоқ Мусирмонович* *Менглиев Шерзод Шоимович* *Игамкулова Наргиса Абдувалиевна* *Гуломов Шухратқодир Тошматович*	159
22	Development of methodological approaches to assessing the competitiveness of pharmaceutical organizations, taking into account chemical aspects and regional charesteristics. *Ubaydulloeva Fariza Azamatovna* *Bazarova Nigina Sobirjonovna*	166
23	Oziq-ovqat sanoatining ikkilamchi xomashyolari asosida olingan omixta yem konsentratining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash *Xatamova Xurshida Ochildievna* *Sarbolayev Farruxbek Nabiyevich* *Djaxangirova Gulnoza Zinatullayevna*	173
24	Elektr dvigatellar energiya samaradorligini oshirishning ilmiy va amaliy tahlili *Zoxidov Odil Umirzokovich* *G‘aybullayeva Gulchiroy Zavqijon qizi*	182
25	Ta’lim sifatini boshqarishda raqamli boshqaruv va menejerlik kompetensiyalarini integratsiyalashning pedagogik shart-sharoitlari *Berdaliyeva Gulasal Abdukunduzovna*	190
26	Tabiiy gazni vodorod sul’fid va uglerod dioksididan tozalashda qo‘llaniladigan monoetanolamin (mea), dietanolamin (dea) va n-metildietanolaminlarning (mdea) texnologiyasini tadqiqotlash *Dustqobilov E.N.*	198
27	Tarkibida yodid ionlari bo‘lgan xaudak yerosti suvlarini rentgen fluoressent spektroskopik usulida tahlil qilish *Turayev Xayit Xudaynazarovich* *Jumayeva Zulxumor Ergashevna* *Uralov Nuriddin Bekmuradovich* *Suyunov Jabbor Ro‘ziboyevich* *Zikirov Salohiddin Aliqul o‘g‘li* *Toshbo‘riyeva Marjona*	211
28	Oltingugurtdan tozalash jarayonida sfmlarning ta’sirini o‘rganish bo‘yicha eksperimental usullar *Dustqobilov E.N.* *Yuldashev T.R.*	221
29	Markaziy o‘zbekistonda tarqalgan chayonlarning ekologiyasi va faunasi *Murtozayeva Fazilatxon Baxodirovna* *Musayev Dilshod Muhammadjonovich*	231
30	Қашқадарё вилоятида камбағалликни қисқартириш даражасини баҳолашнинг барқарор ривожланиш механизмларини шакллантириш *А.Б.Хушвақов* *Худойбердийев Аброр Дилмурод ўғли*	236
31	Nodavlat tashkilotlarda ijro intizomini ta’minlashda axborot-boshqaruv tizimlarining roli *Roziqov Behzodjon Bahridinovich*	248
32	Yomon ob-havo sharoitlariga moslashuvchan avtomobil raqamlarini tanib olish tizimini ishlab chiqish. *Quzibayev Xudayshukur Shavkat o‘g‘li*	257

ISSN 3030-3907

	Nurjanova Nafisa Baxramovna	
33	Murakkab iqlim sharoitlari va o‘zgaruvchan yoritish muhitida avtomatik davlat raqamlarini aniqlash (alpr) tizimlarining mustahkamligini oshirish: alexnetbn va yolov10 modellari tahlili *Quzibayev Xudayshukur Shavkat o‘g‘li* *Nurjanova Nafisa Baxramovna*	266
34	Smart grid asosida elektr taqsimlash tarmoqlarida yuklama prognozini optimallashtirish va energiya yo‘qotishlarini kamaytirish *Shayumova Zamira Mustafayevna* *Bibitova Zarnigor Baxtiyorovna*	272
35	So‘nggi yillarda yangibozor observatoriyasida qayd etilgan seysmik kuzatuv natijalari *Xusomiddinov Axror Sabriddin o‘g‘li* *Ro‘zimboyev Farrux Farhod o‘g‘li* *Nuriddinov Nuhriddin Rixsiboyevich* *Toxirova Dilnoza Abduakmal qizi*	280
36	Tibbiy diagnostikada ma’lumotlarga asoslangan prognozlash modeli: qandli diabet xavfini chiziqli regressiya asosida baholash *Yuldashev Axadjon Abduraxmonovich*	291
37	Yod preparatlari realizatsiyasi monitoringi asosida yod tanqisligi kasalliklarining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish (samarqand shahri misolida) *Bazarova Nigina Sobirjonovna* *Xudayberdiyeva Yulduz Yo‘ldosh qizi*	298
38	Ishlab chiqarishda maxsus kiyimlarning mehnat muhofazasidagi o‘rni *G‘aybullayeva Nargiza Zayniddinovna*	303
39	Применение адаптивного долота для повышения технико-экономических показателей бурения скважин в сложных геологических условиях устюртского региона *Коробков Артем Юрьевич* *Каримов У. А.* *Олимжанов С.Р.*	309
40	New technological solutions for improving core recovery in complex geological conditions *Ravshanbek Anarmetovich Narimov* *Abdurasul Shonazarovich Qayumov* *Abror Saidmurodovich Akhmedov* *Ravshanbek Ilkhomovich Ibragimov* *Alisher Saydakbarovich Azimov*	317
41	Benzinning oktan sonini oshirish uchun qo‘ndirmalar *Nurullayev Nazarbek Nurali o‘g‘li* *Bekturdiyev G‘ulomboy Mavlonberdiyevich* *Ismailov Boburbek Maxmudjanovich* *Mengliyev Sherzod Shoimovich*	325
42	Разработка методических подходов к оценке конкурентоспособности аптечных организаций: региональный аспект *Базарова Нигина Собиржоновна* *Убайдуллаева Фариза Азаматовна*	333
43	Ai as a tool for developing intercultural writing competence in english language teacher education *Madraximova Muxlisa Shokir qizi* *Kurbanniyozova Dinoraxon Shuxrat qizi*	341
44	The role of e-commerce in increasing the innovative potential of regions: improving the assessment based on systematic analysis *Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna*	352
45	Yuqori parafin uglevodorodlardan yuqori yog‘ kislotalarni olish texnogiyasini ishlab chiqish *H.S.Fozilov.* *S.M.Turobjonov.* *S.F.Fozilov.* *N.B.Axrorova.*	359
46	Qashqadaryo viloyatida qayta ishlash sanoatining innovatsion rivojlanishini baholash va optimal boshqaruv modelini ishlab chiqish *Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich*	366
47	Respublika janubiy mintaqalarida suvdan foydalanishda tuproq va iqlim sharoitiga mos suv tejamkor texnologiyalarni qo‘llashni ilmiy asoslari *Baxramov Faxridin*	372

ISSN 3030-3907

48	Buxoro viloyatining mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmini shakllantirish yo‘nalishlari *Ahadov Anvar*	378
49	Glukokortikosteroidlarni uzoq muddat qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari. *Muxsinova Shaxlo Mulximovna* *Bahromova Sohiba Bahodirovna* *Baxtiyorova Zilola Dilshod qizi* *Yo‘ldosheva Marjona Alisherovna*	387
50	Opportunities for optimizing the process of producing sukat from natural raw materials available in uzbekistan *Akromova Ra’no Ramizitdinovna* *Azadova Asaloy Zafarbek qizi*	395
51	O‘simlik moylarini oqartirish jarayonida adsorbentlarning roli *Niyozov Ma’murjon Bobonazarovich* *Axmedov Azimjon Normo‘minovich*	400
52	O‘simlik moylarining biologik faol komponentlari va sog‘liq uchun foydalari *Abdullayev Asadulla Shokir o‘g‘li* *Axmedov Azimjon Normo‘minovich*	409
53	Aholiga aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning milliy iqtisodiyot o‘sishiga ta’siri *Nasrullayev Feruz Mengliyevich*	417
54	Betonning mexanik xossalariga bazalt tolalarning ta’sirini o’rganish *Arslanov Islom Kimsanovich* *Meyliyev Dilyor Bayramali o‘g‘li*	430
55	Olma sharbati ishlab chiqarishda innovatsion texnologik tahlil. *Hakimova Nodira Xayrilloyevna* *Dushanova Nilufar Abdukarimovna* *Majidov Qahramon Xalimovich*	440
56	Gidrotermal karbonizatsiya (gtk) texnologiyasi asosida bio-yoqilg‘i olish: nashrlar dinamikasi va o‘sish tendensiyalari *Karimov Islom Ismat o‘g‘li* *Abdug‘aniyev Nurislom Nuritdin o‘g‘li*	446
57	Enhancing english language teachers' professional development through problem-based learning: a pedagogical model and its cognitive-affective impact *Otamurodova Yaxshigul Farxodovna*	454
58	Ko‘p qavatli binolarda yong‘in vaqtida konstruktiv elementlarning issiqlikka chidamliligini matematik baholash va xavfsizlik chegarasini aniqlash *A.T. Ochilov* *S.Shomansurov* *M.R.Doschanov*	463
59	Хром-молибден пўлатдан ишланган тегирмон футеровкаларини (плиталарини) ишлаб чиқиш усули *Р.А. Парпиев* *Д.Ю. Сартибаев* *Ф.А. Максумов* *Ш.М.Чоршанбиев* *Д.О.Абдалимов*	472
60	Optimal chemical composition of 110g13l steel for cast parts operating under high impact loads *F.A. Maksumov* *D.Y. Sartibaev* *R.A. Parpiev* *Sh.M. Chorshanbiev* *A.D. Bektemirov*	480

ISSN 3030-3907

UDK 665.7:547:620.197

SINTETIK DIZEL YOQILG‘ILARI UCHUN AZOT SAQLOVCHI QO‘SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA ULARNING KORROZIYA JARAYONLARIGA TA’SIR MEXANIZMINI O‘RGANISH

I.O.Hojiyev
Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti
F.N.Nurqulov
Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti
J. B. Fayziyev
Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti
N.I.Nazarov
Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida kam oltingugurtli dizel yoqilg‘ilarining tribologik va korroziyaviy xossalarini yaxshilash maqsadida azot saqlovchi sintetik prisadka sintez qilindi va kompleks ravishda o‘rganildi. Olingan mahsulot (Shimadzu) spektroskopiyasi orqali identifikatsiya qilindi; spektrda 1680-1635 cm^{-1} IQ(Amid I), 1540–1510 cm^{-1} (Amid II) hamda 1700–1730 cm^{-1} (karbamat C=O) sohalarida xarakterli yutilishlar qayd etildi. Fizik-kimyoviy tahlillar moddaning yuqori lipofilligi (ρ = 0,93–0,98 $g \cdot cm^{-3}$; Tm = 68–82 °C) va dizel muhitlarida 1–10 mass.% oralig‘ida eruvchanligini ko‘rsatdi. Gravimetrik usulda aniqlangan korroziya tezligi ingibitorsiz muhitdagi $4{,}91 \times 10^{-1}$ $g \cdot m^{-2} \cdot s^{-1}$ dan 10^{-2} $g \cdot m^{-2} \cdot s^{-1}$ darajagacha kamaydi, himoya samaradorligi 90,8–91,75 % ni tashkil etdi. Natijalar SDa-1 prisadkasining sintetik dizel yoqilg‘isida samarali sirt-aktiv va korroziyaga qarshi qo‘shimcha ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: kam oltingugurtli dizel, sintetik dizel yoqilg‘isi, azot saqlovchi prisadka, korroziya tezligi, gravimetrik tahlil, adsorbsion himoya qatlami, dizel qo‘shimchalari, sirt-faol birikmalar.

Аннотация. В данной работе с целью улучшения трибологических и коррозионных свойств малосернистых дизельных топлив была синтезирована азотсодержащая синтетическая присадка и проведено её комплексное исследование. Полученный продукт был идентифицирован методом ИК-спектроскопии (Shimadzu); в спектре зафиксированы характерные полосы поглощения в областях 1680–1635 $см^{-1}$ (Амид I), 1540–1510 $см^{-1}$ (Амид II), а также 1700–1730 $см^{-1}$ (карбаматная группа C=O). Физико-химический анализ показал высокую липофильность вещества (ρ = 0,93–0,98 $г \cdot см^{-3}$; Tm = 68–82 °C) и его растворимость в дизельных средах в интервале 1–10 мас.%. Скорость коррозии, определённая гравиметрическим методом, снизилась с $4{,}91 \times 10^{-1}$ $г \cdot м^{-2} \cdot с^{-1}$ (в среде без ингибитора) до порядка

ISSN 3030-3907

10^{-2} г·м$^{-2}$·с$^{-1}$; защитная эффективность составила 90,8–91,75 %. Полученные результаты подтверждают, что присадка SDa-1 является эффективной поверхностно-активной и противокоррозионной добавкой для синтетического дизельного топлива.

Ключевые слова: малосернистое дизельное топливо, синтетическое дизельное топливо, азотсодержащая присадка, скорость коррозии, гравиметрический анализ, адсорбционный защитный слой, дизельные добавки, поверхностно-активные соединения.

Abstract. In this study, a nitrogen-containing synthetic additive was synthesized and comprehensively investigated in order to improve the tribological and corrosion properties of low-sulfur diesel fuels. The obtained product was identified by IR spectroscopy (Shimadzu); characteristic absorption bands were observed at 1680–1635 cm^{-1} (Amide I), 1540–1510 cm^{-1} (Amide II), and 1700–1730 cm^{-1} corresponding to the carbamate C=O group. Physicochemical analysis revealed high lipophilicity of the compound (ρ = 0,93–0,98 g·cm^{-3}; Tm = 68–82 °C) and its solubility in diesel media within the range of 1–10 wt.%. The corrosion rate determined by the gravimetric method decreased from 4,91×10^{-1} g·m^{-2}·s^{-1} in the uninhibited medium to the order of 10^{-2} g·m^{-2}·s^{-1}, with a protection efficiency of 90,8–91,75%. The results confirm that the SDa-1 additive acts as an effective surface-active and anticorrosion additive for synthetic diesel fuels.

Keywords: low-sulfur diesel, synthetic diesel fuel, nitrogen-containing additive, corrosion rate, gravimetric analysis, adsorption protective layer, diesel additives, surface-active compounds.

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda global ekologik muammolar, xususan atmosfera havosining ifloslanishi va issiqxona gazlarining ortishi, yoqilg‘i tarkibiga nisbatan qat’iy ekologik talablar joriy etilishiga sabab bo‘ldi. Dizel yoqilg‘isida oltingugurt (sulfur) miqdorini keskin kamaytirish ana shunday choralardan biri hisoblanadi. Xususan, 2005-yildan boshlab kuchga kirgan EURO IV ekologik standarti avtomobil yoqilg‘ilarida oltingugurt miqdorini 50 ppm gacha cheklashni belgilab berdi. Mazkur talab yonish jarayonida SO_2 gazlari ajralishini kamaytirish orqali atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga xizmat qiladi.

Biroq, dizel yoqilg‘isida oltingugurt miqdorining kamaytirilishi uning tribologik xususiyatlariga, xususan moylovchanligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Desulfurizatsiya jarayoni davomida nafaqat oltingugurtli birikmalar, balki moylovchanlikni ta’minlovchi poliaromatik uglevodorodlar, azot va kislorodli birikmalar ham kamayadi. Natijada yoqilg‘ining metall yuzalar orasidagi ishqalanishni kamaytirish qobiliyati pasayadi. Bu esa dizel dvigatellarining yuqori

ISSN 3030-3907

bosimli yoqilg‘i purkash tizimlarida metall qismlarning tezroq yeyilishiga, ishonchlilikning pasayishiga va xizmat muddatining qisqarishiga olib kelishi mumkin

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy dizel dvigatellarida yonilg‘i purkash bosimining ortishi yonish samaradorligini yaxshilash va zararli chiqindilarni kamaytirishga yordam beradi. Biroq moylovchanlik yetarli bo‘lmaganda yuqori bosim ostida ishlaydigan tizimlarda mexanik yeyilish jarayonlari kuchayadi. Shu sababli dizel yoqilg‘isining minimal moylovchanlik talablari xalqaro standartlar bilan belgilangan. Ushbu talablar asosan HFRR (High Frequency Reciprocating Rig) uskunasida aniqlanadigan WSD (Wear Scar Diameter – yeyilish dog‘i diametri) ko‘rsatkichi asosida baholanadi. Ko‘pgina standartlarga ko‘ra, WSD qiymati 460 µm yoki 520 µm dan oshmasligi lozim[1].

Kam oltingugurtli dizel yoqilg‘isining moylovchanligini tiklash maqsadida turli qo‘shimchalar qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda biodizel bu borada istiqbolli alternativa sifatida ko‘rilmoqda. Biodizel – bu o‘simlik moylari yoki hayvon yog‘laridan turli kimyoviy reaksiyalar orqali olingan monoalkil efirlar aralashmasidir. Uning tarkibida kislorodli funksional guruhlar va karboksil kislotalar mavjud bo‘lib, ular metall yuzalar orasida mustahkam adsorbsion qatlam hosil qiladi va moylovchanlikni yaxshilaydi. Shu bois biodizel an’anaviy dizelga qo‘shimcha sifatida keng o‘rganilmoqda[2].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, biodizel sof holda ham, dizel bilan aralashma shaklida ham tribologik xususiyatlarni yaxshilashga qodir. Masalan, metil efirining 10% li aralashmasi past WSD qiymatlarini namoyon etgan. Shuningdek, kungaboqar va zaytun moyidan olingan biodizelning juda kichik konsentratsiyalarda (0,15–0,50%) qo‘shilishi ham sezilarli ijobiy natija bergan. 5–10% biodizel qo‘shilgan aralashmalar esa qo‘shimcha moylovchi moddalarsiz ham an’anaviy dizel darajasida moylovchanlikni ta’minlagan[3].

Shu nuqtai nazardan, kam oltingugurtli dizel yoqilg‘isining tribologik xususiyatlarini yaxshilashda biodizelning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, turli oltingugurt miqdoriga ega dizel yoqilg‘ilarida biodizel qo‘shimchasining ta’sirini solishtirma tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega[4].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – oltingugurt miqdorining kamaytirilishi dizel yoqilg‘isining moylovchanligiga qanday ta’sir qilishini aniqlash hamda soya va kungaboqar biodizelining turli hajmiy ulushlarda (5%, 20% va 100%) qo‘shilishi natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni baholashdan iborat. Shuningdek, AISI 52100 markali po‘lat disklarning yeyilish jarayonlari

ISSN 3030-3907

HFRR uskunasida ASTM D 6079-04 standarti asosida tribologik sinovlar orqali tahlil qilingan[5].

Tadqiqot natijalari kam oltingugurtli dizel yoqilg‘isidan foydalanishda yuzaga keladigan muammolarni kamaytirish va dvigatel inyeksiya tizimlarining xizmat muddatini uzaytirish uchun muqobil yo‘llarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa ekologik talablarni bajarish bilan bir qatorda texnik ishonchlilikni ta’minlash nuqtai nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. [6, 7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida karbamid bilan spirtlar o‘rtasida reaksiyasini amalga oshirildi va hosil bo‘lgan alkil karbamatlarni stearin kislotasi bilan o‘zaro ta’siri natijasida amid guruhga ega sintetik dizel yoqilg‘isi uchun tarkibida azot bo‘lgan (SDa-1) markali prisadkalar sintezi amalga oshirildi.

Bu jarayonda karbamidning (NH_2CONH_2) spirtlar bilan 150-160 °C haroratda 2-6 soat davomida boradigan reaksiyasi o‘rganildi. Jarayon asosan alkogoliz reaksiyasi bo‘lib, natijada alkil karbamatlar (uretanlar) hosil bo‘ladi. Asosiy reaksiya tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

Spirtoliz (alkil karbamat hosil bo‘lishi):

$$NH_2CONH_2 + ROH \rightarrow NH_2COOR + NH_3$$

Reaksiya muvozanatli xarakterga ega bo‘lib, optimal sharoitda karbamid : spirt = 1:3-1:5 (mol) nisbatda olib borilganda yuqori unumga erishiladi. Spirtning ortiqcha miqdorda olinishi hamda ajralayotgan ammiakning (NH_3) tizimdan chiqarib yuborilishi muvozanatni mahsulot tomonga siljitadi.

Jarayon davomida quyidagi yon reaksiyalar kuzatilishi mumkin:

$$NH_2CONH_2 \rightarrow NH_2CONHCONH_2 + NH_3$$

Mazkur reaksiya 150 °C dan yuqori haroratlarda kuchayadi va asosiy mahsulot chiqimini kamaytiradi. Ammonoliz (teskari reaksiya):

$$NH_2COOR + NH_3 \rightleftharpoons NH_2CONH_2 + ROH$$

Shu sababli ammiakni reaksiya muhitidan uzluksiz chiqarish muhim texnologik omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sintez jarayoni amalga oshirish 2-6 soat davomida 150-160 °C harorat karbamatlar sintezi uchun optimal sharoit hisoblanadi. Yuqori harorat va uzoq vaqt selektivlikni pasaytirib, biuret hosil bo‘lish ehtimolini oshiradi. Jarayon mexanizmi karbonil guruhiga spirtning nukleofil reaksiyasi orqali oraliq kompleks hosil bo‘lishi va ammiak ajralishi bilan yakunlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR


Ushbu reaksiyalar orqali olingan sintetik dizel yoqilg‘isi uchun tarkibida azot bo‘lgan (SDa-1) markali prisadkalar fizik kimyoviy xossalari va IQ-

ISSN 3030-3907

spektroskopiyasi hamda amaliyotda neft mahsulotlarga qo‘llab korroziya jarayonlarga ta’siri tahlil qilindi.

Sintetik dizel yoqilg‘isi uchun tarkibida azot bo‘lgan (SDa-1) markali prisadkalarni IQ-spektroskopik tahlil natijalariga ko‘ra, olingan mahsulot spektrida amid va karbamat funksional guruhlariga xos xarakterli yutilish sohalari aniq kuzatildi. 3300–3200 cm^{-1} oralig‘ida keng yutilish maksimumi N–H valent tebranishlariga tegishli bo‘lib, bu amid tipidagi azotli guruh mavjudligini tasdiqlaydi. 2920 va 2850 cm^{-1} atrofidagi intensiv piklar uzun alifatik $–CH_2–$ zanjirning (stearin qoldig‘i) assimetrik va simmetrik valent tebranishlariga mos keladi. Spektrning eng muhim belgisi 1680–1635 cm^{-1} sohada (C=O) tebranishiga tegishlidir. 1540–1510 cm^{-1} oralig‘idagi pik esa C–N tebranishini ifodalaydi. Demak, molekulada karbamat karbonil guruhlari mavjudligi spektr orqali isbotlandi.

Tahlil natijalaridan ko‘rinadiki IQ spektroskopik ma’lumotlari alkil karbamatning kondensatsiyasi natijasida yangi azotli organik birikma hosil bo‘lganini tasdiqlaydi.



1-rasm. Alkil karbamatning IQ-spektroskopiyasi

1-jadvalda ko‘rsatilgan natijalarga ko‘ra Sintetik dizel yoqilg‘isi uchun tarkibida azot bo‘lgan (SDa-1) markali alkil karbamat molekulasi (model: R = C_2H_5; M = 355,55 $g \cdot mol^{-1}$) bir vaqtning o‘zida ikki kuchli qutbli markazni (amid –CONH– va karbamat –NHCOO–) namoyon qiladi. Zichlik (25 °C) 0,93–0,98 $g \cdot cm^{-3}$ bo‘lishi biroz zichroq tuzilma shakllanganligini anglatadi.

ISSN 3030-3907

Moddaning eruvchanligi qo‘llash sohalarini kengroq tahlil qilish imkonini ko‘rsatadi: suvda <0,01 g/100 mL bo‘lishi gidrofob segment ustunligini tasdiqlaydi, ya’ni molekulaning suvda gidratlanishni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qutbli organik erituvchilarda (masalan, etanolda) harorat oshganda eruvchanlikning sezilarli ortishi (5–10 g/100 mL, 40–50 °C da) karbamat guruhlari bilan izohlanadi. Termik barqarorlikning ~200 °C gacha baholanishi karbamat strukturasining mo‘tadil mustahkamligini ko‘rsatsatadi, undan yuqori haroratlarda parchalanish ehtimoli mavjudligi texnologik ishlovlarda (masalan, qo‘shish/eritish jarayonlari) haroratni ehtiyotkor nazorat qilish zarurligini ko‘rsatadi. Mahsulotning yoqilg‘i-moylash tizimlari uchun sirt-aktiv/tribologik qo‘shimcha sifatida qo‘llash imkonini beradi (1jadval).

1-jadval

Sintetik dizel yoqilg‘isi uchun tarkibida azot bo‘lgan (SDa-1) markali prisadkalarni fizik -kimyoviy xossalari

№	Ko‘rsatkich	Qiymat
2	Molekulyar massa	355.55 g/mol
3	Tashqi ko‘rinishi	och sarg‘ish qattiq modda
4	Eritish harorati (Tm)	68–82 °C
5	Zichligi (25 °C)	0.93–0.98 g/cm³
6	Suvda eruvchanligi	< 0.01 g/100 ml
7	Etanolda eruvchanligi	5–10 g/100 ml (40–50 °C da ↑)
8	Xloroformda eruvchanligi	≥20 g/100 ml
9	Termik barqarorlik	200 °C gacha

2-jadvalda Sintetik dizel yoqilg‘isi uchun tarkibida azot bo‘lgan (SDa-1) markali prisadkalarni dizel muhitlarida eruvchanligi yoqilg‘i tarkibining aromatik-parafin nisbati va qutblilik darajasi bilan bog‘liqlik qonuniyatlari tahlil qilingan. Yuqori oltingugurtli dizelda (1800 ppm S) eruvchanlikning 3-5 mass.% oralig‘ida bo‘lishi dispers o‘zaro ta’sirlarni kuchaytirishi bilan izohlanadi. Biodizel muhitida (B100) eruvchanlikning 5-10 mass.% gacha oshishi eng muhim farqlovchi natija hisoblanadi: biodizel metil efirlari qisman qutbli bo‘lib, amid va karbamat guruhlari bilan vodorod bog‘lanishni kuchaytiradi. Shuning uchun B20 (20% biodizel) da 3-6 mass.%, B5 da 2-4 mass.% diapazonlari biodizel ulushi ortishi bilan eruvchanlikning oshishini ko‘rsatadi. Qishki dizelda eruvchanlikning 1-2 mass.% ga tushishi past harorat sharoitida parafin kristallanishi va moddaning qattiq faza hosil qilish moyilligi bilan izohlanadi.

ISSN 3030-3907

2-jadval

Sintetik dizel yoqilg‘isi uchun tarkibida azot bo‘lgan (SDa-1) markali prisadkalarni turli dizel yoqilg‘ilarda eruvchanligi (25ºC)

№	Yoqilg‘i turi	Eruvchanligi, % (massa)
1	Dizel (1800 ppm S)	3–5 %
2	Dizel (500 ppm S)	2–4 %
3	Kam oltingugurtli dizel (50 ppm S)	1–3 %
4	Biodizel (B100, metil esterlar)	5–10 %
5	B20 (20% biodizel aralashmasi)	3–6 %
6	B5 (5% biodizel)	2–4 %
7	Qishki dizel (past T fraksiyasi)	1–2 %

Mazkur jadvalda keltirilgan natijalarning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda amid–karbamat tipidagi qo‘shimchaning eruvchanligi bevosita oltingugurt miqdori bilan emas, balki oltingugurt miqdorining kamayishi bilan parallel ravishda o‘zgaradigan yoqilg‘i tarkibining fizik-kimyoviy xususiyatlari xususan, aromatiklik darajasi va muhit qutbliligi bilan bog‘liqligi asoslab berilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur modda ultra past oltingugurtli dizel (ULSD, 50 ppm S) muhitida ham amaliy qo‘llash dozalarida (odatda 0,1–1,0 mass.%) yetarli darajada eruvchanlikka ega. Biroq maksimal gomogenlikni ta’minlash hamda past harorat sharoitida barqaror dispers tizim hosil qilish uchun uni biodizel fraksiyalari (B5–B20) bilan kombinatsiyalangan holda qo‘llash maqsadga muvofiq ekani aniqlandi. Bu yondashuv yoqilg‘i tarkibining qutbliligini oshirish orqali qo‘shimchaning molekulyar darajada barqaror taqsimlanishini yaxshilaydi.

Shuningdek, sintetik dizel yoqilg‘isi uchun tarkibida azot saqlovchi (SDa-1 markali) prisadkaning dizel yoqilg‘ilariga qo‘shilganda korroziyaga ta’siri kompleks ravishda tadqiq etildi. Olingan natijalar asosida qo‘shimchaning metall yuzalar bilan o‘zaro ta’sir mexanizmi hamda uning korroziyaviy jarayonlarga inhibirlovchi ta’siri ilmiy jihatdan baholandi(3-jadval).

ISSN 3030-3907

3-Jadval.

SDa-1 azotli prisadkasining sintetik dizel yoqilg‘isida po‘lat namunaning korroziya kinetikasiga ta’siri (gravimetrik usul)

Namuna	Yuzasi S (m^2)	M_0 (g)	M_1 (g)	Δm (g)	V_0 ($g \cdot m^{-2} \cdot s^{-1}$)	V_i ($g \cdot m^{-2} \cdot s^{-1}$)	Z (%)
Ingibitorsiz	0.00160	0.47821	0.38385	0.09436	4.91×10^{-1}	–	–
1 %	0.00192	0.44511	0.43572	0.00939	–	4.52×10^{-2}	90.80
3 %	0.00193	0.46972	0.46115	0.00857	–	4.30×10^{-2}	91.25
6 %	0.00170	0.49718	0.48905	0.00813	–	4.05×10^{-2}	91.75

Mazkur tadqiqotda tarkibida azot saqlovchi SDa-1 markali prisadkaning sintetik dizel yoqilg‘isida metall yuzasining korroziyaga uchrash tezligiga ta’siri gravimetrik usul asosida o‘rganildi. Korroziya tezligi $g \cdot m^{-2} \cdot s^{-1}$ birlikda aniqlanib, massa yo‘qotilishi (Δm) orqali hisoblandi. Olingan natijalarga ko‘ra, ingibitorsiz muhitda korroziya tezligi $V_0 = 4.91 \times 10^{-1}$ $g \cdot m^{-2} \cdot s^{-1}$ ni tashkil etdi, bu metall yuzasida intensiv oksidlanish jarayoni kechayotganini ko‘rsatadi. SDa-1 prisadkasi qo‘shilganda esa korroziya tezligi bir tartibga kamayib, 10^{-2} $g \cdot m^{-2} \cdot s^{-1}$ darajasiga tushdi. Xususan, 1 % konsentratsiyada $V_i = 4{,}52 \times 10^{-2}$ $g \cdot m^{-2} \cdot s^{-1}$, 3 % da 4.30×10^{-2} $g \cdot m^{-2} \cdot s^{-1}$, 6 % da esa 4.05×10^{-2} $g \cdot m^{-2} \cdot s^{-1}$ qiymatlar qayd etildi.

Himoya samaradorligi (Z) 1-6 % oralig‘ida 90,80–91,75 % diapazonda bo‘lib, konsentratsiya oshishi bilan korroziya tezligining kamayishi sirtning bosqichma-bosqich adsorbsion to‘yinganligi bilan izohlanadi. Azot saqlovchi funksional guruhlar metall yuzasida donor-akseptor o‘zaro ta’sirlar orqali kimyoviy adsorbsion qatlam hosil qiladi, natijada anod va katod reaksiyalari kinetikasi sezilarli darajada sekinlashadi.

Korroziya tezligining 10^{-1} dan 10^{-2} $g \cdot m^{-2} \cdot s^{-1}$ darajagacha kamayishi SDa-1 prisadkasining yuqori sirt-faolligi va barqaror himoya plyonka hosil qilish qobiliyatini tasdiqlaydi. 3-6 % konsentratsiya oralig‘ida himoya samaradorligining nisbatan barqarorlashuvi esa maksimal adsorbsion qoplanish chegarasiga yaqinlashganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, natijalar SDa-1 azotli prisadkasining sintetik dizel muhitida samarali korroziya ingibitori sifatida ishlatilishi mumkinligini ilmiy asoslaydi va uning optimal konsentratsiyasi 3-6 % oralig‘ida ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA

ISSN 3030-3907

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida amid–karbamat tuzilishga ega SDa-1 azotli prisadka sintez qilindi va uning tuzilishi IQ spektroskopiya usuli yordamida o‘rganildi. Moddaning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari, dizel muhitiga mos keluvchi lipofil xarakterga ega ekanini ko‘rsatdi. Olingan prisadka qo‘llanilganda korroziya tezligini bir tartibga kamayishi va himoya samaradorligining 90 % dan yuqori bo‘lishi, SDa-1 ning metall yuzasida barqaror adsorbsion qatlam hosil qilganligidan dalolat beradi. Olingan tadqiqot natijalari ushbu birikmaning kam oltingugurtli sintetik dizel yoqilg‘ilarida samarali funksional qo‘shimcha sifatida qo‘llanish istiqbolini ilmiy jihatdan asoslaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. European Parliament and Council. (2005). Directive 2005/55/EC on the approximation of the laws of the Member States relating to measures to be taken against the emission of gaseous and particulate pollutants from compression ignition engines (EURO IV standard). Official Journal of the European Union.
2. Knothe, G., Krahl, J., & Van Gerpen, J. (2005). The Biodiesel Handbook. Champaign, IL: AOCS Press.
3. Hu, J., Du, Z., Li, C., & Min, E. (2005). Study on the lubrication properties of biodiesel as fuel lubricity enhancers. Fuel, 84(12–13), 1601–1606.
4. Haseeb, A. S. M. A., Fazal, M. A., Jahirul, M. I., & Masjuki, H. H. (2011). Compatibility of automotive materials in biodiesel: A review. Fuel, 90(3), 922–931.
5. ASTM International. (2004). ASTM D6079-04: Standard Test Method for Evaluating Lubricity of Diesel Fuels by the High-Frequency Reciprocating Rig (HFRR). West Conshohocken, PA: ASTM International.
6. Sukjit, E., & Dearn, K. D. (2011). Enhancing the lubricity of an environmentally friendly Swedish low sulphur diesel fuel MK1. Wear, 271(9–10), 1772–1777.
7. Anastopoulos, G., Zannikos, F., Stournas, S., & Kalligeros, S. (2001). Transesterification of vegetable oils with ethanol and characterization of the key fuel properties of ethyl esters. Energy & Fuels, 15(2), 396–402.

ISSN 3030-3907

CHAKANDA (HIPPOPHAE RHAMNOIDES L.) O‘SIMLIGINING BIOLOGIK AKTIV MODDALARI VA UNING SARATONGA QARSHI XUSUSIYATLARI

Nazirtashova Roziya Mamadaliyevna
O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, "Tibbiy va biologik kimyo" kafedrasi assistenti,
E-mail: nazirtashovaroziyaxon@gmail.com
Abdulhayeva Gavharoy Xusanjon qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot insituti, Pediatriya fakulteti, Farmatsiya yo‘nalishi 1- bosqich talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada chakanda (*Hippophae rhamnoides L.*) o‘simligining kimyoviy tarkibi, biologik faol moddalari va ularning saraton kasalliklariga qarshi qo‘llanilish istiqbollari yoritilgan. Chakanda tarkibidagi vitaminlar, flavonoidlar, karotinoidlar, yog‘ kislotalari va fenol birikmalari kuchli antioksidant xususiyatga ega bo‘lib, hujayralarni erkin radikallar ta’siridan himoya qiladi. Maqolada ushbu o‘simlikning o‘sma hujayralari rivojlanishini sekinlashtirish, apoptozni rag‘batlantirish, immunitetni mustahkamlash hamda kimyo va radioterapiyaning nojo‘ya ta’sirlarini kamaytirishdagi ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek, chakandaning xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotdagi qo‘llanilish shakllari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: chakanda, antioksidantlar, saratonga qarshi, flavonoidlar, apoptoz, fitoterapiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются химический состав облепихи (*Hippophae rhamnoides L.*), её биологически активные вещества и перспективы применения при онкологических заболеваниях. В составе облепихи содержатся витамины, флавоноиды, каротиноиды, жирные кислоты и фенольные соединения, обладающие выраженными антиоксидантными свойствами и защищающие клетки от воздействия свободных радикалов. В статье освещается значение облепихи в замедлении роста опухолевых клеток, стимуляции апоптоза, укреплении иммунной системы, а также в снижении побочных эффектов химио- и радиотерапии. Кроме того, рассмотрены формы применения облепихи в народной и современной медицине.

Ключевые слова: облепиха, антиоксиданты, противораковые свойства, флавоноиды, апоптоз, фитотерапия.

Annotation. This article discusses the chemical composition of sea buckthorn (*Hippophae rhamnoides L.*), its biologically active compounds, and its potential use in cancer treatment. Sea buckthorn contains vitamins, flavonoids, carotenoids,

ISSN 3030-3907

fatty acids, and phenolic compounds, which have strong antioxidant properties and protect cells from the harmful effects of free radicals. The article highlights its role in slowing the growth of tumor cells, stimulating apoptosis, strengthening the immune system, and reducing the side effects of chemotherapy and radiotherapy. In addition, the forms of its use in traditional and modern medicine are described.

Keywords: sea buckthorn, antioxidants, anticancer, flavonoids, apoptosis, phytotherapy.

KIRISH

Saraton kasalligi zamonaviy tibbiyotning eng murakkab muammolaridan biri bo‘lib, kimyoviy terapiyaning nojo‘ya ta’sirlari tufayli olimlar tabiiy, o‘simliklar asosidagi dori vositalariga katta e’tibor qaratmoqdalar. Chakanda (Hippophae rhamnoides L.) o‘zining boy vitaminlar majmuasi va noyob biologik faol moddalari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, uning tarkibidagi antioksidantlar hujayralarni erkin radikallardan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Chakanda yoki maymunjiyda — bo‘yi 4–6 m gacha boradigan, po‘stlog‘i qo‘ng‘ir tusda bo‘ladigan sershox buta yoki daraxt. Novdalari tangacha va tuklar bilan qoplangan bo‘lganidan avvaliga kumushrang bo‘lib ko‘zga tashlanadi, keyinchalik zangsimon-qo‘ng‘ir tusga kiradi, tikanlari ham bo‘ladi. Barglari navbatma-navbat joylashgan, kalta bandli, uzunligi 6–8 sm gacha boradi. Barg yaprog‘i ustki tomonidan sal kulrang aralash to‘q yashil, pastki tomonidan sarg‘ish bo‘ladi. Gullari bir jinsli, ikki uyli, kalta bandli bo‘lib, mevasi uzunligi 1 sm gacha boradigan, zarg‘aldoq yoki qizg‘ish tusda bo‘ladigan, sershira, xushbo‘y danakli meva. Danagi silliq, uzunasiga ketgan egatchasi bor.

Barg yozmasidan oldin yoki barg yozishi bilan bir vaqtda, aprel–may oylarida gullaydi, mevalari avgust oxirlari va oktabr boshlarida yetiladi hamda kelasi yil bahorigacha o‘simlikda turaveradi.

O‘rta Osiyodagi hamma respublikalarda, Qozog‘istonning janubiy tomonlarida, shuningdek Kavkaz, Oltoy, Baykalorti va boshqa joylarda uchraydi. To‘qaylar, daryo vodiylari, soylar chetlarida o‘sadi. Qimmatli servitamin va manzarali o‘simlik tariqasida, daryo sohillari va jar yoqalarini mustahkamlash uchun ekiladi. Urug‘idan ko‘payishi bilan bir qatorda, payvand yo‘li bilan ham yaxshi ko‘payadi. Ishlatiladigan organlari: mevalari va urug‘i; urug‘idan moy olinadi.

Chakanda mevalari xalq tabobatida yara-jarohatlarni bitiradigan, og‘riq qoldiradigan, lavsha, ya’ni singa kasalligiga davo bo‘ladigan vosita tariqasida qadimdan ishlatilib kelinadi. O‘rta Osiyoda bo‘g‘im og‘riqlarida badanning kasal joylariga chakanda barglarini qo‘yish tavsiya etiladi, bu o‘simlikning mevalari va

ISSN 3030-3907

gullari kuyuk yaralar bilan yotoq yaralari, kolit, me'da va o'n ikki barmoq ichak kasalligi davosiga ishlatiladi.

Chakandadan tomoq og'rig'i, tish og'rig'i, tish atrofidagi to'qimalar yallig'lanishi (periodontit)ga davo qilishda ham foydalaniladi. Barglari va yosh novdalaridan tayyorlangan ekstraktlari ich ketar mahalida ichish uchun buyuriladi. Gastritlar, gepatitlar, bronxit, zotiljam va terining yiringli kasalliklariga davo qilishda qadimgi tabiblar chakanda barglari va mevalaridan dori tayyorlashgani ma'lum. Bundan tashqari, chakandadan qon to'xtatadigan vosita tariqasida ham foydalanishgan.

Zamonaviy tabobatda chakanda moyining yara-jarohatlar bitib ketishiga yordam berishi, bakteriyalarga qarshi ta'sir ko'rsatib, ko'pgina mikroblarning o'sishini to'xtatib qo'yishi aniqlangan. Alkogol va uglerod tetraxlorid ta'sirida paydo bo'lgan gepatitlarda chakanda moyining ancha naf berishi hayvonlar ustidagi tajribalarda isbotlangan. Bu moy sklerozga qarshi ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ham ega.

Chakandaning yosh novdalari va barglaridan spirtda tayyorlangan ekstrakt hamda undan olinadigan "gippofain" degan preparatning ba'zi turdagi xavfli o'smalarning o'sishini sekinlashtirib qo'yishi tajribalarda ma'lum bo'lgan. "Gippofain" qon bosimini pasaytirish xususiyatiga ham egadir. Chakanda moyining zararlangan to'qimalarda et olib, bitishini tezlashtirishi, yallig'lanishga qarshi va og'riqsizlantiruvchi ta'sir ko'rsatishi klinik sinovlarda aniqlangan. Bu preparatdan teri kasalliklari klinikasida, stomatologiya va oftalmologiyada ham keng foydalaniladi.

Chakanda qadim zamonlardan xalq tabobotida keng qo'llanib kelinadi. Uning mevasi tarkibida ko'plab biologik faol moddalar mavjud. Chakanda mevalari, barglari va urug'lari farmatsevtika, kosmetologiya va oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladi. Ayniqsa, uning tarkibidagi antioksidantlar va immunitetni mustahkamlovchi moddalar tufayli zamonaviy tibbiyotda unga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Chakanda tarkibidagi biologik faol moddalar ham bor. Chakanda o'simligining eng muhim xususiyati- uning boy kimyoviy tarkibidir. Uning mevasida quyidagi biologik faol komponentlar mavjud. Jumladan vitaminlar, flavonoidlar, karotinoidlar, yog' kislotalari, fenol birikmalari kiradi. Vitaminlar – chakanda C vitaminiga juda boy bo'lib, ba'zan limon va apelsindan ham yuqori miqdorda uchraydi. Bundan tashqari A vitamin E, K, B guruh vitaminlari ham bor. Bu vitaminlar organizimni erkin radikallardan himoya qiladi va hujayraning yangilanishiga yordam beradi. Flavonoidlar kuchli antioksidant xususiyatga ega bo'lib, hujayralarni oksidlovchi stressdan himoya qiladi, yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi,

ISSN 3030-3907

o‘sma hujayralarining rivojlanishini sekinlashtiradi. Chakandaning yorqin rangi aynan karotinoidlar bilan bog‘liq. Ular immunitet tizimini faollashtirib, hujayra shikastlanishining oldini oladi va saraton rivojlanish xavfini kamaytiradi. Chakanda tarkibida omega-3, omega-6, omega-7 va omega-9 yog‘ kislotalari mavjud. Ayniqsa, omega-7 palmitolein kislotasi to‘qimalarining tiklanishini tezlashtiradi va shilliq qavatlarni himoya qiladi. Fenol birikmali moddalar organizmda antioksidantlik va detoksifikatsiya jarayonlarini faollashtiradi. Ular zararli moddalarning hujayraga ta’sirini kamaytiradi.

Chakanda tarkibida uchraydigan biologik faol moddalar nafaqat umumiy sog‘liqni mustahkamlashda, balki hujayralarni turli zararli omillardan himoya qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning tarkibidagi tabiiy antioksidantlar organizmda kechadigan oksidlanish jarayonlarini me’yorlashtirib, hujayra membranalari va genetik apparatning shikastlanish ehtimolini kamaytiradi. Shu jihatdan chakanda zamonaviy fitoterapiyada istiqbolli dorivor o‘simliklardan biri sifatida baholanadi.

So‘nggi yillarda o‘simlik asosidagi preparatlarga bo‘lgan qiziqishning ortishi bejiz emas, chunki bunday vositalar ko‘pincha sintetik dori vositalariga nisbatan yumshoqroq ta’sir ko‘rsatadi va organizm tomonidan yaxshiroq qabul qilinadi. Chakanda ham ana shunday tabiiy manbalardan biri bo‘lib, uning meva, barg va urug‘laridan olinadigan mahsulotlar profilaktika hamda tiklanish jarayonlarida samarali qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, uning immunomodulyator, regenerativ va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlari ilmiy jihatdan alohida e’tiborga loyiqdir.

Bundan tashqari, chakanda o‘simligi inson organizmida modda almashinuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, to‘qimalarning yangilanish jarayonini jadallashtiradi. Bu esa ayniqsa og‘ir kasalliklardan keyingi tiklanish bosqichida, shuningdek, saraton kasalligida organizmning himoya kuchlarini qo‘llab-quvvatlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli chakandani farmakologik va biokimyoviy jihatdan chuqur o‘rganish hozirgi tibbiyotning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Chakanda o‘simligi saratonni davolashda asosiy dori bo‘lmasa-da, kuchli yordamchi terapiya vositasidir. U kimyoviy terapiyaning toksik ta’sirini kamaytiradi va bemorning immun tizimini mustahkamlaydi. Kelajakda ushbu o‘simlikdan selektiv (tanlab ta’sir etuvchi) antikanserogen preparatlar olish istiqbolli hisoblanadi. Chakandaning antioksidant xususiyati saraton kasalliklarining asosiy sabablaridan biri — oksidlovchi stressdir. Erkin radikallar DNK tuzilishini buzadi va hujayralarning nazoratsiz bo‘linishiga olib keladi. Chakanda tarkibidagi vitamin C, vitamin E, karotinoidlar, flavonoidlar, erkin radikallarni zararsizlantirib, hujayralarni himoya qiladi. Shu sababli

ISSN 3030-3907

chakanda kuchli tabiiy antioksidant hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, chakanda o‘simligi saraton kasalliklariga qarshi quyidagi yo‘llar bilan ta’sir ko‘rsatadi: o‘sma hujayralarining o‘sishini sekinlashtiradi. Flavonoidlar va polifenollar o‘sma hujayralarining bo‘linish jarayonini sekinlashtirib, apoptozni faollashtiradi. Chakanda tarkibidagi bioaktiv moddalar zararli hujayralarning tabiiy yo‘l bilan nobud bo‘lishini (apoptoz) rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, immunitetni faollashtirib, organizmning o‘sma hujayralariga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi. Surunkali yallig‘lanish saraton rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Chakanda bu jarayonlarni kamaytiradi.

Klinik va eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chakanda ekstrakti ko‘krak bezi saratoni hujayralarining o‘sishini kamaytirgan. Jigar va oshqozon saratonida ijobiy natijalar qayd etilgan. Radiatsiya va kimyoterapiya vaqtida organizmni himoya qiluvchi ta’sir ko‘rsatganligi, chakanda yog‘ining shilliq qavatlarni tiklash, og‘iz va oshqozon yaralarini davolash, davolashdan keyingi tiklanishni tezlashtirishda samarali bo‘lganligi aniqlangan. Tibbiyotda chakanda quyidagi shakllarda ishlatiladi: yog‘, sharbat, ekstrakt, kapsula va biologik qo‘shimchalar. U immunitetni mustahkamlash, yallig‘lanishni kamaytirish, radiatsiya ta’siridan himoyalash, tiklanish jarayonlarini tezlashtirish uchun qo‘llaniladi.

Xalq tabobatida chakandadan quyidagicha foydalaniladi:

1. Chakanda mevalarini yuvib tozalab, ho‘lligicha, qoqi qilib yeyiladi, bulardan kompotlar, murabbolar tayyorlanadi (servitamin masalliq tariqasida).

2. Chakanda moyi me’da va o‘n ikki barmoqli ichakning yara kasalligida 1 choy qoshiqdan kuniga 3 mahal ichiladi.

Omixta yem texnologiyasida noan’anaviy xomashyodan foydalanish bir qator muhim vazifalarni hal etadi. Birinchidan, omixta yem tarkibida qimmatli don xomashyosi ulushini kamaytirish, natijada ularning tannarxini pasaytirish va biologik to‘liqligini oshirish. Ikkinchidan, ekologik vaziyatni yaxshilash, chunki bugungi kunda ikkilamchi xomashyo resurslaridan to‘g‘ri foydalanilmayapti va ko‘p hollarda chiqindiga chiqarilmoqda. Uchinchidan, kompleks hosil qiluvchi xususiyatlarga ega bo‘lgan pektin tarkibli xomashyodan foydalanish orqali chorvachilik mahsulotlari tarkibida uchraydigan zaharli elementlar, radionuklidlar, pestitsidlar va boshqa xavfli moddalarning inson organizmiga kirib qolishi muammosini hal qilish mumkin [2, 3; 468-b.].

Ozuqa bazasini kengaytirish yangi resurs tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish, ilmiy asoslangan ozuqa qo‘shimchalari retseptlarini yaratish va oziq-ovqat sanoatining turli tarmoqlaridagi noan’anaviy hamda ikkilamchi xomashyolardan foydalanish orqali omixta yemlarning kimyoviy tarkibini maqsadli o‘zgartirish bilan bog‘liq [4; 540-544-b., 5; 62-65-b., 6; 60-62-b.].

Ozuqa tarkibida noan’anaviy xomashyo, ayniqsa, oziq-ovqat chiqindilaridan foydalanish donli xomashyo sarfini kamaytirib, atrof-muhit ekologiyasini yaxshilash imkonini beradi. Shu bois, ushbu xomashyodan foydalangan holda omixta yemlarning yangi retseptlarini ishlab chiqish omixta yem ishlab chiqarishda ilmiy tadqiqotlarning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [7; 39-48-b., 8; 129-131-b.]. Olimlar va chorvadorlarning alohida e’tiborini oziq-ovqat sanoatining turli tarmoqlaridagi ikkilamchi xomashyolari tortmoqda. Bu xomashyolar nisbatan arzon va oson topiladi hamda tegishli ishlovdan so‘ng ozuqaviy xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin [9; 3-b., 10; 25-28-b., 11; 3-6-b., 12; 21-23-b.]. Masalan, ozuqa mahsulotlarini ishlab chiqarishda to‘laqonli oqsil, vitaminlar va mineral moddalar manbai sifatida go‘sht sanoatining ikkilamchi xom ashyosi ishlatiladi: qon, suyaklar, II-toifadagi mahsulotlar, xom yog‘, shox-tuyoq xomashyosi, teri xomashyosi va boshqalar. Bular ozuqa uni (qon, suyak, shox-tuyoq, go‘sht-suyak) bo‘lib, ularning tarkibidagi xom protein miqdori 30 foizdan 80 foizgacha o‘zgarib turadi. Bu mahsulotlar yuqori biologik qiymati va A hamda E vitaminlari mavjudligi bilan ajralib turadi [12; 21-23-b.].

Shunday qilib, oziq-ovqat sanoatida hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni chuqur qayta ishlash qo‘shimcha xomashyo manbalarini jalb etmasdan turib katta hajmdagi yuqori qiymatga ega mahsulotlar olish imkonini yaratadi [13]. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan foydalanish darajasini ko‘paytirish hamda chiqindilar miqdorini kamaytirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur sharoitda ikkilamchi xomashyolarni qayta ishlash darajasi va texnologik teranligini oshirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Shu bilan birga, bunday yondashuv ishlab chiqarish jarayonining ekologik jihatdan xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ikkilamchi resurslardan oqilona foydalanish chiqindilarni kamaytirish, atrof-muhitga salbiy ta’sirni cheklash va barqaror ishlab chiqarish tamoyillarini amalga oshirish imkonini beradi. Natijada iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik barqarorlik ham ta’minlanadi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, ushbu ishda oziq-ovqat sanoatining ikkilamchi xomashyolari asosida olingan omixta yem konsentratining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini tadqiq etilgan.

Bunda tadqiqot obyekti sifatida kraxmal-patoka ishlab chiqarishdagi makkajo‘xori glyuteni, guruch oqshog‘ini qayta ishlashda olingan guruch shlami, uzum turpi va omixta yem-konsentratlari olingan.

Makkajo‘xori glyuteni (Adm Corn Gluten) - kraxmal, murtak va qobiqning asosiy qismi ajratib olingandan so‘ng konsentrlangan moddadan olingan quruq qoldiqdir (2303 10 110 0 TH ВЭД ЕАЭС). Hozirgi kunda Toshkentdagi “Golden Corn” kraxmal-patoka ishlab chiqarish korxonasida hayvonlar ratsioniga ozuqa qo‘shimchasi sifatida makkajo‘xori glyuteni, maydalangan donlar(droblyonka) va quruq mezgani ishlab chiqarmoqda. Makkajo‘xori donidan kraxmal ishlab chiqarishning ikkilamchi mahsulotlarining asosiy sifat ko‘rsatkichlari va biologik qiymati tadqiq qilingan [14; 461-464-b.].

Omixta yemning potensial tarkibiy qismi sifatida uzum turplarining (UT) ozuqaviy qiymatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlili shuni namoyon etdiki, ushbu xom ashyoning o‘rganilayotgan namunalari sezilarli miqdorda ozuqaviy tolalar (kletchatka), xom oqsil va azotsiz ekstraktiv moddalarni o‘z ichiga oladi.Ular uzumga xos bo‘lgan yoqimli hid va ta’m bilan ajralib turadi hamda qizil navli uzumdan olingan sarg‘ish rangli massani tashkil etadi[15]. Toshkent shaxrida joylashgan “Zebiniso ona” MChJga qarashli patoka ishlab chiqarish bo‘limida guruch oqshog‘idan patoka ishlab chiqarishning ikkilamchi mahsuloti-guruch shlamining ozuqaviy qiymatining asosiy ko‘rsatkichlari o‘rganilgan[16; 65-69-b.].

Omixta yem retseptlari va ularning iqtisodiy tahlillari 1,2-jadvallarda qayd etilgan.

1-Jadval

Omixta yemning nazorat va tajriba variantlari retseptlari hamda 1 t xomashyo uchun qiymatlar

Tarkibiy qism	KK-62 START		KK-63 GROW		1 t xomashyo qiymati, so‘m
	Nazorat	Tajriba	Nazorat	Tajriba	
Arpa	45,00	45,00	52,0	52,0	2 316 000
Bug‘doy	-	-	10,0	5,0	2 173 717
Makkajo‘xori	20,00	10,00	-	-	5 500 000

ISSN 3030-3907

Bug‘doy kepagi	-	-	17,0	-	2 400 000
Kungaboqar kunjarasi	12,00	12,00	5,0	5,0	3 500 000
Kungaboqar shroti	10,00	10,00	10,0	10,0	3 500 000
Soya shroti	10,00	10,00	-	-	4 300 000
Makkajo‘xori glyuteni	-	10,00	-	5,0	4 500 000
Guruch shlami	-	0,50	-	10,0	1 000 000
Uzum turpi	-	0,50	-	7,0	1 300 000
P62-1 premiksi	1,00	-	-	-	21 500 000
Ozuqaviy achitqi	-	-	4,0	4,0	5 070 000
Monokalsiy fosfat	0,50	0,50	-	-	16 000 000
Osh tuzi	0,50	0,50	1,0	1,0	7 000 000
Ohaktosh uni	1,00	1,00	1,0	1,0	9 000 000
Jami, %	***100,00***	***100,00***	***100,00***	***100,00***	-

2-Jadval

Nazorat va tadqiq etilayotgan KK-62 va KK-63 tarkibli omixta yem retseptlari bo‘yicha 1 tonna mahsulot uchun kalkulyatsiya

Xarajatlar nomi	Sarf	*narx, so‘m*	*Qiymat ifodasi, so‘m*			
			KK-62 START (nazorat)	KK-62 START (tajriba)	KK-63 GROW (nazorat)	KK-63 GROW (tajriba)
Moddiy xarajatlar – jami			**3 762 200 ,0**	**2 881 791 ,7**	**3 458 700 ,0**	**2 781 105, 85**
Gaz, kub. m	7,0	1500, 0	10 500,0	10 500,0	10 500,0	10 500,0
Elektr energiyasi, kVt/soat	65,0	900,0	58 500,0	58 500,0	58 500,0	58 500,0
Suv, kub. m	5,2	7870, 0	40 924,0	40 924,0	40 924,0	40 924,0
Ishchilarning ish haqi	-	-	800 000,0	800 000,0	800 000,0	800 000,0
Yagona ijtimoiy to‘lov	12,0 %	-	96 000,0	96 000,0	96 000,0	96 000,0

ISSN 3030-3907

Uskunalarning amortizatsiyasi	-	-	8 000,0	8 000,0	8 000,0	8 000,0
Sex tannarxi			**4 776 124 ,0**	**3 895 715 ,7**	**4 472 624 ,0**	**3 795 029, 85**
Transport xarajatlari			15 000	15 000	15 000	15 000
Ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar			15 000	15 000	15 000	15 000
To‘liq tannarx			**4 806 124 ,0**	**3 925 715 ,7**	**4 502 624**	**3 825 029,85**
Zaruriy foyda massasi			1 102 438 ,0	1 162 202 ,0	774 850,0	962 800,0
Korxonaning sotish narxi			**5 908 562 ,0**	**5 087 917 ,7**	**5 277 474 ,0**	**4 787 829, 85**

O‘zbekiston Respublikasining agrooziq-ovqat bozorida import o‘rnini bosish siyosatini izchil amalga oshirish mahalliy ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda strategik ahamiyatga ega tarmoqlarni rivojlantirishni taqozo etadi. Ushbu jarayonda omixta yem sanoatini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish hajmini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Zero, sifatli va muvozanatlangan omixta yem bilan ta’minlash chorvachilik tarmog‘ining barqaror faoliyat yuritishi, hayvonlarning genetik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini oshirish hamda yakuniy mahsulot tannarxini pasaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Omixta yem ishlab chiqarishni rivojlantirish nafaqat ichki bozor ehtiyojlarini qondirish, balki iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, valyuta mablag‘larining chetga chiqib ketishini kamaytirish va mahalliy xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi. Shu bois, yangi va ilmiy asoslangan retsepturalar asosida omixta yem ishlab chiqarishning texnologik hamda iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash dolzarb vazifalardan biridir.

Bunday baholash jarayonida mahsulotning to‘liq tannarxini aniqlash, xomashyo, energiya va mehnat resurslari sarfini tahlil qilish, realizatsiya narxini iqtisodiy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ishlab

ISSN 3030-3907

chiqilgan tajriba namunalarining sifat ko‘rsatkichlarini amaldagi me’yoriy hujjatlar, standartlar va nazorat parametrlari bilan qiyosiy tahlil qilish zarur. Mazkur yondashuv yangi retsepturalarning amaliy qo‘llanilishi, rentabellik darajasi hamda ishlab chiqarish jarayonining texnologik maqbulligini har tomonlama baholash imkonini beradi.

Tajribaviy omixta yem ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligining umumiy ko‘rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-Jadval

Omixta yem ishlab chiqarishda o‘rganilayotgan ikkilamchi xom ashyoni qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi (tayyor mahsulotning bir tonnasi uchun)

Ko‘rsatkichlar	Omixta yem ko‘rsatkichlarining qiymati					
	KK-62 START			KK-63 GROW		
	ko‘rsatkichlar		±Δ nazoratga nisbatan	*ko‘rsatkichlar*		±Δ nazoratga nisbatan
	nazorat	*tajriba*		*nazorat*	*tajriba*	
Moddiy xarajatlar, so‘m	3762200,0	2881791,7	-880408,3	3458700	2781105,85	677 594,15
Foyda, so‘m	1102438,0	1162202,0	+59764,0	774850	962800,0	+187 950,0
Moddiy xarajatlar rentabelligi, %	29,3	40,3	+ 11,0	20,6	34,6	+ 14,0
Mahsulot rentabelligi, %	22,9	29,6	+ 6,7	17,2	25,17	+10,49
1 kg omixta yemning sotish narxi, so‘m	5908,56	5087,92	-820,64	5277,47	4787,83	-489,64

Moddiy xarajatlarni kamaytirishdan olinadigan samaradorlikni hisoblash shuni ko‘rsatdiki, boshqa teng sharoitlarda omixta yemni tajriba variantlari retsepturalari bo‘yicha ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan eng maqsadga muvofiqdir, chunki bunda moddiy xarajatlarning kamayishi, 1 tonna tayyor

ISSN 3030-3907

mahsulot uchun foyda miqdori va rentabellik darajasining oshishi kuzatiladi (3-jadval).

3-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, KK-62 START holatida nazoratga nisbatan taklif etilayotgan retseptura bo‘yicha omixta yem ishlab chiqarishdagi moddiy xarajatlar 1 tonna tayyor mahsulot uchun 880 408,3 so‘mga tejaladi, korxona foydasi 59 762,0 so‘mga oshadi, moddiy xarajatlar va mahsulot rentabelligi esa 11,0 va 6,7 foizga ko‘payadi, 1 kg omixta yemning ulgurji narxi esa 820,64 so‘mga pasayadi. Shuningdek, KK-63 ROST holatida esa ushbu ko‘rsatkichlar nazoratga nisbatan mos ravishda ishlab chiqarishdagi moddiy xarajatlar 1 tonna tayyor mahsulot uchun 677 594,15 so‘mga tejaladi, korxona foydasi 187 950,00 so‘mga oshadi, mahsulot rentabelligi esa 14,0 va 10,49 % ni, hamda 1 kg omixta yemning ulgurji narxi esa 489,64 so‘mga pasayadi.

Shunday qilib, keltirilgan hisob-kitoblardan ko‘rinib turibdiki, taklif etilayotgan ikkilamchi xomashyodan foydalanish 1 tonna omixta yem ishlab chiqarish uchun moddiy xarajatlar miqdorini sezilarli darajada kamaytiradi, foyda va mahsulot rentabelligini oshiradi, ikkita retseptura namunasi bo‘yicha 1 tonna omixta yemning sotish narxini pasaytiradi. Bu esa taklif etilayotgan omixta yem tarkiblarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni.

2. Истошина Н.Ю. Вторичное растительное сырьё – как перспектива расширения кормовой базы комбикормов/ Н.Ю. Истошина, Н.В. Солонникова// Научные труды КубГТУ.- 2015. - №3. – URL: http://ntk.kubstu.ru/file/369.

3. 3.Вторичные сырьевые ресурсы пищевой и перерабатыающей промышленности АПК России и охрана окружающей среды. Справочник. Под редакцией академика РАСХН Е.Н. Сизенко. – М.: Пищепромиздат, 1999. – 468 с.

4. Jacob J. P. Comparison of Metabolic Energy Content of Organic Cereal Grains for Chickens and Turkeys *I*J. P. Jacob, S. L. Noll, J. A. Brannon // The Journal of Applied Poultry Research. – 2008. – Vol.17. - P.540-544.

5. Штеле А.Л. Решение проблемы дефицита протеина в комбикормах для птицы/А.Л. Штеле//Комбикорма. -2016.-№7-8.-С.62-65.

6. Алешина Н.В. Биологическая ценность и лектиновая активность семян сои различных сортов / Н.В. Алешина // Известия вузов. Пищевая технология. - 1993. - №1-2. - С. 60-62.

ISSN 3030-3907

7. Драганов И.Ф. Корма из отходов маслопрессованного и маслоэкстракционного производства / И.Ф. Драганов // Зоотехния. - 1992.- №2 - С. 39-48.
8. Ефимова О.Е. Биоконверсия в обеспечении экологической безопасности сферы деятельности человека / О.Е. Ефимова, Л.А. Ефимова// Успехи современной науки и образования. - 2017. - №3. - С.129-131.
9. Шванская И.А. Использование отходов перерабатывающих отраслей в животноводстве: науч. аналит. обзор/ И.А. Шванская, Л.Ю. Коноваленко – М.:ФГБНУ «Росинформагротех», 2011. – 96 с.
10. Косолапов В.М. Кормопроизводство: проблемы и пути решения/В.М. Косолапов// Ваш сельский консультант. – 2010. – №2. – С. 25-28.
11. Николаев В.М. Экологизация производства и инновационная деятельность/ В.М. Николаев // Масла и жиры. – 2008. – № 2. – С. 3-6.
12. Воротников И.Л. Ресурсосберегающее развитие перерабатывающих отраслей АПК / И.Л. Воротников, К.А. Петров// Экономика сельского хозяйства и перерабатывающих предприятий. – 2010. – №10. – С. 21-23.
13. Истошина Н.Ю. Вторичное растительное сырьё – как перспектива расширения кормовой базы комбикормов/ Н.Ю. Истошина, Н.В. Солонникова// Научные труды КубГТУ.- 2015. - №3. – URL: http://ntk.kubstu.ru/file/369
14. Сарболаев Ф.Н., Джахангирова Г.З. Исследование побочных продуктов производства кукурузного крахмала как компонента комбикормов // Вестник НУУз, – 2023. № 3/2/1, –С.461-464.
15. Сарболаев Ф.Н., Миралимова А.И., Умарова Ш.С. Исследование отходов переработки винограда как компонента комбикорма // Universum: технические науки: электрон.научн. журн. 2021. 12(93). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12797
16. Sarbolayev F, Djakhangirova G., Xatamova Kh. Analysis of the waste generated from rice bran syrup production as compound feed raw material. // Journal of Modern Educational Achievements, Volume 7, – 2025. – pp. 65-69.

ISSN 3030-3907

ELEKTR DVIGATELLAR ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY VA AMALIY TAHLILI

Zoxidov Odil Umirzokovich,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, dotsent;
E-mail: odil_boss85@mail.ru
G‘aybullayeva Gulchiroy Zavqijon qizi,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, assistant.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda elektr dvigatellarning sanoat va texnika taraqqiyotidagi ahamiyati yoritib berilgan. Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida elektr energiyasi va elektr dvigatellarning tutgan o‘rni, ularning elektr energiya iste’molchisi sifatidagi afzalliklari tahlil qilingan. Maqolada elektr dvigatellarning pnevmatik va gidravlik dvigatellarga nisbatan afzalliklari, energiya tejamkorligi hamda boshqarish qulayligi asoslab berilgan. Shuningdek, elektr dvigatellarning xalq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlaridagi roli, elektr energiyasidan samarali foydalanishdagi ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Maqolada elektr dvigatellarning elektromagnit hodisalarga asoslangan ishlash prinsipi, ularning asosiy turlari, konstruktiv tuzilishi va asosiy qismlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Undan tashqari dvigatellarning tezligini boshqarish usullari jadvallar, sxemalar va chizmalar orqali ko‘rsatilgan. Ushbu ish elektr dvigatellarning zamonaviy texnika va sanoatdagi yetakchi o‘rnini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: elektr energiyasi, elektr motorlar, asinxron motorlar, sinxron motorlar, stator, rotor, cho‘lg‘am.

Аннотация. В данной статье освещается значение электродвигателей в промышленном и техническом развитии сегодня. Проанализированы роль электроэнергии и электродвигателей в современных производственных процессах, их преимущества как потребителей электроэнергии. В статье обоснованы преимущества электродвигателей перед пневматическими и гидравлическими двигателями, энергосбережение и простота управления. Также была рассмотрено роль электродвигателей в народном хозяйстве и отраслях промышленности, их значение в эффективном использовании электроэнергии. В статье представлена информация о принципе работы электродвигателей, основанном на электромагнитных явлениях, их основных типах, конструктивном строении и основных частях. Кроме того, методы управления скоростью двигателей показаны в таблицах, схемах и чертежах. Данная работа направлена на освещение ведущей роли электродвигателей в современной технике и промышленности.

Ключевые слова: электрическая энергия, электродвигатели, асинхронные двигатели, синхронные двигатели, статор, ротор, обмотка.

ISSN 3030-3907

Abstract. This article highlights the importance of electric motors in industrial and technological development today. The role of electricity and electric motors in modern production processes, their advantages as electricity consumers, have been analyzed. The article substantiates the advantages of electric motors over pneumatic and hydraulic motors, energy saving, and ease of control. The role of electric motors in the national economy and industrial sectors, their importance in the efficient use of electricity, was also considered. The article provides information on the operating principle of electric motors based on electromagnetic phenomena, their main types, structural design, and main parts. In addition, methods for controlling the speed of engines are shown in tables, diagrams, and drawings. This work aims to illuminate the leading role of electric motors in modern technology and industry.

Keywords: electrical energy, electric motors, asynchronous motors, synchronous motors, stator, rotor, winding.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy sanoat, ishlab chiqarish va konchilik korxonalarida turli xil energiya manbalarida ishlovchi harakatlantiruvchi mashina va mexanizmlar muhim o‘rin tutadi. Ushbu mashinalarda yuritma va yuritkichlar sifatida eng ko‘p qo‘llaniladigan tur yuritmalar elektr dvigatellar hisoblanadi. Statistik va texnik adabiyotlar tahliliga ko‘ra, sanoat va konchilik korxonalarida iste’mol qilinadigan elektr energiyasining katta qismi aynan elektr dvigatellar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich elektr dvigatellarning pnevmatik va gidravlik dvigatellarga nisbatan bir qator texnik va iqtisodiy ustunliklarga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Elektr dvigatellarning asosiy afzalliklaridan biri - elektr energiyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mexanik energiyaga aylantirish imkoniyatining mavjudligidir. Pnevmatik va gidravlik tizimlarda energiya bir necha bosqich orqali uzatiladi: elektr energiyasi avval kompressor yoki nasos yordamida siqilgan havoga yoki bosimli suyuqlikka aylantiriladi, so‘ngra mexanik harakat hosil qilinadi. Bu jarayonlarda energiya yo‘qotishlari sezilarli darajada ortadi.

Ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, elektr dvigatellarning foydali ish koeffitsiyenti (FIK) 85-95% gacha yetadi. Pnevmatik dvigatellarda esa ushbu ko‘rsatkich odatda 20-30% dan oshmaydi, gidravlik tizimlarda esa 70-80% atrofida bo‘ladi. Shu sababli elektr dvigatellar energiya tejamkorligi jihatidan sanoat, ishlab chiqarish va konchilik korxonalari uchun eng maqbul yechim hisoblanadi.

Yana bir muhim ustunlik - boshqarishning qulayligi va aniqligidir. Zamonaviy chastota o‘zgartirgichlar va elektron boshqaruv tizimlari yordamida

ISSN 3030-3907

elektr dvigatellarning aylanish tezligi, momenti va ish rejimini keng diapazonda va yuqori aniqlik bilan sozlash mumkin. Pnevmatik va gidravlik mashinalarda esa bunday aniqlikka erishish murakkab bo‘lib, tizimning inertsiyasi yuqoriroq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Elektr mashinalar nazariyasining rivojlanishida A.E. Fitzgerald, C. Kingsley va S.D. Umans kabi chet el olimlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ilmiy asarlarida elektr dvigatellarning elektromagnit jarayonlari, moment hosil bo‘lish mexanizmlari va energiya balanslari chuqur tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar zamonaviy elektr dvigatellar konstruksiyasini takomillashtirishga asos bo‘lib xizmat qilgan.

S.J. Chapman tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda elektr dvigatellarning statik va dinamik rejimlari, ish xarakteristikalari hamda sanoat elektr yuritmalarida qo‘llanilishi keng yoritilgan. Muallifning ishlari bugungi kunda ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida asosiy darslik sifatida foydalaniladi.

Bundan tashqari A.A. Bulgakov, A.Yu. Afanasyev, I.Ya. Braslapskiy, V.N. Brodovskiy, A.B. Vinogradov, T.A. Glazenko, V.L. Gruzov, P.E. Danilov, V.A. Dartau, Yu.A. Sabinyu1, A.S. Sandler, R.S. Sarbatov, A.S. Sarvarov, O.V. Slejanovskiy, M.M. Sokolov, G.G. Sokolovskiy, I.M. Stolyarov, A.A. Surnel, V.M. Terexov, S.N. Xrisanov, V.A. Shubenko, R.T. Shrayner, I.I. Epshteyn, G.M. Ashe1 kabi rus va xorijiy taniqli olimlar asinxron elektr yuritmalar va matorlar tizimlari nazariyasini yaratish va rivojlantirishga katta hissa qo‘shganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Elektr mashinalari asosan ishlaydigan tok turiga va konstruktiv xususiyatlariga qarab o‘zgarmas tok dvigatellari va o‘zgaruvchan tok dvigatellari kabi turlarga bo‘linadi:

1. O‘zgarmas tok motorlari o‘zgarmas tok manbasi bilan ishlaydi. Ular mustaqil qo‘zg‘atishli, parallel qo‘zg‘atishli, ketma-ket qo‘zg‘atishli va aralash qo‘zg‘atishli kabi turlarga bo‘linadi.

2. O‘zgaruvchan tok elektr motorlari sinusoidal o‘zgaruvchan tokda ishlashga mo‘ljallab tayyorlanadi. O‘zgaruvchan tok elektr mashinalarining ishlash prinsipi uchta cho‘lg‘amdan uch fazali tok o‘tganda aylanma magnit maydoni hosil bo‘lishiga asoslanadi. Shuning uchun ham ularning nazariyasida umumiylik ko‘p. Hozirgi vaqtda uch fazali o‘zgaruvchan tok mashinalari keng qo‘llanilmoqda. O‘zgaruvchan tok elektr mashinalari uch guruhga bo‘linadi: a) kollektorsiz asinxron mashinalar; b) kollektorli asinxron mashinalar mashinalar; v) sinxron mashinalar.

O‘zgaruvchan tok elektr mashinalari asosan ikki qismdan iborat bo‘ladi: qo‘zg‘alмas qism – **stator** va aylanadigan qism – **rotor**. Stator va rotor orasida

ISSN 3030-3907


havo oralig‘i mavjud. Bu oraliq sinxron mashinalarda nisbatan kattaroq, asinxron mashinalarda kichkina (masalan 0,2 ……3 mm) bo‘ladi. **Asinxron** va **sinxron** mashinalarda statorning tuzilishi deyarli bir xil; lekin ularning rotorli tuzilishi deyarli bir xil; lekin ularning rotorlari tuzilishi jihatdan har xil bo‘ladi. Amalda bir fazali va uch fazali asinxron va sinxron mashinalar juda keng qo‘llaniladi. Uch fazali mashinalar statorida uchta cho‘lg‘am; bir fazali mashinalarda esa bitta cho‘lg‘am bo‘ladi. Sinxron va asinxron mashinalarning statorida joylashgan uch fazali cho‘lg‘amdan uch fazali tok o‘tganda statordan aylanuvchan magnit maydoni hosil bo‘ladi. Sinxron mashinalarda rotorning aylanish tezligi aylanma magnit maydon tezligining aylanish chastotasiga teng, ya’ni rotor va aylanma magnit maydoni sinxron aylanadi. Bunday mashinalar sinxron mashinalar deb ataladi. Sinxron mashinalar o‘zgaruvchan tok generatorlari sifatida ham ishlatiladi va ular turli xil elektr stansiyalarida generator rejimida ishlatiladi.

Asinxron motorlar rotorlarining tuzilishiga ko‘ra:

a) qisqa tutashgan rotorli;

b) faza rotorli turlarga bo‘linadi.


Asinxron motorlarning statoriga joylashtirilgan 3 fazali cho‘lg‘amning tuzilishi sinxron mashinaning cho‘lg‘amidan farq qilmaydi. Statorning cho‘lg‘ami ko‘p holatlarda qisqartitilgan qadamli, 2 qatlamli tuzilishda bo‘ladi. Ushbu cho‘lg‘amlarning uchlari motor klinmalar qutisiga ulanadi va birinchi faza cho‘lg‘ami C1-C4, ikkinchi faza cho‘lg‘ami C2-C5, uchinchi esa C3-C6 bilan belgilanadi.



1-rasm. Uch fazali qisqa tutashgan rotorli asinxron dvigatel tuzilishi

1-val, 2-tashqi podshipnik qopqog‘i, 3-rolikli podshipnik, 4-ichki podshipnik qopqog‘i, 5-podshipnikli shit, 6-rem bolt, 7-stator cho‘lg‘ami, 8-rotor cho‘lg‘ami, 9-stator o‘zagi, 10-rotor o‘zagi, 11-elektrodvigatel korpusi, 12-ventilyator kojuxi, 13-ventilyator, 14-keng podshipnik, 15-yerga ulash bolti, 16-dvigatelni mahkamlovchi boltlar uchun tirqish.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Uch fazali faza rotorli asinxron dvigatel tuzilishi

1,7-podshipniklar, 2,3-dvigatel korpusi, 4- cho‘lg‘am bilan stator o‘zagi, 5-rotor o‘zagi, 6-podshipnikli shit, 8-val, 9-chiqish klinmalari karobkasi, 10-dvigatel asosi, tayanchlari, 11-kontaktli halqalar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asinxron motorlarda ularning rotorini tezligini boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Rotorning aylanish tezligi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$n = \frac{60\,ƒ}{p}$$

Bu yerda n – rotorning aylanish tezligi;

ƒ- tok chastota, p- motorning juft qutiblar soni.

Ushbu formuladan foydalangan holda biz chastotani yoki motorning juft qutblar sonini o‘zgartirgan holatda dvigatel rotorining tezligini boshqarishimiz mumkin.

Yuqoridagi formula bo‘yicha rotorning aylanish tezligi tok chastotasiga to‘g‘ri proporsional, juft qutublar soniga esa teskari proporsionaldir. Qutblar soni ko‘paysa - aylanish tezligi kamayadi, qutblar soni kamaysa - aylanish tezligi ortadi. Chastota oshsa - dvigatel tezroq aylanadi, chastota kamaytirilsa - aylanish sekinlashadi. Quyidagi jadvalda chastotaning va qutblar sonining formulaga bog‘liqliligini ko‘rib chiqamiz.

1-Jadval.

Motornga berilayotgan kuchlanish chastotasi o‘zgarishining rotor aylanish tezligiga ta’siri:

Chastota (Gts)	Tezlik (ayl/min)
50	1500
40	1200
30	900
20	600


ISSN 3030-3907

2-jadval.

Motorning juft qutiblar soni o‘zgarishining rotor aylanish tezligiga ta’siri:

Qutblar soni	Tezlik (ayl/min)
2 qutb	3000
4 qutb	1500
6 qutb	1000
8 qutb	750


Motorning juft qutublar sonini o‘zgartirish sarf harajat va motor konstruktsiyasini o‘zgartirish kabi murakkabliklarni talab qiladi. Shu sababli motorning chastotasini chastota o‘zgartirgich qurilmasi yordamida o‘zgartirgan holatda dvigatel rotorining tezligini boshqarish bizga har tomonlama qulayliklar olib keladi. Quyidagi sxemada chastota o‘zgartirgich yordamida tok chastotasini o‘zgartirgan holda motorning aylanish tezligini rostlash sxemasi ko‘rsatilgan:



3-rasm. Chastota o‘zgartirgich yordamida dvigatel tezligini boshqarish sxemasi

Ushbu sxemada chastota o‘zgartirich yordamida dvigatelni boshqarish chizmasi ko‘rsatilgan. Manbaaning 3 ta A, B, C fazasidan chastota o‘zgartirgichning 3 ta kiruvchi fazasiga ulanadi va chiquvchi fazalari dvigatelning kiruvchi qismlariga ulanadi. Dvigatelning chiquvchi qismlari esa qisqa tutashtirilgan holatda ulaniladi. Ushbu jarayonni 4-rasmdagi stendda ko‘rishimiz mumkin.

ISSN 3030-3907



4-rasm. Elektr yuritma asoslari stendi

Ushbu rasmda elektr yuritma asoslari stendini ko‘rishimiz mumkin. Bu stend 3-rasmda ko‘rsatilgan sxemani amalda yig‘ib ko‘rish va jarayonni kuzatish imkonini beradi. Stendimizda sxemalar yig‘ilgan va chastota o‘zgartirgich ishga tushirilgan holatini ko‘rishimiz va chastota o‘zgartirgichning chastotasini uning rostlagichlari orqali o‘zgartirib elektr motorning tezligi boshqarilayotgan jarayonni kuzatishimiz mumkin.

XULOSA

Ushbu maqolada elektr dvigatellarning zamonaviy ishlab chiqarish va konchilik sanoatidagi ahamiyati, ularning energiya samaradorligi va boshqarish imkoniyatlari keng yoritib berilgan. Undan tashqari elektr matorlarning turlari, tuzilishi va qismlari haqida ham ma’limot berildi. Elektr dvigatellarning ishlash xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida ularning aylanish tezligini boshqarishning asosiy usullari - ta’minlovchi tok chastotasini o‘zgartirish hamda magnit qutblar sonini o‘zgartirish orqali boshqarish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Maqolada ko‘rsatib o‘tilgan chastota o‘zgartirgich qurilmasi yordamida elektr dvigatellarning aylanish tezligini keng diapazonda va yuqori aniqlik bilan rostlash mumkin bo‘lib, bu usul energiya tejamkor elektr yuritmalarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan ilmiy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, elektr dvigatellarning tezligini boshqarish usullarini to‘g‘ri tanlash mexanizmlarning ish unumdorligini oshirish, energiya sarfini kamaytirish va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli elektr dvigatellarni chastota orqali boshqarish usullarini chuqur o‘rganish va amaliyotga joriy etish zamonaviy sanoatning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Elektr mashinalari va elektr yuritma. S. Majidov, Toshkent 2005y. 160-162-betlar.
2. Elektr mashinalari. U. Ibrohimov. Toshkent 2001y. 147-150-betlar.

ISSN 3030-3907

3. Chapman S. J. Electric Machinery Fundamentals. - New York: McGraw-Hill, 2011.
4. Fitzgerald A.E., Kingsley C., Umans S.D. Electric Machinery - New York: McGraw-Hill, 2003.
5. Katsman M.M. Sanoat mexanizmlarining elektr yuritmalari - Moskva: Akademiya, 2010.
6. Vasilyev V.A. Asinxron elektr dvigatellar va ularni boshqarish - Moskva: Energiya, 2008.
7. Bose B. K. Modern Power Electronics and AC Drives - New Jersey: Prentice Hall, 2002.
8. Krishnan R. Electric Motor Drives: Modeling, Analysis, and Control - New Jersey: Prentice Hall, 2001.
9. Leonhard W. Control of Electrical Drives - Berlin: Springer-Verlag, 2001.

ISSN 3030-3907

TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHDA RAQAMLI BOSHQARUV VA MENEJERLIK KOMPETENSIYALARINI INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Berdaliyeva Gulasal Abdukunduzovna

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi direktori PhD, dotsent

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarida raqamli boshqaruv va menejerlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga jadal kirib kelishi rahbarlardan zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalari, raqamli savodxonlik va strategik fikrlashni talab etmoqda. Maqolada raqamli boshqaruv tushunchasi, uning maktabgacha ta’lim tizimidagi ahamiyati, direktorlarning menejerlik kompetensiyalari tarkibi, ularni rivojlantirish yo‘llari va amaliy mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli boshqaruvning samaradorlikka ta’siri va zamonaviy rahbar modelini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, raqamli boshqaruv, menejerlik kompetensiyalari, ta’lim menejmenti, direktor faoliyati, raqamli texnologiyalar, innovatsion boshqaruv.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития цифрового управления и управленческих компетенций у руководителей дошкольных образовательных организаций. Быстрое внедрение цифровых технологий в систему образования требует от руководителей наличия современных управленческих навыков, цифровой грамотности и стратегического мышления. В статье научно и теоретически анализируется концепция цифрового управления, ее значение в системе дошкольного образования, состав управленческих компетенций руководителей, пути их развития и практические механизмы. Особое внимание уделяется также влиянию цифрового управления на эффективность и формирование современной модели лидерства.

Ключевые слова: дошкольное образование, цифровое управление, управленческие компетенции, управление образованием, деятельность руководителя, цифровые технологии, инновационное управление.

Abstract. This article examines the development of digital management and management competencies among preschool educational institution leaders. The rapid introduction of digital technologies into the education system requires leaders to possess modern management skills, digital literacy, and strategic thinking. This article provides a scientific and theoretical analysis of the concept of digital management, its importance in the preschool education system, the composition of managers' management competencies, their development paths, and practical

ISSN 3030-3907

mechanisms. Particular attention is also given to the impact of digital management on effectiveness and the development of a modern leadership model.
Keywords: preschool education, digital management, management competencies, education management, managerial activities, digital technologies, innovative management.

KIRISH.

Hozirgi kunda jahon miqyosida raqobat tobora kuchayib borayotgani barchaga ayon. Ushbu keskin raqobat sharoitida muvaffaqiyatga erishish faqat zamonaviy ilmiy yutuqlar, ilg‘or texnologiyalar va innovatsiyalarni keng joriy etish orqali mumkin. Globallashuv jarayonlari hamda texnologik taraqqiyot ta’lim sohasida chuqur va tizimli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, raqamli transformatsiya natijasida boshqaruvning an’anaviy shakllari yangi, zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashmoqda. Bu holat ta’lim tizimi boshqaruvini mutlaqo yangi sifat darajasiga olib chiqmoqda.

Bugungi kunda maktab rahbarlari va ta’lim tashkilotlari menejerlarining boshqaruv faoliyati faqatgina ichki masalalarni hal etish bilan cheklanib qolmayapti. Ularning faoliyati xalqaro ta’lim standartlariga moslashish, innovatsion usullarni amaliyotga joriy etish va pedagogik jarayonlarni uzluksiz rivojlantirishni ham qamrab olmoqda. Shu bois rahbarlardan keng dunyoqarash, strategik fikrlash va zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalari talab etilmoqda.

Globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim boshqaruvining yangi bosqichga ko‘tarilishi muqarrar jarayondir. Bu nafaqat ehtiyoj, balki zamon talabi hisoblanadi. Hozirgi davr rahbari yangiliklarni tez qabul qila oladigan, doimiy o‘rganishga intiladigan va xalqaro tajribani amaliy faoliyatida samarali qo‘llay oladigan mutaxassis bo‘lishi lozim. Ta’lim menejmenti fan sifatida XX asr boshlarida shakllanib, ta’lim tizimini va ta’lim jarayonlarini samarali boshqarish hamda rahbarlar faoliyatini takomillashtirish zaruratidan kelib chiqqan holda rivojlandi. Shu tariqa boshqaruv fanining taraqqiyoti ta’lim sohasida sifatli va samarali boshqaruv mexanizmlarini yaratishga xizmat qildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. O‘zbekistonlik olimlardan R. X. Djurayev, Sh. E. Qurbonov va N. A. Muslimovlarning ilmiy ishlarida ta’lim sifatini boshqarishda milliy mentalitet va zamonaviy boshqaruv usullarini uyg‘unlashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, Sh. Qurbonov va E. Seytxalilov “Ta’lim menejmenti” darsligida rahbar kadrlarning axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida baholanadi.

Amaliy tajribalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, raqamli boshqaruv vositalari (masalan, elektron hujjat aylanishi, LMS platformalari, sun’iy intellekt

ISSN 3030-3907

yordamida prognozlash) samaradorligi ko‘p hollarda menejerning ushbu vositalarni pedagogik maqsadlarga xizmat qildira olish mahoratiga bog‘liq. S. Hargreaves va M. Fullan (2020) “Professional kapital” nazariyasida texnologiyalar va inson kapitali o‘zaro ta’siri ta’lim tizimining “ijtimoiy kapitali”ni shakllantirishini ta’kidlaydi. Bu esa menejerlarning nafaqat texnik bilimlari, balki ularning pedagogik jamoada hamkorlik muhitini yarata olishi muhimligini anglatadi.

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari barcha sohalar qatori ta’lim tizimiga ham chuqur kirib kelmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etish dolzarb masalaga aylandi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari nafaqat pedagogik jarayonlarni, balki moliyaviy, tashkiliy va inson resurslarini ham samarali boshqarishi lozim. Shu sababli rahbarlarda raqamli boshqaruv va menejerlik kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Raqamli boshqaruv axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda boshqaruv jarayonlarini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tahlil qilishni anglatadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli boshqaruv elektron hujjat aylanishi, ma’lumotlar bazasi, raqamli monitoring, onlayn aloqa va tahlil tizimlari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon boshqaruvning shaffofligi va tezkorligini ta’minlaydi.

Raqamli boshqaruvning asosiy afzalliklaridan biri vaqt va resurslardan samarali foydalanishdir. Elektron tizimlar yordamida hisobotlar yuritish, xodimlar faoliyatini baholash va ota-onalar bilan aloqani yo‘lga qo‘yish imkoniyati kengayadi. Natijada direktor faoliyatida strategik masalalarga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Menejerlik kompetensiyalari direktorning professional faoliyatini samarali amalga oshirishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasidir. Ular quyidagi asosiy komponentlardan iborat bo‘ladi: strategik fikrlash, tashkiliy boshqaruv, inson resurslarini boshqarish, kommunikativ kompetensiya va raqamli savodxonlik.

Strategik fikrlash kompetensiyasi tashkilot rivojlanishining uzoq muddatli maqsadlarini belgilash va ularga erishish yo‘llarini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Tashkiliy boshqaruv esa ish jarayonlarini rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash va nazorat qilish bilan bog‘liq. Inson resurslarini boshqarish kompetensiyasi pedagog va xodimlar salohiyatidan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Raqamli kompetensiya zamonaviy menejerlik kompetensiyalarining ajralmas qismi bo‘lib, axborot texnologiyalaridan ongli va maqsadli foydalanishni

ISSN 3030-3907

nazarda tutadi. Bugungi direktor elektron platformalar, boshqaruv dasturlari va raqamli tahlil vositalarini bilishi zarur.

Raqamli boshqaruv bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini samarali tashkil etish va rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi boshqaruv jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqib, ta’lim muassasalari faoliyatida shaffoflik, tezkorlik va aniqlikni ta’minlamoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli boshqaruvni joriy etish orqali boshqaruv faoliyatini soddalashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va ta’lim sifatini oshirish imkoniyati kengayadi.

Raqamli boshqaruv yordamida hujjat aylanishi elektron shaklga o‘tkazilib, hisobotlar yuritish, rejalashtirish va nazorat qilish jarayonlari avtomatlashtiriladi. Bu rahbarlarning vaqtini tejab, ularni strategik masalalar bilan shug‘ullanishga yo‘naltiradi. Shuningdek, raqamli tizimlar xodimlar faoliyatini monitoring qilish, ularning kasbiy rivojlanishini tahlil etish va baholash imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim tizimida raqamli boshqaruv ta’lim jarayonini nazorat qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron platformalar orqali bolalarning rivojlanish ko‘rsatkichlari, pedagoglarning faoliyati va ta’lim dasturlarining bajarilishi doimiy ravishda kuzatib boriladi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va muammolarni o‘z vaqtida aniqlashga yordam beradi.

Raqamli boshqaruv ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Onlayn aloqa platformalari orqali ota-onalar bilan tezkor axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi, bu esa ta’lim muassasasiga bo‘lgan ishonchni oshiradi va tarbiyaviy jarayonning samaradorligini kuchaytiradi. Shuningdek, raqamli boshqaruv ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlaydi. Elektron platformalar orqali axborot almashinuvi tezlashadi, shaffoflik ta’minlanadi. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkilotiga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi.

Direktorlarning raqamli va menejerlik kompetensiyalarini rivojlantirish tizimli yondashuvni talab etadi. Avvalo, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida raqamli boshqaruvga oid modullarni joriy etish zarur. Treninglar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali rahbarlarning bilim va ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va tajriba almashish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy rahbarlar onlayn kurslar, vebinarlar va professional platformalardan foydalanishi lozim. Raqamli boshqaruv bo‘yicha ilg‘or tajribalarni joriy etish direktorlarning menejerlik salohiyatini oshiradi. Raqamli boshqaruv tizimi joriy etilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Qarorlar tez va aniq qabul qilinadi, xatoliklar kamayadi, nazorat

ISSN 3030-3907

tizimi kuchayadi. Bu esa tashkilotning umumiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Samarali raqamli boshqaruv rahbarning vaqtini tejaydi va strategik rivojlanishga yo‘naltiradi. Natijada maktabgacha ta’lim tashkilotining raqobatbardoshligi va ta’lim sifati oshadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarida raqamli boshqaruv va menejerlik kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim talablaridan biridir. Raqamli texnologiyalarni boshqaruv jarayonlariga joriy etish ta’lim sifatini oshirish, shaffoflikni ta’minlash va samaradorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli direktorlarning kasbiy rivojlanishida raqamli va menejerlik kompetensiyalariga alohida e’tibor qaratish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ta’lim sifatini boshqarishda raqamli boshqaruv va menejerlik kompetensiyalarini integratsiyalashning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish maqsadida kompleks (aralash) tadqiqot metodologiyasi qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli-faoliyatli, kompetensiyaviy va axborot-paradigmal yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

Tayyorgarlik bosqichi: Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar (mahalliy va xorijiy) tahlil qilindi, tadqiqot muammosi, ob’ekti, predmeti va vazifalari aniqlandi. Dastlabki konseptual model ishlab chiqildi.

Empirik bosqich: Ta’lim muassasalarida rahbar kadrlar va o‘qituvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi, intervyu va kuzatish metodlari yordamida ma’lumotlar to‘plandi.

Yakuniy bosqich: To‘plangan ma’lumotlar statistik va sifat jihatidan tahlil qilindi, natijalar umumlashtirildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotda Toshkent shahri va viloyatlaridagi 15 ta umumta’lim maktabi hamda 5 ta professional ta’lim muassasasi rahbarlari (direktor va o‘rinbosarlari – 45 nafar) hamda ularda faoliyat yurituvchi pedagoglar (156 nafar) ishtirok etdi. Tanlanma reprezentativligini ta’minlash maqsadida turli hududlar (shahar, tuman, qishloq) va turli maqomdagi (ixtisoslashtirilgan, umumiy) maktablar qamrab olindi.

Tadqiqot vazifalarini hal etish uchun quyidagi metodlar majmuasi qo‘llanildi:

NAZARIY METODLAR. Muammoga oid falsafiy, psixologik, pedagogik va menejmentga oid adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, modellashtirish, konseptual tahlil.

- Empirik metodlar**:**

ISSN 3030-3907

- *So‘rovnoma (anketa):* Rahbar kadrlarning raqamli kompetensiyalari darajasi va mavjud pedagogik shart-sharoitlarni baholash uchun maxsus ishlab chiqilgan anketalar (Likert shkalasi asosida).
- *Intervyu:* Muassasa direktorlari bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar orqali raqamli boshqaruvni joriy etishdagi to‘siqlar va imkoniyatlar aniqlangan.
- *Kuzatuv:* Ta’lim muassasalarida raqamli boshqaruv vositalaridan (elektron jurnal, LMS, hujjat aylanishi) foydalanish jarayoni kuzatilgan.
- *Hujjatlarni o‘rganish:* Maktabning rivojlanish rejalari, yillik hisobotlari, raqamlashtirish dasturlari tahlil qilingan.

• Statistik metodlar**:** SPSS dasturi yordamida ma’lumotlarning matematik-statistik tahlili (o‘rtacha qiymat, korrelyatsion tahlil, Styudent t-mezoni) o‘tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tadqiqot davomida to‘plangan empirik ma’lumotlar tahlili quyidagi asosiy natijalarni ko‘rsatdi:

Tadqiqotda qatnashgan muassasalarning 78 foizida elektron hujjat aylanishi tizimi (E-Hujjat) va 62 foizida ta’lim jarayonini boshqarish tizimi (LMS) joriy qilingani aniqlandi. Biroq ushbu vositalardan to‘liq funksional darajada foydalanish darajasi past (atigi 35%). Ko‘p hollarda raqamli vositalar faqat hisobot topshirish vositasi sifatida qo‘llanilmoqda, xolos.

Rahbar kadrlarning raqamli kompetensiyalarini o‘z-o‘zini baholash so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra:

Respondentlarning 28 foizi o‘zining raqamli savodxonligini “yuqori” deb baholagan. 52 foizi “o‘rta” darajada ekanligini qayd etgan. 20 foizi esa raqamli vositalardan foydalanishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishini bildirgan.

Intervyu natijalari shuni ko‘rsatdiki, rahbarlar asosan texnik ko‘nikmalarning yetishmasligidan emas, balki ma’lumotlarni tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilishda raqamli vositalardan foydalanish metodikasini bilmasliklaridan aziyat chekmoqdalar. Bu esa ularning “raqamli menejerlik” kompetensiyasi (Digital Leadership) hali to‘liq shakllanmaganligini anglatadi.

Kuzatuv va hujjatlar tahlili quyidagi pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi yoki yo‘qligini aniqlashga imkon berdi:

*Motivatsion shart-sharoit***:** Rahbarlarning aksariyati (81%) raqamli texnologiyalarni boshqaruvga integratsiya qilish zarurligini tushunadi, ammo moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

*Tashkiliy-pedagogik shart-sharoit***:** Maktablarning 45 foizida raqamli boshqaruvni rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” yoki strategik reja mavjud emas. Rahbarlarning malakasini oshirish kurslari asosan texnik ko‘nikmalarga qaratilgan bo‘lib, boshqaruv psixologiyasi va pedagogik innovatsiyalar bilan bog‘lanmagan.

ISSN 3030-3907

Moddiy-texnik shart-sharoit: Internet tezligi va kompyuter texnikasi bilan ta’minlanish darajasi shahar va qishloq maktablari o‘rtasida sezilarli farq qiladi ($p < 0.05$). Bu esa raqamli tengsizlikka olib kelmoqda.

*Psixologik shart-sharoit***:** Jamoaning yangilikka nisbatan qarshiligi (innovation resistance) rahbar va pedagoglar o‘rtasida ham kuzatiladi. Bu, ayniqsa, 50 yoshdan oshgan xodimlar orasida yuqori.

Statistik tahlil (Pearson korrelyatsiyasi) rahbar kadrlarning raqamli kompetensiyalar darajasi bilan ta’lim sifatiga oid ko‘rsatkichlar (o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, bitiruvchilarning sertifikat olish foizi) o‘rtasida o‘rtacha darajadagi ijobiy bog‘liqlik ($r=0.48$; $p<0.01$) mavjudligini ko‘rsatdi. Bu esa rahbar kompetensiyasi oshishi bilan ta’lim sifati ko‘rsatkichlari ham ijobiy tomonga o‘zgarishi mumkinligidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. O‘tkazilgan nazariy va empirik tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Ta’lim sifatini boshqarishda raqamli boshqaruv va menejerlik kompetensiyalarini integratsiyalash zamonaviy ta’lim menejmentining dolzarb talabi hisoblanadi. Bu ikki komponentning uzviy bog‘liqligi ta’lim muassasasining raqobatbardoshligini va moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Amaliyotda raqamli boshqaruv vositalari joriy etilgan bo‘lsa-da, ularning samarali qo‘llanilishi ko‘p hollarda rahbar kadrlarning raqamli yetakchilik (digital leadership) kompetensiyasining pastligi sababli to‘sqinlikka uchramoqda.

Integratsiya jarayonining muvaffaqiyati bevosita quyidagi pedagogik shart-sharoitlar majmuasiga bog‘liq:

Rahbar va pedagoglarning motivatsiyasini oshirish;

Tizimli va uzluksiz malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish (texnik emas, balki strategik va pedagogik yo‘nalishda);

Muassasaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

Jamoada innovatsion madaniyat va qulay psixologik iqlimni shakllantirish.

AMALIY TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

XTB va ta’lim muassasalari uchun:

Rahbar kadrlarning malakasini oshirish kurslariga “Raqamli yetakchilik va ta’lim sifatini boshqarish” nomli maxsus modulni kiritish. Maktablar kesimida raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish monitoringini joriy qilish va natijalarini ochiq e’lon qilib borish (reyting tizimi).

Metodik xizmatlar uchun:

Rahbarlarga mo‘ljallangan amaliy seminarlarda ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (data-driven decision making) metodikasini o‘rgatish. Ilg‘or

ISSN 3030-3907

tajribaga ega maktablarni “Raqamli boshqaruv resurs markazi” sifatida belgilab, ularning tajribasini ommalashtirish.

ILMIY-TADQIQOT YO‘NALISHI UCHUN.

Integratsiyalashgan boshqaruv modelini (masalan, “Raqamli kompetensiya + Pedagogik mahorat + Strategik liderlik”) ishlab chiqish va uni eksperimental sinovdan o‘tkazish.

Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim menejerining kasbiy kompetensiya modelini yangilash bo‘yicha ilmiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. (2021). *AI and education: Guidance for policy-makers*. Paris: UNESCO Publishing.
2. Redecker, C., & Punie, Y. (2017). *European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu)*. Luxembourg: Publications Office of the European Union.
3. Fullan, M. (2022). *The Principal 2.0: Three Keys to Maximizing Impact*. Jossey-Bass.
4. Bush, T. (2020). *Theories of Educational Leadership and Management* (5th ed.). SAGE Publications.
5. Qurbonov, Sh., & Seytxalilov, E. (2021). *Ta’lim menejmenti*. Toshkent: “Yangi asr avlodi”.
6. Djurayev, R. X. (2020). *Ta’limda boshqaruv va sifat*. Toshkent: “Fan va texnologiya”.
7. Cañabate, A. J., & otros. (2019). Digital governance in educational organizations: A systematic review. *Revista de Educación a Distancia (RED)*, 19(61).

ISSN 3030-3907

TABIIY GAZNI VODOROD SUL'FID VA UGLEROD DIOKSIDIDAN TOZALASHDA QO'LLANILADIGAN MONOETANOLAMIN (MEA), DIETANOLAMIN (DEA) VA N-METILDIETANOLAMINLARNING (MDEA) TEXNOLOGIYASINI TADQIQOTLASH

Dustqobilov E.N.

Qarsh davlat texnika universiteti

0009-0003-3703-0860

Annotatsiya. Bugungi kunda tabiiy gazlarni nordon komponentlardan absorbtsiyali tozalashda qo'llaniladigan monoetanolamin (MEA-$NH_2CH_2CH_2OH$), dietanolamin (DEA-$NH(CH_2CH_2OH)_2$) va N-metildietanolamin (MDEA- $NCH_3(CH_2CH_2OH)_2$) kabi aminli eritmalardan foydalanish jarayonlari ilmiy asoslangan. MDEA eritmasini MEA bilan taqqoslash bo'yicha nazariy taqdqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarimiz mobaynida olingan kompozitsion absorbentlarning yordamida korroziyalanishni keltirib chiqaruvchi omillarga baho berilgan va optimal ko'rsatgichga ega bo 'lgan absorbent kompozitsiyasi tanlab olingan.

Kalitli so'zlar. etilenmerkaptan, etanolaminlar, noselektiv,selektiv, korrozion, piperazin, polietilenglikollin.

«Kvatramin 1001» SFM sini sinash natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Ularda ham bu SFMning konsentratsiyasini tadqiqotlashning hamma oraliqlarida salbiy ekanligi ko‘rsatilgan. Hamma olib borilgan eksperimentlarda model eritmasidagi oltingugurtning tarkibi vodorod sul’fidni SFM tarkibli MDEA eritmasi bilan absorbsiya olib borilgandan keyin faqat MDEA eritmasidan foydalanilganga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatgan [5, 8, 10].

Shu bilan birgalikda eksperimentlarning birortasida ham absorbent eritmasini kuchli ko‘piklanishi yoki barqaror emulsiyani shakllanishi kuzatilmagan.

1-Jadval

“Alifatik aminlarni” SFMsini oltingugurtdan tozalash jarayoniga modelli eritmaning ta’sir qilishini o‘rganish bo‘yicha eksperimentlarning natijalari

Tadqiqot obyekti tavsifi	SFMning miqdor, massa bo‘yicha. %	Model eritmasida oltingugurtning miqdori, massasi
Dastlabki model eritma	-	0,1230
SFMsiz tozalangandan keyingi eritma	0,00	0,0077
SFMdan tozalangandan keyingi eritma	0,02	0,0064
Dastlabki model eritma	-	0,1210
SFMsiz tozalangandan keyingi eritma	0,00	0,0122
SFMdan tozalangandan keyingi eritma	0,04	0,0128
Dastlabki model eritma	-	0,1240
SFMsiz tozalangandan keyingi eritma	0,00	0,0132
SFMdan tozalangandan keyingi eritma	0,06	0,0156
Dastlabki model eritma	-	0,1280
SFMsiz tozalangandan keyingi eritma	0,00	0,0161
SFMdan tozalangandan keyingi eritma	0,08	0,0382
Dastlabki model eritma	-	0,1270
SFMsiz tozalangandan keyingi eritma	0,00	0,0141

ISSN 3030-3907

SFMdan tozalangandan keyingi eritma	0,10	0,0322

Bularga bog‘liq ravishda ya’ni, salbiy natijalarni olishni birinchidan absorbent eritmasini tozalanadigan model eritmasining hajmiga nisbatan juda katta miqdorda (50 ml MDEA eritmasi va 400 ml petroley efiri yoki 1:8 hajmi bo‘yicha) va ikkinchidan eksperiment sharoitida oltingugurtdan tozalash jarayonini uzoq mudda (20 daq) davom etishi mumkin ekanligi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida takliflar keltirilgan [6, 7, 11].

2-Jadval


«Kvatramin 1001» SFMni model eritmasining oltingugurtdan tozalash jarayoniga ta’siri

Tadqiqot obyekti tavsifi	SFMning miqdor , massa bo‘yicha. %	Model eritmasida oltingugurtning miqdori, massasi bo‘yicha.%
Dastlabki model eritma	-	0,0984
SFMsiz tozalangandan keyingi eritma	0,00	0,0119
SFMdan tozalangandan keyingi eritma	0,02	0,0159
Dastlabki model eritma	-	0,0984
SFMsiz tozalangandan keyingi eritma	0,00	0,0119
SFMdan tozalangandan keyingi eritma	0,04	0,0220
Dastlabki model eritma	-	0,1040
SFMsiz tozalangandan keyingi eritma	0,00	0,0125
SFMdan tozalangandan keyingi eritma	0,06	0,0259
Dastlabki model eritma	-	0,0962
SFMsiz tozalangandan keyingi eritma	0,00	0,0117
SFMdan tozalangandan keyingi eritma	0,08	0,0135
Dastlabki model eritma	-	0,0978
SFMsiz tozalangandan keyingi eritma	0,00	0,0117
SFMdan tozalangandan keyingi eritma	0,10	0,0146

Bunday rejimlar zavod sharoitida olib boriladigan oltingugurtdan tozalash jarayoniga mos kelmaydi va bundan tashqari vodorod sul’fidni absorbsiya qilishning o‘zi esa qandaydir mos kelmaydigan noto‘g‘ri ikkilamchi jarayonlarni kelirib chiqarishi mumkin.

ISSN 3030-3907

Bunday takliflarni tekshirish uchun vodorod sul’fidni MDEA eritmasi bilan har xil reagentlarning nisbatlarida absorbsiyalash kinetikasi o‘rganilgan (1-rasm).




1-rasm. Model eritmasini MDEA eritmasi bilan vodorod sul’fidni absorbsiyalashning egrilik kinetikasi

Jarayon vaqtini 35 daq.ga uzaytirish davom ettirilganda uning natijalariga ta’sir qilmagan (2-rasm).

Oltingugurtdan tozalash jarayonining kinetikasini o‘rganish natijalari ya’ni, vodorod sul’fidni MDEA eritmasi bilan absorbsiyalash eksperimenti sharoiti amalda 1 daqiqadan oshmagan davrdan oldin tugallangan. Bunda model eritmasidan vodorod sul’fidning asosiy qismi 30 sek. davomida olib chiqilgan. Model eritmasining va absorbent eritmasini hajmlarining nisbatlarini absorbsiya jarayonini tugallanish darajasini bu lahzaga bog‘liqligi model eritmasini va absorbent eritmasini nisbatlariga bog‘liqligi 79 % (200:1) dan 99,7 % (50:1) gachani tashkil qilgan.

MDEA eritmasi bilan vodorod sul’fidni absorbsiya kinetikasini o‘rganishda neftli gazni MDEA eritmasi bilan oltingugurtni tozalash jarayonida SFMni qo‘llanilishining samaradorligini va tadqiqotlash eksperimentlarini davom ettirishni olib borish bo‘yicha optimal sharoitlarini aniqlash imkoniyatini bergan [12, 13].

ISSN 3030-3907



2-rasm. Vodorod sul'fidni absorbsiya jarayonini boshlanishidan 30 sekunddan keyin reagentlarni nisbatlariga bog'liqligining tugallanish ko'rsatgichlari

Birinchidan, hamma eksperimentlar model eritmasining o'zgarmas nisbatlarida olib borilgan: MDEA eritmasi 50:1 nisbatga teng.

Ikkinchidan, fazalarning kontakt vaqti 3 daq. qilib chegaralangan.

Uchinchidan, ko'rinib turibdiki, absorbsiya jarayonining vaqtini chegaralanishi xona haroratida va atmosfera bosimida olib borilgan.

Ishning bu bosqichida quyidagi SFMlar sinalgan:


-"Alifatik aminlar" kationfaolli SFMlari, «Kvatramin 1001» va «Katasol 28-5-2»;

- «Volgonat» va «Sulfanol» anionfaol SFM;

- «Laprol 3603» va «Nordek 323» noionogenli SFM.

Olib borilgan tadqiqotlarning natijalari 3-rasmda keltirilgan. Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki birorta tadqiqotlangan SFMlar model eritmasini vodorod sul'fiddan tozalash jarayoniga ijobiy ta'sir qilgan holatini namoyon qilmagan. Bundan tashqari MDEA eritmasi bilan qo'llanilgan hamma o'rganilgan SMF vodorod sul'fidning absorbsiyalanishga to'sqinlik qilgan, bunda ularning salbiy ta'sir qilishi tizimdagi SFMning miqdoriga proporsional holda oshgan.

ISSN 3030-3907



3-rasm. Har xil SFMlarni MDEA eritmasi bilan vodorod sul'fidning absorbsiya jarayoniga ta'siri

Kuzatiladigan holatlarning tabiatiga nisbatan quyidagi taxminlarni aytish mumkin. SFMning molekulalari organik va suvli fazalarning bo‘linma yuzalariga adsorbsiyalanib, bo‘linuvchi to‘siqlarni hosil qiladi, o‘z turiga ko‘ra u himoya pardasidir qaysiki, vodorod sul'fidning va absorbentning molekulalarining o‘zaro xemosorbsiyalanishiga to‘sqinlik qiladi. Tizimda SFMning konsentratsiyasini oshishi bilan maydon kattalashadi, ya'ni, pardaning qalinligi oshishi mumkin, u esa organik va suvli fazalarning kontaktlanishiga to‘sqinlik qiladi.


Bunda vodorod sul'fidning absorbsiya ko‘rsatgichi mos holda pasayadi. “Alifatik aminlar” ning SFMni oltingugurtni tozalash jarayoniga salbiy ta'sir ko‘rsatganda ham umumiy kartina biroz tushadi. Bu holat berilgan SFMning kimyoviy tabiatiga bog‘liq ravishda absorbentning tuzilmasiga juda ham yaqin va bularning kuchida vodorod sul'fid bilan unga o‘zaro kichik ko‘rsatgichda ta'sir qiladi [5, 6].

Gazlarni absorbsion tozalash jarayonlarida qo‘llaniluvchi 30%li DEA va ilmiy tadqiqoqtlar natijasida olingan DPP-1 (dietanolamin P – polietilenglikol dimetil efiri,

P – polietilenglikol monomtil efiri), MDPP-5 (metildietanolamin P – polietilenglikol dimetil efiri, P – polietilenglikol monomtil efiri) absorbent kompozitsiyalaridan foydalanilganda (SFM si sifatida) ko‘pik hosil qilish qobiliyati va ko‘pikning barqarorligi ko‘rsatkichlari toza absorbent namunalarida va ular tarkibiga 0,1-1% konsentratsiyalarda gaz tarkibida uchraydigan suyuq uglevodorodlardan aralashtirilib tayyorlangan suyuq uglevodorodlar model aralashmasi qo‘shib o‘tkazilgan tadqiqot natijalari, absorbent kompozitsiyalari tarkibida PEGDME va PEGMME efirlarining ko‘pik hosil qilish qobiliyati va ko‘pikning barqarorligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi ko‘zatildi [8, 9, 10, 14].


ISSN 3030-3907

Umuman olganda, ushbu efirlar absorbent ko‘piklarini tez buzilishida katta ta’sir ko‘rsatishini tadqiqot natijalari ko‘rsatdi. Tadqiqotlar mobaynida absorbentlarning ko‘piklanish darajasi va ko‘pik barqarorligiga “Kvatramin 1001” korroziya ingibitorining ta’siri tadqiq etildi. Olingan natijalar 4 va 5 – rasmlarda keltirilgan.



4 – rasm. “Kvatramin 1001” korroziya ingibitorining absorbent kompozitsiyalarining ko‘pik hosil qilish qobiliyatini ta’siri

“Kvatramin 1001” SFMsi korroziya ingibitorining gazni absorbsion tozalashda qo‘llaniluvchi absorbentlarning ko‘piklash xossasiga ta’sirini aniqlashning tadqiqot natijalari, korroziya ingibitorning konsentratsiyasi absorbent tarkibida ortishi bilan ko‘pikning balandligi ham ortib borishini ko‘rsatdi. Bunda absorbentlar tarkibida korroziya ingibitori miqdori 30 ppm gacha bo‘lganda ko‘pik balandligi, 25 mm ni ko‘rsatgan bo‘lsa, DPP-1 va MDPP-5 absorbent kompozitsiyalari 50 ppm gacha konsentratsiyada ham ko‘pik balandligi 25 mm gacha yetib bormadi. Korroziya ingibitorlarining boshlang‘ich kam konsentratsiyada ko‘pik balandligi jadal ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, keyinchalik konsentratsiya oshishi bilan ushbu o‘sish ancha kichik oraliqlarda oshganini ko‘rishimiz mumkin.



5 – rasm. Absorbent kompozitsiyalarining ko‘pigining barqarorligini “Kvatramin 1001” korroziya ingibitori konsentratsiyasiga bog‘liqligi

XULOSA. Shunday qilib, hamma tadqiqotlangan SFMlar har xil sinflarga mansub bo‘lib, ularning tarkibiga, tuzilmalariga va miqdoriga bog‘liq bo‘lmagan

ISSN 3030-3907

holda model eritmasining MDEA eritmasi bilan oltingugurtdan tozalash jarayoniga ijobiy ta’sir qilmaganligini ta’kidlash mumkin.

Absorbent kompozitsiyalarining ko‘pigining barqarorligini "Kvatramin 1001" korroziya ingibitori konsentratsiyasiga bog‘liqligi tadqiqot natijalari ushbu korroziya ingibitorining DPP-1 va MDPP-5 absorbent kompozitsiyalarining tarkibida 50 ppm bo‘lganda ko‘pik buzilish vaqti 60 s dan kamroqni ko‘rsatdi va bu bo‘yicha olingan kompozitsiyalar o‘rta sinfga javob berishini ko‘rsatmoqda. DEA erimasi esa ko‘pik barqarorligi yuqori sinfga mansubligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nurmamatovich, D. E., & Sarvarivich, Q. S. (2026). SANOAT VA TABIIY GAZLARDAN VODOROD SULFID VA KARBONAT ANGIDRIDNI TOZALASH UCHUN ABSORBSION JARAYONLARDA QO ‘LLANILADIGAN YANGI MODIFIKATSIYALANGAN SORBENTLARNING ILMIY TAHLILI. AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 4(1), 256-264.

2. Nurmamatovich, D. E., & Sarvarivich, Q. S. (2026). OLTINGUGURTNI TOZALASH QURILMALARIDA AMIN REGENERATSIYASI GAZLARINI TOZALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING, 4(1), 270-277.

3. Nurmamatovich, D. E. (2025). LNG PRODUCTION TECHNOLOGY AND ITS APPLICATION POSSIBILITIES. FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities., 13(6), 25-30.

4. Nurmamatovich, D. E. (2025). SCIENTIFIC ANALYSIS OF NEW MODIFIED SORBENTS USED IN ABSORPTION PROCESSES FOR PURIFICATION OF HYDROGEN SULFIDE AND CARBON ANHYDRIDE FROM INDUSTRIAL AND NATURAL GASES. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 8(5), 59-66.

5. Nurmamatovich, D. E., Raxmonovich, Y. T., & Bakishyevich, D. A. (2025). KONLARDA NEFT VA GAZ MAHSULOTLARINI BIRLAMCHI YIG ‘ISH, SAQLASH VA TASHISH USKUNALARIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR HAMDA ULARNING KORROZIYAGA QARSHILIGI VA GIDROABRAZIV ISHONCHLILIGINI TA’MINLASH. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 3(3), 113-117.

6. Nurmamatovich, D. E., & Salimo‘G‘Li, R. K. (2025). OG ‘IR VA VAKUUMLI GAZOYLNI GIDROTOZALASH JARAYONINI TADQIQI. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 3(2), 130-133.

ISSN 3030-3907

7. Dustqobilov, E. N., & Jamshidov, D. B. (2024). NEFTNI YIG ‘ISH, TASHISH VA TAYYORLASH TIZIMI JARAYONINI TADQIQ ETISH. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 2(02).
8. Nurmamatovich, D. E., & Salimovo‘G‘Li, R. K. (2024). NEFTNI QAYTA ISHLASHDA GIDROGENIZATSION JARAYONLAR. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 2(2), 90-96.
9. Dustqobilov, E. N. (2025). DIPA (diizopropanolamin) USULI YORDAMIDA TABIIY GAZLARNI OLTINGUGURT VA UNING BIRIKMALARIDAN TOZALASH. МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ.
10. Dustqobilov, E. N. (2025). PAST HARORATLI AJRATISH USULI YORDAMIDA OG ‘IR UGLEVODORODLARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASI. МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ.
11. Dustqobilov, E. N., Yuldashev, T. R., & Djumabayev, A. B. (2025). GAZLARNI BIRLAMCHI VA QAYTA ISHLASHGA TAYYORLASH JARAYONLARIDA GAZLI MUHITDAGI KORROZIYASINING NAZARIY TADQIQOTLARI.
12. Dustqobilov, E. N., Yuldashev, T. R., & Djumabayev, A. B. (2025). KONLARDA NEFT VA GAZ MAHSULOTLARINI BIRLAMCHI YIG ‘ISH, SAQLASH VA TASHISH USKUNALARIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR HAMDA ULARNING KORROZIYAGA QARSHILIGI VA GIDROABRAZIV ISHONCHLILIGINI TA’MINLASH. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 3(3), 113-117.
13. Dustqobilov, E. N., Yuldashev, T. R., & Djumabayev, A. B. (2025). KONLARDA NEFT VA GAZ MAHSULOTLARINI BIRLAMCHI QAYTA ISHLASHGA TAYORLASHDA METALLARDA KORROZIYANI PAYDO BO ‘LISHINI ASOSLASH.
14. Юлдашев, Т.Р. (2022). Оптимизация технологии глубокой очистки природного газа от кислых компонентов. // Models and Methods for increasing the efficiency of innovative research, 2(18), 62-64 с.
15. Makhmudov M.J., Yuldashev T.R. Cleaning of Industrial Emissijn from Gas and Dispersive Particies. //J.Sib. Fed. Univ. Eng. & Technol., 2023, 16(2), 198-210/ EDN: KSKCJY. SIBUR- Rossiya - 16(2) – 2023. - P. 198 - 210.

ISSN 3030-3907

MARKAZIY O‘ZBEKISTONDA TARQALGAN CHAYONLARNING EKOLOGIYASI VA FAUNASI

Murtozayeva Fazilatxon Baxodirovna
Navoiy Davlat Universiteti tayanch doktaranti
Musayev Dilshod Muhammadjonovich
O‘z. R. F. Azoologiya instituti katta ilmiy xodimi PhD

Annotatsiya. Ushbu maqola Markaziy O‘zbekistonda tarqalgan chayonlarning ekologiyasi va faunasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Chayonlar ekosistemada muhim rol o‘ynaydi va ularning tarqalishi, xilma-xilligi hamda ekologik ahamiyati haqida ma’lumotlar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: chayon, ekologiya, fauna, markaziy o‘zbekiston, anomalobuthus krivochatskyi, olivierus mikhailovi, qizilqum cho‘li, psammofil moslashuv.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению экологии и фауны скорпионов, распространённых в Центральном Узбекистане. В работе рассматриваются их роль в экосистемах, особенности распространения, видовое разнообразие и экологическое значение. Представленные данные позволяют глубже понять биологические особенности скорпионов и их адаптацию к пустынным ландшафтам региона.

Ключевые слова: скорпион, экология, фауна, центральный узбекистан, anomalobuthus krivochatskyi, olivierus mikhailovi, пустыня кызылкум, псаммофильная адаптация.

Abstract. This article is devoted to the study of the ecology and fauna of scorpions distributed in Central Uzbekistan. It provides information on their ecological role, patterns of distribution, species diversity, and overall environmental significance. The findings contribute to a deeper understanding of the biological characteristics of scorpions and their adaptations to the desert landscapes of the region.

Keywords: scorpion, ecology, fauna, central uzbekistan, anomalobuthus krivochatskyi, olivierus mikhailovi, kyzylkum desert, psammophilous adaptation.

KIRISH.

Maqolaning maqsadi chayonlar, ularning biologik xususiyatlari va ekosistemadagi o‘rni haqida chuqurroq ma'lumot berishdir. Chayonlar, o‘zlarining murakkab tuzilishi va ekologik roliga ko‘ra, tabiiy muhitda muhim o‘rin tutadi. Ular asosan quruqlikda yashaydigan, ammo ba’zi turlari suvda ham uchraydigan, aysberglar toifasiga kiruvchi hayvonlardir. Ularning tanasi segmentlarga bo‘lingan, oyoqlari esa harakatlanish va ovqatni tutish uchun moslashgan. Chayonlarning ko‘pchiligi yirtqich bo‘lib, ular o‘zlaridan kichikroq hayvonlarni ovlash orqali oziqlanadi, bu esa ularning ekosistemadagi rolini yanada muhim qiladi. Chayonlar turli xil muhitlarda yashashga qodir. Ular quruqlikda, suvda,

ISSN 3030-3907

hatto qumli va toshli joylarda ham uchraydi. Ularning ko‘p turlari har xil iqlim sharoitlariga moslashgan, bu esa ularning dunyo bo‘ylab tarqalishiga imkon beradi. Chayonlarning ko‘pchiligi kechqurun yoki tun paytida faol bo‘lib, bu ularga ovqatni topishda va yirtqichlardan qochishda yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI - Adabiyotlar ro‘yxati, ilmiy tadqiqotlar va muammolarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning to‘g‘riligi va dolzarbligi tadqiqotning sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Har bir ilmiy maqola yoki tadqiqotda keltiriladigan manbalar, avvalo, tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirishda, shuningdek, tadqiqotning mantiqiy strukturasini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Adabiyotlar ro‘yxati, asosan, ilmiy maqolalar, kitoblar, dissertatsiyalar, konferensiya materiallari va boshqa ilmiy nashrlar orqali to‘planadi. Bu manbalar tadqiqotchilarga mavzu haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘lishga, mavjud bilimlarni tahlil qilishga va yangi g‘oyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Adabiyotlar ro‘yxati shuningdek, tadqiqotning metodologik asoslarini belgilashda muhimdir. Olingan ma'lumotlar va statistikalar, o‘rganilayotgan muammo doirasidagi mavjud bilimlar bilan bog‘liq holda, tadqiqotning maqsadlari va vazifalarini aniqlashda yordam beradi. Bunday manbalar, o‘z navbatida, tadqiqot jarayonida olib boriladigan eksperimentlar yoki kuzatuvlar uchun zaruriy asos sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, adabiyotlar ro‘yxati, o‘z ichiga olgan manbalar orqali, tadqiqotning nazariy va amaliy taraflarini birlashtiradi, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshiradi.

Chayonlarning xilma-xilligi - Markaziy O‘zbekistonda chayonlar turlari juda xilma-xildir va bu xilma-xillik ularning yashash muhitiga, ekologik sharoitlariga va biologik xususiyatlariga bog‘liq. O‘zbekiston hududida uchraydigan chayonlar asosan Scorpiones sinfiga mansub bo‘lib, ularning ko‘pchiligi quruq va yarim quruq iqlim sharoitida yashaydi. Ushbu hududda chayonlarning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ular o‘zaro bir-biridan morfologik va ekologik jihatdan farqlanadi. Chayonlarning anatomik tuzilishi ularning ozuqa ovlash usullariga va yashash sharoitlariga moslashishida muhim rol o‘ynaydi. Ularning tanasi segmentlarga bo‘lingan va har bir segmentda turli xil organlar mavjud, bu esa ularga yuqori darajada moslashuvchanlik beradi. Chayonlar odatda yirtqich hayvonlar sifatida tanilgan bo‘lib, ular asosan kichik hasharotlar va boshqa invertebratlar bilan oziqlanadi. Ularning ovqatlanish strategiyalari ularning turlariga qarab farq qiladi. Ba'zi chayonlar o‘z ovqatlarini tutish uchun murakkab ov tuzish usullaridan foydalanadi, boshqalari esa o‘zlarini yashirin holda ushlab turish orqali ovqatga yaqinlashadi. Markaziy O‘zbekistonda uchraydigan chayonlarning ayrim turlari, masalan, Androctonus va Buthus turlari, inson uchun xavfli bo‘lishi mumkin. Ularning zaharlari kuchli va ba'zan o‘limga olib kelishi

ISSN 3030-3907

mumkin, shuning uchun ularni o‘rganish va ularga qarshi profilaktika choralari ko‘rish muhimdir.

Tarqalish va yashash muhitlari - Chayonlar, arthropodlar sinfiga mansub bo‘lib, asosan yer yuzida keng tarqalgan. Ularning tarqalishi va yashash muhitlari ko‘p jihatdan ularning ekologik moslashuvchanligi bilan bog‘liq. Chayonlar turli xil sharoitlarda, jumladan, quruq joylar, nam joylar, o‘simliklar orasida va hatto suvda yashay oladi. Ularning tarqalish xaritasi global miqyosda kengayib bormoqda. Chayonlar asosan tropik va subtropik mintaqalarda ko‘p uchraydi, ammo ular qutblar va tog‘li hududlarda ham mavjud. Ular o‘zlarining yashash joylarini tanlashda bir qator omillarga, jumladan, harorat, namlik, oziq-ovqat manbalari va raqobat sharoitlariga qarab moslashadi. Masalan, ko‘plab chayonlar, quruq muhitlarda yashashga moslashgan bo‘lib, ularning tana tuzilishi suvni saqlab qolishga yordam beradi. Ular namlikni saqlash uchun teri tuzilishida o‘zgarishlar kiritgan, bu esa ularni quruqlikda uzoq vaqt davomida yashashga imkon beradi. Chayonlar o‘z yashash joylarida turli xil o‘simliklar va hayvonlar bilan o‘zaro ta'sirda bo‘ladi, bu ularning ekosistemadagi rolini yanada muhim qiladi. Ular oziq-ovqat zanjirining bir qismi sifatida boshqa hayvonlar uchun oziq-ovqat manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bu holat, o‘z navbatida, ularning yashash muhitining biologik xilma-xilligini ta'minlaydi. Chayonlar shuningdek, tuproqning strukturasini yaxshilashda ham muhim rol o‘ynaydi, chunki ular tuproqni aeratsiyalash va organik moddalarning parchalanishida ishtirok etadi.

Ekologik roli - Chayonlar, ekosistemalarda muhim rol o‘ynovchi organizmlar sifatida, biologik xilma-xillikni saqlashda va ozuqa zanjirida muhim o‘rin tutadi. Ularning yashash joylari ko‘plab ekotizimlarda, jumladan, o‘rmonlar, cho‘llar va suv havzalari kabi turli muhitlarda joylashgan. Chayonlar asosan yirtqichlar, parazitlar va o‘simliklar bilan oziqlanadi, bu esa ularni ekosistemalardagi ozuqa zanjirlarining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylantiradi. Ularning yirtqichlik faoliyati orqali chayonlar boshqa organizmlarning populyatsiyasini nazorat qiladi, bu esa ekosistemaning muvozanatini saqlashga yordam beradi. Masalan, chayonlar o‘simliklarning zararli hasharotlarini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi, bu esa o‘simliklarning o‘sishini va rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, chayonlarning o‘zaro munosabatlari ekosistemadagi boshqa organizmlar bilan ham juda ahamiyatlidir. Ular, masalan, o‘zlarining parazitlarini o‘z ichiga olgan turli xil organizmlar bilan birga yashaydi va bu jarayon orqali biologik xilma-xillikni oshiradi. Chayonlar, shuningdek, ozuqa zanjirining yuqori qismida joylashgan yirtqichlar uchun oziq-ovqat manbai sifatida xizmat qiladi. Ularning mavjudligi, yirtqichlar va boshqa organizmlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta'minlaydi, bu esa ekosistemaning barqarorligini

ISSN 3030-3907

oshiradi. Ekologik muvozanatni saqlashda chayonlarning roli, ularning koʻplab ekotizimlarda muhim oʻrin tutishini koʻrsatadi va bu jarayonlar orqali ularning ekologik ahamiyatini yanada oshiradi. Chayonlar, shuningdek, tuproq sifatini yaxshilashda ham muhim rol oʻynaydi.

Chayonlarning ovqatlanish odatlari - Chayonlar, Arthropoda sinfiga mansub boʻlib, koʻplab turli xil muhitlarda yashaydi va ularning ovqatlanish odatlari oʻziga xos strategiyalar bilan ajralib turadi. Ushbu hasharotlar asosan yirtqich sifatida faoliyat yuritadi, ular oʻz ovqatini ovlashda maxsus mexanizmlardan foydalanadi. Chayonlar oʻz ovqatini aniqlashda va ovlayotganda, ularning sezgi organlari, jumladan, antenna va oyoqlari muhim rol oʻynaydi. Bu organlar yordamida chayonlar ovoz, hid va harakatni sezib, ovqat manbalarini aniqlashadi. Ularning ovqatlanish strategiyalari asosan oʻz muhitiga moslashuvchanlik bilan bogʻliqdir. Masalan, ba'zi chayonlar oʻz ovqatini ovlash uchun yirtqichlik xususiyatlarini rivojlantirgan boʻlsa, boshqalari esa oʻzlarini himoya qilish uchun kamdan-kam hollarda faol ovqatlanishga oʻtishadi. Chayonlarning oziq-ovqat zanjiridagi oʻrni juda muhimdir. Ular koʻplab boshqa hasharotlar, qurtlar va hatto kichik umurtqali hayvonlarni ovlaydi, bu esa ularning ovqatlanish odatlarini yanada diversifikatsiya qiladi. Bunday yirtqichlik xususiyatlari chayonlarga oʻz muhitida resurslarni boshqarish imkonini beradi.

Xavf-xatarlar va saqlash choralar - Chayonlar, oʻzlarining oʻziga xos biologik xususiyatlari va ekologik ahamiyati bilan ajralib turadi. Biroq, ularning omon qolishi va populyatsiyasining barqarorligi turli xavf-xatarlar bilan tahdid ostida qolmoqda. Chayonlarni tahdid soluvchi asosiy omillar orasida muhitning ifloslanishi, iqlim oʻzgarishi, tabiiy yashash joylarining yoʻqolishi va inson faoliyati mavjud. Ifloslanish, chayonlarning yashash muhitini toʻsib qoʻyishi, ularning oziq-ovqat manbalarini kamaytirishi va toʻgʻridan-toʻgʻri ularning hayot faoliyatiga salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkin. Iqlim oʻzgarishi esa, chayonlarning tarqalish maydonini oʻzgartirib, ularning hayot siklini buzishi mumkin. Masalan, haroratning koʻtarilishi yoki yomgʻir miqdorining oʻzgarishi, chayonlar uchun qulay boʻlgan sharoitlarni yaratmasligi mumkin, bu esa ularning koʻpayishiga va yashashiga toʻsqinlik qiladi. Shuningdek, tabiiy yashash joylarining yoʻqolishi, chayonlarning populatsiyasini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Oʻrmonlar va boshqa tabiiy muhitlarning kesilishi, qishloq xoʻjaligi va shaharsozlik jarayonlari chayonlarning yashash joylarini yoʻqotishiga olib keladi. Bu esa, oʻz navbatida, ularning oziq-ovqat zanjiridagi oʻrnini ham zaiflashtiradi. Inson faoliyatining ta'siri chayonlarning koʻpayishiga va tarqalishiga toʻsqinlik qilish bilan birga, ularning genetik xilma-xilligini ham kamaytiradi, bu esa ularning moslashuvchanligini pasaytiradi.

ISSN 3030-3907

NATIJALAR VA XULOSALAR - Olingan natijalar, tadqiqotning asosiy maqsadlariga erishishda muvaffaqiyatli bo‘lganligini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar, chayonlarning biologik xilma-xilligi va ularning tabiiy yashash joylari bilan bog‘liq muammolarni aniqlashga imkon berdi. O‘zbekiston hududida chayonlar populyatsiyasining kamayishi, asosan, inson faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan ekologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Bu jarayon, bir tomondan, qishloq xo‘jaligida pestitsidlardan foydalanish, ikkinchi tomondan esa, tabiiy muhitning buzilishi va urbanizatsiya kabi omillardan kelib chiqmoqda. Olingan natijalar, shuningdek, chayonlar turining o‘zgaruvchanligini va ularning ekologik moslashuvchanligini ham ko‘rsatmoqda. Bu esa, kelajakdagi tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlar ochadi. Tadqiqot natijalari, chayonlar va ularning yashash joylari o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ta'kidlaydi. Bu borada, chayonlar populyatsiyasining monitoringini o‘rnatish, ularni saqlash uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish va pestitsidlar ta'sirini kamaytirish kabi tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Fet, V., Sissom, W.D., Lowe, G., Braunwalder, M.E. *Catalog of the Scorpions of the World (1758–1998)*. New York: The New York Entomological Society, 2000.
2. Gromov, A.V., Rasulov, R.I. Chayony Sredney Azii: sistematika, rasprostraneniye i ekologiya. – Tashkent: Fan, 2018.
3. Teruel, R., Fet, V. *Scorpions of Central Asia: Taxonomy and Distribution*. – Journal of Arachnology, 2014.
4. Mirzayev, U., Nazarov, R. O‘zbekiston hududida tarqalgan artropodlar ekologiyasi. – Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 2020.
5. Prendini, L. *Phylogeny and Classification of the Scorpions (Arachnida: Scorpiones)*. – Bulletin of the American Museum of Natural History, 2003.
6. Lourenço, W.R. *Scorpions of the World: Biodiversity and Evolution*. – Paris: Muséum National d’Histoire Naturelle, 2016.
7. Melville, J., Shoemaker, A. *Desert Arthropods and Their Adaptations to Arid Environments*. – Springer, 2019.
8. Rustamov, A.K. Qizilqum cho‘li hayvonot dunyosi va uning ekologik xususiyatlari. – Nukus: Qoraqalpoq nashriyoti, 2017.

ISSN 3030-3907

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ДАРАЖАСИНИ БАҲОЛАШНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

А.Б.Хушвақов

Иқтисодиёт ва педагогика университети "Иқтисодиёт" кафедраси доцс.

Худойбердийев Аброр Дилмурод ўғли

Иқтисодиёт ва педагогика университети магистранти

Аннотатсия. Мазкур мақолада Қашқадарё вилоятининг ижтимоий-иқтисодий салоҳияти, унинг таркибий тузилмаси ҳамда барқарор ривожланиш истиқболлари ҳар томонлама таҳлил қилинган. Тадқиқотда вилоят иқтисодиётининг асосий тармоқлари - саноат, қишлоқ хўжалиги, хизматлар соҳаси, инвестиция фаолияти ва бандлик кўрсаткичлари статистик маълумотлар асосида ўрганилган. Шунингдек, ҳудудда аҳоли турмуш даражаси, инфратузилма ривожи ва ижтимоий соҳа ҳолатининг иқтисодий барқарорликка таъсири баҳоланган. Тадқиқот натижаларида Қашқадарё вилоятининг мавжуд салоҳиятидан самарали фойдаланиш, иқтисодий ўсишни жадаллаштириш ҳамда барқарор ривожланишни таъминлаш бўйича илмий-амалий хулосалар ва таклифлар ишлаб чиқилган. Мақола натижалари ҳудудий ривожланиш стратегияларини такомиллаштиришда амалий аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: Қашқадарё вилояти, ижтимоий-иқтисодий салоҳият, ҳудудий ривожланиш, барқарор ривожланиш, иқтисодий ўсиш, инвестиция фаолияти, саноат ва қишлоқ хўжалиги, аҳоли бандлиги, инфратузилма.

Аннотация. В данной статье проведён всесторонний анализ социально-экономического потенциала Кашкадарьинской области, её структурного устройства и перспектив устойчивого развития. В исследовании на основе статистических данных изучены основные отрасли региональной экономики-промышленность, сельское хозяйство, сфера услуг, инвестиционная деятельность и показатели занятости. Также оценено влияние уровня жизни населения, развития инфраструктуры и состояния социальной сферы на обеспечение экономической стабильности. Результаты исследования легли в основу научно-практических выводов и предложений по эффективному использованию существующего потенциала Кашкадарьинской области, ускорению экономического роста и обеспечению устойчивого развития. Результаты статьи имеют практическое значение для совершенствования стратегий регионального развития.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, социально-экономический потенциал, региональное развитие, устойчивое развитие, экономический рост, инвестиционная деятельность, промышленность и сельское хозяйство, занятость, инфраструктура.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the socio-economic potential of the Kashkadarya region, its structural composition, and prospects for sustainable development. Based on statistical data, the study examines the key sectors of the regional economy, including industry, agriculture, the service sector, investment activity, and employment indicators. In addition, the paper assesses how living standards, infrastructure development, and the condition of the social sector affect economic stability. The findings of the study form the basis for scientific and practical conclusions and recommendations aimed at the effective use of the existing potential of the Kashkadarya region, accelerating economic growth, and ensuring sustainable development. The results of the article are of practical importance for improving regional development strategies.

Keywords: Kashkadarya region, socio-economic potential, regional development, sustainable development, economic growth, investment activity, industry and agriculture, employment, infrastructure.

КИРИШ

Бугунги кунда ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражаси мамлакат иқтисодий барқарорлиги ва рақобатбардошлигини белгиловчи асосий омиллардан бири ҳисобланади. Айниқса, ҳудудий салоҳиятдан самарали фойдаланиш ва барқарор ривожланиш механизмларини шакллантириш долзарб масала бўлиб қолмоқда. Қашқадарё вилояти Ўзбекистон Республикасининг муҳим иқтисодий ҳудудларидан бири бўлиб, бой табиий ресурслар, ривожланган қишлоқ хўжалиги ва саноат салоҳиятига эга. Шу билан бирга, ҳудудда иқтисодий ўсишни барқарорлаштириш, аҳоли турмуш даражасини ошириш ҳамда инфратузилмани ривожлантириш зарурати мавжуд.Қашқадарё вилояти 1924-йилда ташкил топган бўлиб, Ўзбекистон Республикасининг маъмурий-ҳудудий бирлиги ҳисобланади. Қашқадарё вилояти Ўзбекистон Республикасининг жанубий қисмида жойлашган бўлиб, майдони 28 400 км² ни ташкил этади. Вилоятда 18 та ҚФЙ ва 779 та МФЙ жойлашган бўлиб, унинг ҳудудида 3 697 658 нафар аҳоли истиқомат қилади. Аҳоли зичлиги 1 км² га 120,2 кишини ташкил этади.Қашқадарё вилояти маъмурий-ҳудудий таркибига кўра 2 та вилоятга бўйсунувчи шаҳар ва 15 та туманга бўлинган.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ

ISSN 3030-3907

Ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий салоҳияти ва барқарор ривожланиши масалалари хорижий ва маҳаллий олимлар томонидан кенг ўрганилган. Хусусан, хорижий тадқиқотларда ҳудудий ривожланиш, иқтисодий ўсиш ва барқарорлик ўртасидаги ўзаро боғлиқлик, ресурслардан самарали фойдаланиш ҳамда институтсионал омилларнинг таъсири чуқур таҳлил қилинган. Хорижий олимлардан Ж. Стиглитз[2], А. Сен ва Ж.[3] Сачсларнинг илмий ишларида барқарор ривожланиш тушунчаси иқтисодий ўсиш, ижтимоий тенглик ва экологик барқарорлик уйғунлиги асосида изоҳланган. Уларнинг тадқиқотларида ҳудудий ривожланишда инсон капитали ва институтсионал муҳитнинг аҳамияти алоҳида таъкидланади. П. Кругман ва М. Портер томонидан олиб борилган тадқиқотларда ҳудудий рақобатбардошлик, саноат кластерлари ва ишлаб чиқаришнинг ҳудудий жойлашуви ижтимоий-иқтисодий салоҳиятни оширишнинг муҳим омиллари сифатида қаралган. Ушбу ёндашувлар ҳудудларда иқтисодий фаолликни кучайтириш орқали барқарор ривожланишни таъминлаш имконини беради.Шунингдек, Жаҳон банки ва Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Тараққиёт Дастури (УНДП) ҳисоботларида ҳудудий ривожланиш даражасини баҳолашда ялпи ҳудудий маҳсулот, бандлик, даромадлар ва инфратузилма кўрсаткичлари асосий мезонлар сифатида келтирилган. Мазкур ёндашувлар Қашқадарё вилоятининг ижтимоий-иқтисодий салоҳиятини баҳолашда методологик асос бўлиб хизмат қилади.Ўзбекистонлик олимлардан С. Ғуломов[4], Б. Ходийев, А[5]. Ваҳобов ва У. Каримовларнинг илмий ишларида ҳудудий иқтисодий ривожланиш, иқтисодий хавфсизлик ва барқарорлик масалалари кенг ёритилган. Ушбу тадқиқотларда ҳудудларнинг иқтисодий салоҳиятидан самарали фойдаланиш мамлакат иқтисодий ўсишининг муҳим шарти сифатида баҳоланади.Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президенти асарлари ва фармонларида ҳудудларни комплекс ривожлантириш, инвестиция муҳитини яхшилаш ҳамда аҳоли турмуш даражасини ошириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган. Ушбу норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳудудий ривожланиш стратегиясининг асосий йўналишларини белгилаб беради[6]. Миллий тадқиқотларда Қашқадарё вилоятининг саноат ва қишлоқ хўжалиги салоҳияти, бандлик ҳамда инфратузилма ривожи масалалари ҳудудий статистик маълумотлар асосида таҳлил қилинган. Бироқ мавжуд адабиётларда вилоятнинг барқарор ривожланиш истиқболлари комплекс ёндашув асосида етарли даражада ўрганилмаган[7]. Мазкур тадқиқот айнан ушбу илмий бўшлиқни тўлдиришга қаратилган.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

ISSN 3030-3907

2024-йил якунига кўра, Ўзбекистонда камбағаллик даражаси 11 фоиздан 8,9 фоизга камайди. Бандлик дастурлари туфайли 719 минг киши камбағалликдан чиқарилди. Камбағалликнинг энг паст кўрсаткичи Навоий вилоятида (5,7 фоиз), энг юқори кўрсаткичи Хоразм вилоятида (11,9 фоиз) қайд этилган.

Ўзбекистонда камбағаллик даражаси 2024-йилда 8,9 фоизгача пасайди, деб хабар берди Иқтисодий тадқиқотлар ва ислоҳотлар маркази президент ҳузуридаги Статистика агентлиги ҳамда Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги маълумотларига таяниб.

Баҳолаш Жаҳон банки билан ҳамкорликда амалга оширилди ва халқаро ҳисоблаш услубига асосланган. Ушбу методика бўйича йил давомида бутун республика бўйича уй хўжаликлари буджетлари ўрганилган.

2021-йилги кузатувда 10 мингга яқин оила иштирок этган бўлса, 2022-йилда қамров 14 мингдан ошди, 2024-йил давомида эса 16 мингдан ортиқ уй хўжаликлари сўровдан ўтказилди.

Аҳоли фаровонлиги даражасидаги ўзгаришлар таҳлили шуни кўрсатдики, 2023-йилда камбағаллик даражаси 14 фоиздан 11 фоизга, 2024-йилда эса 8,9 фоизга камайган. Ўтган йили 719 минг киши камбағалликдан чиқарилди, дейилади мақолада. Камбағалликнинг энг паст кўрсаткичи Навоий вилоятида (5,7 фоиз), энг юқори кўрсаткичи Хоразм вилоятида (11,9 фоиз) қайд этилган.

Мамлакатнинг барча ҳудудларида ижобий ўзгаришлар қайд этилди. Айниқса, Бухоро ва Самарқанд вилоятларида сезиларли ўсиш қайд этилди, бу ерда камбағаллик ўртача 3,1 фоиз пунктга қисқариб, мос равишда 8,7 ва 7,5 фоизни ташкил этди. Наманган вилояти ва Қорақалпоғистонда камбағаллик даражаси 2,8 фоиз бандга-7,6 фоиз ва 10,8 фоизгача пасайди.

ISSN 3030-3907



1- Расм Қашқадарё вилоятида аҳолининг ишлаб чиқариш корхонлардаги бандлиги[1]

Камбағаллик кўрсаткичининг энг кам пасайиши Қашқадарё вилоятида-11,5 фоиздан 9,6 фоизгача (1,9 ф.п.), Навоий вилоятида-7,6 фоиздан 5,7 фоизгача (1,9), Фарғонада-10,1 фоиздан 8,6 фоизгача (1,5), Сурхондарё вилоятида-10,6 фоиздан 9,3 фоизгача (1,3) ва Тошкент шаҳрида-7,9 фоиздан 7,3 фоизгача (0,6) қайд этилди.

ИТИМ маълумотларига кўра, камбағалликни қисқартириш иш билан таъминлаш, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва ердан самарали фойдаланиш орқали амалга оширилди.

Ушбу чора-тадбирлар натижасида аҳолининг реал даромадлари ўтган йилда 10,7 фоизга ошиб, аҳоли жон бошига ойига ўртача 2,1 млн сўмни ташкил этди (йил бошида-1,7 млн сўм).

Қуйидагилар даромадларнинг асосий манбалари бўлиб қолмоқда:

- иш ҳақи-42,6% (2023-йилда-41,9%);
- тадбиркорликдан олинган даромадлар-22,9% (21,4%);
- пенсиялар, ижтимоий ёрдам ва субсидиялар-18,2% (18,9%);

[1] Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasidan olingan

ISSN 3030-3907

- қишлоқ хўжалиги ва томорқалардан олинган даромадлар-10,7% (9,8%);
- хориждан пул ўтказмалари-2% (3,1%);
- бошқа даромадлар-3,6% (4,9%).

Тадбиркорлик фаолиятидан олинган даромадлар 1,5 фоиз пунктга, қишлоқ хўжалигидан олинган даромадлар эса 0,9 фоиз пунктга ошди.

Даромадларнинг энг юқори ўсиши Фарғона (+19,1%) ва Бухоро (+11,4%) вилоятларида, шунингдек, Тошкент шаҳрида (+17%) қайд этилди. Пойтахтда аҳолининг ўртача даромади 3,6 млн сўмни, Навоий ва Қашқадарё вилоятларида эса 2,2 млн сўмни ташкил этган.

2024-йилда иш ҳақидан олинган даромадлар 12,9 фоизга ошди, бунинг учун 5,1 миллион киши иш билан таъминланди. Расмий иш билан банд аҳолининг улуши 30 фоизга ошди.

Даромадларни ошириш бўйича муваффақиятли лойиҳалардан бири Сирдарё вилоятидаги “Сайхунобод тажрибаси” деб номланади. Тажриба дастури доирасида 326 мингта микролойиҳа аҳоли даромадларининг 14,7 фоизга, кам даромадли оилаларда эса 17,7 фоизга ўсишига ёрдам берди, деб таъкидлади ИТИМ.

Бундан ташқари, 159 минг киши фермер хўжалиги сифатида рўйхатдан ўтгач, 61 минг гектар ерга эга бўлди.

2024-йил декабр ойида президент Шавкат Мирзиёйев камбағаллик даражаси 2024-йил охирига келиб 9 фоизга тушишини таъкидлаганди. Унинг сўзларига кўра, тадбиркорлар билан ҳамкорлик давом эттирилса, “келгуси йилларда бу кўрсаткични бемалол 6 фоизга туширамиз”.

Ўзбекистонда камбағаллик даражасини баҳолаш 2020-йилдан буён доимий равишда ўтказиб келинмоқда ва аҳолининг турмуш даражаси, шароити ва сифати тўғрисидаги муҳим маълумотлар манбаи бўлиб, мамлакатда монетар камбағаллик даражасини баҳолаш учун ягона ахборот манбаи ҳисобланади.

Сўровномада иштирок этган уй хўжаликлари харажатлар миқдорига кўра 10 та гуруҳга бўлинади ва ушбу оилалардан энг кам харажатлар (даромадлар)га эга бўлган уй хўжаликларига 30 фоиз ўрин берилади. Камбағаллик чегарасини аниқлаш учун ишлатиладиган минимал истеъмол харажатлари (МИС) озиқ-овқат маҳсулотларининг кунлик зарурий истеъмолини (2200 ккал), ойига ноозиқ-овқат товарлари ва хизматларни ҳисобга олади.

Қонунчиликка мувофиқ, Статистика агентлиги ҳар йилнинг 20-январигача МИСни эълон қилиши лозим. Ўтган йили МИС икки марта оширилди-йил бошида олдинги йилдаги 8,7 фоизлик инфляция фонида 9,3

ISSN 3030-3907

фоизга, кейин эса 1-майдан газ ва электр энергияси тарифларининг кескин кўтарилиши муносабати билан яна 4,3 фоизга ошди. Бу кўрсаткич ойига 648 минг сўмни ташкил этади. Жорий йилда янги МИС кўрсаткичи ҳали эълон қилинмаган.

2022-йилдан бошлаб “Ижтимоий ҳимоя ягона рейестри” ахборот тизими орқали оилани кам таъминланган деб эътироф этишда қўлланиладиган бир ойлик ўртача даромад мезони минимал истеъмол харажатларига тенглаштирилди. Баъзи нафақалар ва бошқа ижтимоий меъёрлар минимал истеъмол харажатларидан кам бўлмаган миқдорда тўланиши керак.

Истиқболда Ўзбекистон кўп ўлчовли камбағаллик индексини жорий этишни режалаштирмоқда, бу аҳолининг турмуш шароитларини янада аниқроқ баҳолаш ва камбағалликка қарши курашиш бўйича манзилли чора-тадбирларни ишлаб чиқиш имконини беради.

Ўзбекистонда камбағаллик даражаси 6,8 фоизни ташкил қилмоқда. Ўзбекистонда 1-июл ҳолатига кўра, камбағаллик даражаси 6,8 фоизни ташкил қилмоқда, бу ҳақда Шавкат Мирзиёйевга таништирилган тақдимотда сўз боради. Биринчи яримйилликда 3 млн дан зиёд аҳоли даромадли меҳнатга жалб қилингани қайд этилди. 2024-йил якунида камбағаллик даражаси 8,9 фоизгача камайганди.

Ўзбекистонда 2025-йилнинг 1-июл ҳолатига кўра, камбағаллик даражаси 6,8 фоизни ташкил қилмоқда. Бу ҳақда Шавкат Мирзиёйевга таништирилган, аҳоли бандлигини таъминлашга оид тақдимотда маълум қилинди.

Таъкидланишича, банклар маҳаллаларга боғланиб, аҳоли бандлигини таъминлашга ҳам ҳисса қўшмоқда. Биринчи яримйилликда 3 миллиондан зиёд аҳоли даромадли меҳнатга жалб қилинди. Ўз навбатида, “камбағалликни қисқартириш борасида яратилган тизим ҳамда сарфланаётган маблағлар ўз самарасини бермоқда”.

Шунингдек, меҳнат муносабатларидаги айрим меъёрлар тадбиркорлик субйектлари, айниқса, кичик корхоналар учун мураккаблик туғдираётганига тўхталиб ўтилди. Ишга қабул қилишда ахборот технологиялари имкониятларидан тўлиқ фойдаланилмаяпти.

Амалдаги талаблар иш берувчиларни ҳақиқий вакансияларни очиқ эълон қилишга рағбатлантирмайди, дейилади президент матбуот хизмати хабарида. Оқибатда бу маълумотларни яширишга олиб келиб, меҳнат бозорини тўғри таҳлил қилиш ҳамда касбий таълим йўналишларини аниқлаш имконини чекламоқда.

ISSN 3030-3907

Тақдимотга кўра, меҳнат органлари иш берувчиларга нисбатан жазо қўлловчи эмас, балки ҳамкор сифатида фаолият юритувчи, уларга хизмат кўрсатувчи тузилмага айланиши кўзда тутилмоқда.

Хусусан, иш берувчилар томонидан бўш иш ўринлари тўғрисидаги мажбурий маълумотларни тақдим этмаслик ва жўнатилган номзодларни ишга олмаслик учун жазо чораларини бекор қилиш таклиф этилмоқда. Бу орқали бандлик органлари иш берувчилардан тўғри ва ҳаққоний маълумотларни тўплаб, уларга иш излаётган фуқароларни йўналтиради. Иш берувчи эса номзодни қабул қилиш ёки қилмасликни ўзи ҳал этади.

Ушбу тизимни жорий этиш учун махсус электрон платформа яратилиб, дастлаб Тошкент шаҳрида тажриба тариқасида бошланади ва кейинчалик бутун мамлакат бўйича татбиқ этилади.

Шу билан бирга, мутахассис топиш мураккаб бўлган вакансиялар касбий таълимнинг асосий йўналишларига айлантирилиб, тайёргарлик жараёнларини мақсадли ташкил этишга хизмат қилади.

Касбий таълим сифатини ошириш мақсадида хусусий сектор вакилларини Касбий кўникмалар марказлари фаолиятига жалб этиш, айрим марказларни эса аниқ соҳалар бўйича ихтисослаштирилган таълим масканларига айлантириш режалаштирилган.

Қайд этилишича, мутасаддиларга касбий таълимни уч босқичли тизимга ўтказиш вазифаси қўйилди. Жумладан, интернет орқали бепул видеодарсларни жорий этиш, ишловчи фуқароларга қайта тайёргарлик ёки малака ошириш учун “касб ваучери” орқали имконият яратиш юзасидан кўрсатмалар берилди.

Давлат раҳбарига кўра, малакали кадрлар тайёрлаш республикада ишсизлик ва камбағалликни қисқартиришга хизмат қиладиган энг муҳим омиллардан биридир.

2025-йил якунига кўра, Ўзбекистонда камбағаллик даражаси 11 фоиздан 8,9 фоизгача камайганди. Бандлик дастурлари туфайли 719 минг киши камбағалликдан чиқарилган. Ўшанда камбағалликнинг энг паст кўрсаткичи Навоий вилоятида (5,7 фоиз), энг юқори кўрсаткичи Хоразм вилоятида (11,9 фоиз) қайд этилган

Бош вазир ўринбосари Жамшид Ходжайев май ойида Миландаги Осиё тараққиёт банкининг (ОТБ) йиғилишида сўзлаган нутқида тўрт йил ичида камбағаллик даражаси 23 фоиздан 11 фоизга туширилганини маълум қилганди. “Биз уни 2030-йилга келиб эса икки баробар камайтиришни режалаштирмоқдамиз”, - деганди у.

ISSN 3030-3907

Шавкат Мирзиёйевнинг ўзи эса 2025-йилга мўлжалланган режаларга бағишланган видеоселекторда келгуси йилларда камбағаллик даражаси 6 фоизга туширилишига амин эканини таъкидлаганди.

Камбағал оилаларга тадбиркорлик билан шуғулланиш учун фоизсиз ссудалар ажратилади.

Ўзбекистонда Камбағал оилалар рейестрига киритилган оилалар аъзоларига ўз фаолиятини бошлаши учун зарур бўлган асбоб-ускуналарни харид қилишга ажратиладиган субсидиялар ўрнига фоизсиз ссуда ажратиш тизими жорий этилади. Шунингдек, бир қатор янги молиявий ёрдамлар жорий этилади.

Камбағал оилаларга тадбиркорлик билан шуғулланиши учун фоизсиз ссудалар ажратилади. Бу 14-феврал куни имзоланган “Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш ва бандлигини таъминлаш учун молиявий ёрдамлар ажратиш тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги президент қарорида [ПҚ-64-сон] белгиланган. Қарорга кўра, аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш, айланма маблағлари билан таъминлаш ҳамда Ижтимоий ҳимоя ягона рейестри ва Камбағал оилалар рейестрига киритилган оилалар аъзоларига ўз фаолиятини бошлаши учун зарур бўлган асбоб-ускуналарни харид қилишга ажратиладиган субсидиялар ўрнига фоизсиз ссуда ажратиш тизимини жорий этилади.

Аҳоли томонидан қизиқиш билдирилмаган, узоқ давр мобайнида фойдаланилмаётган ва самарадорлиги паст бўлган субсидиялар бекор қилинади ҳамда бир-бирини такрорловчи субсидиялар бирлаштирилади.

Маҳаллаларнинг ихтисослашуви ва драйвер йўналишларидан келиб чиқиб, камбағал оилаларга тадбиркорлик ҳамда деҳқончилик билан шуғулланиши учун грант ва фоизсиз ссудалар ажратилади.

2026-йил 1-январдан аҳолига нақд пул шаклида бериладиган молиявий ёрдамлар босқичма-босқич ижтимоий карта орқали ажратилади.

2025-йил 20-мартгача Иқтисодиёт ва молия вазирлиги марказий аппарати тузилмасида Субсидия, ссуда ва грантларнинг самарадорлигини баҳолаш ва мувофиқлаштириш бошқармаси ташкил этилади.

Қарорга кўра, “Камбағалликдан фаровонлик сари” дастурида белгиланган вазифаларни амалга ошириш учун қуйидаги янги турдаги молиявий ёрдамлар жорий этилади:

озодликдан маҳрум этиш жазосини ўтаб бўлган фуқароларга улар томонидан тадбиркорлик, меъморчилик, ҳунармандчилик каби йўналишлардаги аниқ лойиҳалар амалга оширилиши учун меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорининг 10 бараваригача миқдордаги субсидиялар;

ISSN 3030-3907

ўзини ўзи банд қилмоқчи бўлган ишсиз фуқароларни ёки камбағал оилалар аъзоларини касаначи сифатида ишга олган тадбиркорларга уларнинг айланма маблағларини тўлдириш учун ҳар бир жалб қилинган касаначи учун БҲМнинг 10 бараваригача миқдордаги 3 йилгача муддатга фоизсиз ссудалар;

камбағал оила аъзоларига ўз фаолиятини бошлаши учун зарур бўлган асбоб-ускуналарни харид қилишга БҲМнинг 50 бараваригача миқдордаги 6 ойдан 3 йилгача муддатга фоизсиз ссудалар;

камбағал оилаларга деҳқончилик ва боғдорчилик ташкил қилиш учун деҳқон хўжаликларига сув қудуқларини бурғилаш, насос агрегатларини сотиб олиш, томчилатиб суғориш тизимини ўрнатиш ва электр тармоқларини тортиш учун 6 ойлик имтиёзли давр билан БҲМнинг 200 бараваригача миқдордаги 5 йилгача муддатга фоизсиз ссудалар;

маҳаллаларнинг ихтисослашуви ва драйвер йўналишларидан келиб чиқиб, ўз тажрибасини 10 тагача камбағал оилаларга ўргатган ва уларга доимий даромад манбаига эга бўлишига кўмаклашган тадбиркорларга ҳар бир камбағал оила учун БҲМнинг 3 баравари, бироқ БҲМнинг 30 бараваригача миқдордаги грантлар.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Мазкур мақолада Қашқадарё вилоятининг ижтимоий-иқтисодий салоҳияти ва барқарор ривожланиш истиқболларини аниқлашга қаратилган тадқиқот комплекс илмий-методик ёндашув асосида олиб борилди. Тадқиқот натижалари ҳудуднинг иқтисодий ва ижтимоий кўрсаткичлари юқори салоҳиятга эга эканлигини, бироқ барқарор ривожланиш йўлида айрим тўсиқлар мавжудлигини кўрсатди.Ижтимоий-иқтисодий салоҳият. Қашқадарё вилояти саноат ва қишлоқ хўжалиги тармоқларида юқори даражада ривожланган бўлиб, хизматлар соҳаси аҳоли турмуш даражасини оширишга сезиларли ҳисса қўшади. Ялпи ҳудудий маҳсулот ва бандлик даражаси республика бўйича ўртача кўрсаткичлардан юқорироқдир.Инвестиция ва иқтисодий хавфсизлик.

Ҳудудга жалб қилинган инвестициялар иқтисодий ўсиш ва янги иш ўринлари яратишда муҳим омил ҳисобланади. Шу билан бирга, чекка ҳудудларда инфратузилманинг етишмаслиги ва инвестиция ҳажмининг пастлиги ҳудудий тафовутларни келтириб чиқаради, бу эса барқарор ривожланишга салбий таъсир кўрсатади.Бандлик ва кадрлар салоҳияти. Бандлик даражаси юқори бўлса-да, малакали ишчи кучининг етишмаслиги ҳудуднинг иқтисодий салоҳиятини тўлиқ амалга оширишга тўсқинлик қилмоқда. Шу сабабли касб-ҳунар марказларини ривожлантириш ва малакали кадрлар тайёрлаш долзарб масала ҳисобланади. Ҳудудий

ISSN 3030-3907

тафовутлар. Марказий туманлар саноат ва хизматлар соҳасида ривожланган бўлса, чекка ҳудудларда қишлоқ хўжалиги устун бўлиб, инфратузилма ва инвестиция имкониятлари чекланган. Ҳудудий тафовутларни камайтириш барқарор ривожланиш учун муҳим стратегик йўналиш ҳисобланади.Барқарор ривожланиш стратегиялари. Тадқиқот шуни кўрсатдики, ҳудудни барқарор ривожлантириш учун қуйидаги чоралар самарали бўлади:

−иқтисодий тармоқларни диверсификатсия қилиш;

−инвестиция муҳитини яхшилаш;

−чекка ҳудудларда инфратузилма ва хизматлар соҳасини ривожлантириш;

−малакали кадрлар тайёрлаш ва бандликни ошириш.

Қашқадарё вилояти ижтимоий-иқтисодий салоҳияти юқори бўлишига қарамай, барқарор ривожланиш истиқболларини тўлиқ амалга ошириш учун ҳудудий тафовутларни камайтириш, инвестиция муҳитини кучайтириш, инфратузилма ва хизматлар соҳасини ривожлантириш ҳамда малакали ишчи кучини тайёрлашга алоҳида эътибор қаратиш зарур. Ушбу тавсиялар ҳудуд иқтисодий хавфсизлигини мустаҳкамлаш, аҳоли турмуш даражасини ошириш ва ижтимоий-иқтисодий барқарорликни таъминлаш имконини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Fayzullayev J.S. Zamonaviy transport-logistika tizimining boshqaruv samaradorligini oshirish. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. No 6, noyabr–dekabr, 2017-yil.

2. Tatarkin, A.I. Kompleksnaya metodika diagnostiki sotsialno-demograficheskoy bezopasnosti regiona: kollektivnaya monografiya / pod red. A.I. Tatarkina, A.A. Kuklina. – Yekaterinburg: Institut ekonomiki UrO RAN, 2007. – 155 s.

3. Oleynikov, Ye.A. Ekonomicheskaya i natsionalnaya bezopasnost: uchebnik / Ye.A. Oleynikov; pod red. Ye.A. Oleynikova. – Moskva: Ekzamen, 2004. – 768 s.

4. Krivorotov, V.V. Ekonomicheskaya bezopasnost gosudarstva i regionov: ucheb. posobiye dlya studentov vuzov, obuchayushchikhsya po napravleniyu «Ekonomika» / V.V. Krivorotov, A.V. Kalina, N.D. Eriashvili. – Moskva: YUNITI-DANA, 2012. – S. 65.

5. Raxmatullayev, D. A. (2025). Qashqadaryo viloyati sanoatini innovatsion rivojlantirish strategiyasining asosiy yo‘nalishlari va ularni ekonometirik modellar yordamida baholash. Экономика и социум, 11-2(138), 454–457.

6. Raxmatullayev, D. A. (2025). Qashqadaryo viloyatida sanoatni optimal modellar asosida innovatsion rivojlantirish istiqbollari. Journal of New Century Innovations, 89(2), 111–114.

ISSN 3030-3907

7. Raxmatullayev, D. A. (2025). Qashqadaryo viloyatida sanoatni innovatsion rivojlantirish tendensiyalari. Journal of New Century Innovations, 89(2), 106–110.

ISSN 3030-3907

NODAVLAT TASHKILOTLARDA IJRO INTIZOMINI TA’MINLASHDA AXBOROT-BOSHQARUV TIZIMLARINING ROLI

Roziqov Behzodjon Bahridinovich
BuxDTU magistri

Email. faxridinbaxramov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining janubiy mintaqalarida, xususan Surxondaryo viloyati sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish muammolari hamda tuproq va iqlim sharoitiga mos suv tejamkor sug‘orish texnologiyalarini qo‘llashning ilmiy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda sug‘orish tarmoqlarining eskirganligi, an’anaviy egatlab sug‘orish usulining kamchiliklari, suv isrofgarchiligi va tuproq sho‘rlanishiga ta’siri tahlil qilingan. Tuproqning mexanik tarkibi, suv-fizik xossalari, sho‘rlanish darajasi, sizot suvlarining sathi hamda ekinlarning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda sug‘orish usullarini tanlash zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari asosida suv tejamkor sug‘orish texnologiyalarini joriy etish orqali suv sarfini kamaytirish, tuproq sho‘rlanishining oldini olish va qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: suv tejamkor texnologiyalar, sug‘orish usullari, tuproq sho‘rlanishi, meliorativ holat, sizot suvlari, egatlab sug‘orish, tomchilatib sug‘orish, suv isrofgarchiligi

Аннотация. В статье рассмотрены проблемы рационального использования водных ресурсов в южных регионах Республики Узбекистан, в частности в условиях Сурхандарьинской области, а также научные основы внедрения водосберегающих технологий орошения с учетом почвенно-климатических условий. Проанализированы недостатки традиционного бороздкового орошения, износ оросительных сетей, потери воды и их влияние на засоление почв. Обоснована необходимость выбора способов орошения с учетом механического состава почв, водно-физических свойств, уровня засоленности, глубины грунтовых вод и биологических особенностей сельскохозяйственных культур. На основе полученных результатов предложены научно обоснованные выводы и практические рекомендации по внедрению водосберегающих технологий с целью снижения водопотребления, предотвращения засоления почв и повышения урожайности сельскохозяйственных культур.

Ключевые слова: водосберегающие технологии, орошение, засоление почв, мелиоративное состояние, грунтовые воды, бороздковое орошение, капельное орошение, потери воды

ISSN 3030-3907

Annotation. This article discusses the problems of efficient water use in the southern regions of the Republic of Uzbekistan, particularly under the conditions of Surkhandarya region, and presents the scientific basis for applying water-saving irrigation technologies adapted to soil and climatic conditions. The study analyzes the shortcomings of traditional furrow irrigation, outdated irrigation infrastructure, water losses, and their impact on soil salinization. The necessity of selecting irrigation methods based on soil texture, water-physical properties, salinity level, groundwater depth, and biological characteristics of crops is substantiated. Based on the research results, scientifically grounded conclusions and practical recommendations are developed to reduce water consumption, prevent soil salinization, and increase crop productivity through the implementation of water-saving technologies.

Keywords: water-saving technologies, irrigation methods, soil salinity, meliorative condition, groundwater level, furrow irrigation, drip irrigation, water losses

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi umumiy suv iste’molining 90 foizini tashkil etishiga qaramay, sug‘orish tarmoqlarining samarasizligi tufayli qishloq xo‘jaligida suvning uchdan bir qismi shunchaki yo‘qolib bormoqda. Sug‘orish texnologiyasi va texnikasisining hamda infratuzilmaning eskirganligi va qishloq xo‘jaligining samarasiz amaliyoti tufayli dalalarda suvdan samarasiz foydalanilmoqda. Eski uslubda ishlash tuproqning sho‘rlanishi jarayonining tezlashishiga va qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligining pasayishiga sabab bo‘lmoqda, bu esa katta maydonlarda tuproq strukturasini o‘zgarishiga, buning natijasida hududlarni cho‘llanishiga, zaharli chang bo‘ronlarining ko‘payishi va ekologik muhitning buzilishiga olib kelmoqda.

Ma’lumki tuproqning mexanik tarkibi va struktura holati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan agrofizikaviy xossalari hamda unda kechadigan fizikaviy jarayonlar tuproqning suv, havo va issiqlik rejimlari qishloq xo‘jalik ekinlarining o‘sib rivojlanishida va hosildorligiga juda katta ta’sir etadi. Tuproqning sun’iy unumdorligi inson tomonidan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda yaratiladi. Dehqonchilikda qo‘llaniladigan yerga ishlov berish, sug‘orish, o‘g‘itlash, almashlab ekishni joriy etish, sho‘rni yuvish, sizot suvlar sathini pasaytirish kabi agrotexnik tadbirlar tuproqning sun’iy unumdorligini paydo qiladi va aksincha yuqoridagi tadbirlarni noto‘g‘ri foydalanilishida tuproq strukturasini buzilishiga olib keladi.

Bugungi kunda, qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil olishning garovi asosan iqlim sharoiti, tuproqning unumdorligi, yerlarning meliorativ holati,

ISSN 3030-3907

ekinlarning biologik xususiyatlari hamda sug‘orish texnikasi va texnologiyasi, usuli, va sug‘orish rejimi (tartibi) kabi omillarga bog‘liqdir.

Respublika janubiy mintaqalarida suvdan samarali foydalanishga asoslar, birinchidan havo harorati, bir yildagi yog‘in miqdori va uning oylar bo‘yicha taqsimlanishi, havoni namligi va uning bug‘lanishi, shamolning tezligi va oylar bo‘yicha takroriyligi, ikkinchidan tuproqning mexanik tarkibi, suv-fizik xossalari, sho‘rlanish darajasi va turi, uchinchidan yer osti suvlarining sathi, yer osti suvlarning minerallashganligi va ularning o‘zgarishi, to‘rtinchidan o‘simliklarning navlari suvga, tuzga va issiqlikka munosabati, beshinchidan sug‘orishning egatlab, tomchilatib, yomg‘irlatib va yer ostidan sug‘orish usullaridan hamda oqava suvlarning minerallashganligini ilmiy asoslangan holda o‘rganish natijasi asosida sug‘orishni tashkil etish orqali erishiladi. Masalan: sug‘orish suvlari (ayniqsa ular u yoki bu darajada mineralashgan bo‘lsa) ta’sirida ham tuproq strukturasi ma’lum darajada buziladi hamda sug‘orish noto‘g‘ri tashkil etilishi oqibatida tuproqni sho‘rlanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, tuproqni ammoniy sulfat singari fiziologik kislotali va natriy nitrat kabi fiziologik ishqorli mineral o‘g‘itlar bilan hosildorlikni ko‘tarish maqsadida bir necha yil surunkasiga o‘g‘itlash tuproq strukturasining buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Tuproq unumdorligi uning tabiiy xossasi bo‘lsa ham, u tuproq hosil bo‘lish jarayonida to‘plangan oziq elementlariga, tuproqning fizik xossalariga hamda iqlim sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun har bir tuman va xo‘jalikning tuproq hamda iqlim sharoitini o‘rganilib, tegishli mintaqalarga bo‘lmoq zarur. Chunki tuproq va iqlim sharoiti u yoki bu agrotexnik tadbirni qo‘llashga asos bo‘ladi.

Mintaqamizda, qolaversa Surxondaryo viloyatida suv taxchilligi keskinlashgan hozirgi kunda yer- suv resurslaridan oqilona foydalanish, tuproq va iqlim sharoitidan kelib chiqib, sug‘orishning suv tejamkor usullarini joriy qilish bugangi kunning eng muhum masalalardan biri hisoblanadi.

Keyingi yillarda qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish va ulardan yuqori hosil olish uchun tabiiy omillar bilan bir qatorda antropogen omillari ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Insoniyatning suv, tuproq va o‘simliklar dunyosini o‘zaro munosabati, ulardan samarali foydalanish qonuniyatlarini yetarlicha bilmasligi oqibatida yuz beradigan omillardir. Bu yerlarning noto‘g‘ri sug‘orish oqibatida sizot suvlarining ko‘tarilishi natijasida sodir bo‘ladigan tuproqning sho‘rlanishi, botqoqlanishi, yemirilishi va me’yoridan ortiq mineral o‘g‘itlar, gerbitsidlar, insektitsidlar, defolantlarni ishlatish tuproq strukturasini buzilishiga olib kelmoqda.

ISSN 3030-3907

Olib borilayotgan ilmiy ishdan natijalar shundan iboratki, viloyatdagi sug‘oriladigan yer maydonlari tuproq va iqlim sharoitlari o‘rganilib mos mintaqalarga ajratiladi. Olingan natijalarga asosan suv tejamkor texnologiyalar tadbiq etilib sug‘orish usullarini tuproqning sho‘rlanishiga va ekinlar hosildorligiga ta’sirlari o‘rganiladi. Sug‘orish usullari bir biri bilan taqqoslanib eng maqbul suv tejamkor sug‘orish usuli ilmiy asoslangan holda tanlanadi. Viloyatda tuproqni sho‘rlanishini oldi olinadi va shurlangan maydonlarni qayta tiklash bo‘yicha ilmiy va amaliy ishlar olib boriladi. Natijalar bo‘yicha ilmiy tavsiya va xulosalar beriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, suvdan samarali hamda tejamkor foydalanish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish zarur hisoblanadi:

- qo‘llanilayotgan sug‘orish texnikasi va texnologiyasini tahlil qilish asosida zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo‘llash;
- viloyatdagi sug‘oriladigan yerlarni tahlil qilib tuproq va iqlim sharoitiga mos mintaqalarga ajratish;
- viloyat miqyosida tuproqning sho‘rlanish darajasini va kelib chiqish sabablarini o‘rganish;
- tuproqning sho‘rlanish darajasiga sug‘orish usullarini ta’sirini ilmiy asoslash;
- xududlardagi yerosti suv sathlarini ko‘tarilishi yoki pasayishini sug‘orish usullariga bog‘liqligini o‘rganish;
- tuproq va iqlim sharoitiga mos suv tejamkor texnologiyalarini aniqlash;
- tuproqni sho‘rlanishini oldini olish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish;
- sho‘rlanishi yuqori bo‘lgan dalalarga sho‘rga chidamli va sho‘rlanishini kamaytiradigan ekinlarni ekishni tashkil etish.

Ushbu tavsiyalar ilmiy asoslanib amalga oshirilganda quyidagilarga erishiladi:


- viloyatning tuproq va iqlim sharoitidan kelib chiqib sug‘oriladigan yer maydonlarini mintaqalarga ajratiladi;
- viloyatda suv tejamkor texnologiyalarni qo‘llagan holda tuproq sho‘rlanishining oldini olinadi va sho‘rlangan maydonlar qayta tiklanadi;
- suv tejamkor texnologiyalarni qo‘llagan holda sho‘rlangan dalalarda yer osti suvlarining (sizot) satxini ko‘tarilishiga yo‘l qo‘yilmadi;
- ortiqcha suv isrofgarchiligiga yo‘l qo‘yilmaydi;
- ekinlar hosildorligi oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligining yanada rivojlanishi sug‘oriladigan yerlardan yanada samarali foydalanish va texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalash asosida ilg‘or texnologiyalarni joriy etish hisobiga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish bilan bog‘liq. Yechilishi zarur bo‘lgan vazifalar qatorida bugungi kunda, qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori xosil olishda sug‘orish texnikasi va texnologiyasini takomillashtirish,

ISSN 3030-3907

sug‘orishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Hozirgi davrda qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtiriladigan dalalarda ekinlarni sug‘orishda hanuzgacha egatlab sug‘orish usuli ustunlik qilmoqda. Bu usul har yili vegetatsiya davrida bir necha ming kilometrlik vaqtinchalik sug‘orish shahobchalari orqali 60 - 80 l/s suv jo‘yaklarga yetkazib beriladi. Dir necha yillardan (40-50 yil) beri dalalarda sug‘orish tarmoqlarini ochishda KBN -0.35 va KZU-0.5 rusumli ariq qazgichlar foydalanib kelinmoqda, ularning asosiy kamchiliklaridan biri vaqtinchalik sug‘orish shahobchalari ochilganda vaqtincha sug‘orish shahobchalari chuqurligi (30 - 45mm) ochilgan egatlar chuqurligidan esa (18 - 25 mm) bo‘lganligi uchun $\mathbf{h_{B.o}} > \mathbf{h_{B.b}}$ vaqtinchalik sug‘orish shahobchasi tubida $\triangle \boldsymbol{h}$ =12- 20 mm balandlikdagi suv foydalanmasdan qoladi bu farq odatda "o‘lik" chuqurlik deb ataladi (1- rasm).



1- rasm. "O‘lik" chuqurlikni aniqlash sxemasi: a) vaqtinchalik sug ‘orish shahobchsini ko‘ndalang kesimi; b) egatni ko‘ndalang kesimi

Qoldiq suv sug‘orish jo‘yaklariga tushmaydi, o‘simliklar tomonidan foydalanilmaydi va sof isrofgarchilikni keltirib chiqarmoqda. Agar biz bu holatni xo‘jaliklararo kanallardan nasoslar orqali dalalardagi taqsimlash ariqlariga undan so‘ng vaqtinchalik sug‘orish shahobchalari va oxirida egatlarga suv kelishini hisobga olsak texnika va texnologiyalarni noto‘g‘ri qo‘llanishi natijasida kanallar hamda ariqlar tubida bir necha million kub suv foydalanmasdan yerga singishi va havoga bug‘lanishi hisobiga isrof bo‘lmoqda. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun hozirda foydalaning kelinayotgan KBN -0.35 va KZU-0.5 rusumli ariq qazgichlarni parametrlarini qayta ilmiy asoslash taqazo etmoqda.

XULOSA. Respublikaning janubiy mintaqalarida suv resurslaridan samarali foydalanish qishloq xo‘jaligi barqaror rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida sug‘orish tarmoqlarining eskirganligi va an’anaviy egatlab sug‘orish usullarining ustunligi suv isrofgarchiligiga hamda tuproq sho‘rlanishining kuchayishiga olib kelayotgani aniqlandi. Tuproq va iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda suv tejamkor sug‘orish texnologiyalarini joriy etish suv sarfini kamaytirish, sizot suvlarining ko‘tarilishini oldini olish va qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish imkonini beradi. Olingan natijalar sug‘orish texnikasi va texnologiyalarini takomillashtirish hamda suv resurslaridan

ISSN 3030-3907

oqilona foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Bakhramov F. Kh. Determination of rational values of angle places installation to the bottom of the furround and the radius of the guiding curve of the duct operating body. International Journal of Mechanical Engineering . ISSN: 0974-5823 Vol. 7 No. 1 January, 2022.
2. Bakhramov F.Kh, Kurbanov A.T and other.Theoretical prerequisites for determining the rational parameters of temporary irrigators. Journal of Critical Reviews. ISSN 2394-5125. Vol 7, ISSUE 13.2020.
3. Bakhramov F.Kh, Karshiev F. U, Sheraliev M. Theoretical Substantiation of the Basic Parameters of a Channel Digger. ISSN:2350-0328. International Journal of Advanced Research in Science, Engineeerring and Technology. Vol. 7, Issue 6, June 2020.
4. Манабаев Н. , Бахрамов Ф. Выбор поперечного профиля временного оросителя.- кн.: Механизация трудоемких производственных процессов в зоне хлопководства. Материалы научной-практеческой конференции. УзНИИМЭ, УзАСХН. Ташкент, 1992.-С.15-16.
5. Бахрамов Ф. Х. Обоснование параметров рабочего органа каналокопателя для нарезки временных оросителей. Автореферат дисс. Канд.техн.наук. Янгиюль.1995.-115 с.

ISSN 3030-3907

BUXORO VILOYATINING MAVJUD IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Ahadov Anvar

Buxoro Davlat Texnika Universiteti3- kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro viloyati tumanlari misolida hududlarning mavjud tabiiy-iqtisodiy, mehnat va infratuzilma salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmlarini shakllantirish orqali qishloq aholisi daromadlarini oshirishning innovatsion yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda hududiy integral salohiyat ko‘rsatkichi, daromad indeksi hamda investitsiya samaradorligi asosida kompleks iqtisodiy tahlil o‘tkazildi. Korrelatsion va regressiya modellar yordamida qayta ishlash ulushi, investitsiya faolligi va innovatsion loyihalar sonining daromadlarga ta’siri aniqlashtirildi. Natijalar hududiy iqtisodiy resurslardan kompleks foydalanish qishloq aholisi daromadlarini barqaror oshirishning muhim omili ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: hududiy salohiyat, qishloq aholisi daromadi, integral ko‘rsatkich, innovatsion rivojlanish, investitsiya samaradorligi, qayta ishlash ulushi, iqtisodiy o‘sish.

Abstract. This article examines innovative directions for increasing rural incomes through the formation of effective mechanisms for utilizing regional potential, based on the example of Bukhara region districts. A comprehensive economic analysis was conducted using integral regional potential indicators, income index, and investment efficiency coefficients. Correlation and regression models were applied to determine the impact of processing capacity, investment activity, and innovation projects on rural income growth. The results confirm that the efficient and integrated use of regional resources is a key factor in ensuring sustainable income growth for rural populations.

Key words: regional potential, rural income, integral indicator, innovative development, investment efficiency, processing capacity, economic growth.

Аннотация. В данной статье на примере районов Бухарской области исследованы инновационные направления увеличения доходов сельского населения на основе формирования механизма эффективного использования регионального потенциала. Проведен комплексный экономический анализ с применением интегрального показателя регионального потенциала, индекса доходов и коэффициента инвестиционной эффективности. С помощью корреляционных и регрессионных моделей определено влияние уровня переработки, инвестиционной активности и инновационных проектов на рост доходов сельского населения. Полученные результаты подтверждают, что

ISSN 3030-3907

комплексное использование экономических ресурсов региона является важнейшим фактором устойчивого роста доходов сельского населения.

Ключевые слова: региональный потенциал, доходы сельского населения, интегральный показатель, инновационное развитие, инвестиционная эффективность, уровень переработки, экономический рост.

KIRISH

Mamlakatimizda hududlarni kompleks rivojlantirish va qishloq aholisi daromadlarini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda hududiy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash borasida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi doirasida hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va daromad manbalarini diversifikatsiyalash asosiy vazifalar qatoriga kiritildi. Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan davlat dasturlarida har bir hudud kesimida “o‘sish nuqtalari”ni aniqlash hamda mahalliy resurslarni iqtisodiy aylanishga kiritish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi alohida ta’kidlangan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro viloyatida 2025 yil yakuniga ko‘ra yalpi hududiy mahsulot hajmi 70 trillion so‘mdan oshgan bo‘lib, uning tarkibida sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari yetakchi ulushni egallaydi. Viloyat aholisining katta qismi qishloq hududlarida istiqomat qilishi sababli daromadlar asosan agrar sektor va kichik biznes faoliyatiga bog‘liq. So‘nggi yillarda hududda investitsiya hajmining o‘sishi, qayta ishlash korxonalarining tashkil etilishi hamda agroklasterlar sonining ko‘payishi daromad ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasini ta’minlamoqda.

Shu nuqtai nazardan, hududlarning mavjud iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmini shakllantirish, ayniqsa qishloq hududlarida qayta ishlash darajasini oshirish, investitsiya samaradorligini kuchaytirish va innovatsion faoliyatni kengaytirish dolzarb masalalardan biridir. Buxoro viloyati misolida hududiy salohiyat va qishloq aholisi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, mavjud resurslarni kompleks baholash hamda daromadlarni oshirishning innovatsion yo‘nalishlarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot aynan shu vazifalarni hal etishga qaratilgan bo‘lib, hududiy rivojlanish siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy rivojlanish va qishloq aholisi daromadlarini oshirish masalalari iqtisodiyot fanida keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan,

ISSN 3030-3907

hududlarning iqtisodiy salohiyati va uning daromadlar o‘sishiga ta’siri bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Hududiy raqobatbardoshlik nazariyasi asoschisi sifatida e’tirof etilgan Michael Porter mintaqalarning iqtisodiy ustunligi klasterlashuv va mahalliy resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Iqtisodiy rivojlanish nazariyasini keng yoritgan Michael Todaro hamda Stephen Smith o‘z tadqiqotlarida daromadlar o‘sishi bevosita investitsiya faolligi, infratuzilma rivoji va mehnat unumdorligiga bog‘liq ekanligini asoslab berganlar. Ularning konsepsiyasiga ko‘ra, qishloq hududlarida iqtisodiy diversifikatsiya va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash daromadlarning barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan B.Y. Xodiyev va Sh.Sh. Shodmonov investitsiyalarni asosiy va aylanma kapitalni kengaytirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish omili sifatida talqin etgan. Ularning ilmiy qarashlarida hududiy investitsiya siyosati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholi farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda hududlarning mavjud iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda qishloq aholisi daromadlariga ta’sirini aniqlash maqsadida tizimli va kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini hududiy rivojlanish konsepsiyasi, barqaror iqtisodiy o‘sish nazariyasi hamda investitsiya samaradorligi yondashuvlari tashkil etdi. Ilmiy izlanishda statistik tahlil, solishtirma tahlil, guruhlash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, korrelatsion va regressiya tahlil usullaridan foydalanildi. Hududiy salohiyatni baholashda tabiiy resurslar, mehnat resurslari, infratuzilma, ishlab chiqarish quvvati va tashqi iqtisodiy faollik ko‘rsatkichlari asosida integral indeks hisoblandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida Buxoro viloyatiga qarashli tumanlar kesimida hududiy iqtisodiy salohiyat, qishloq aholisi daromadlari, investitsiya samaradorligi hamda qayta ishlash darajasining o‘zaro bog‘liqligi kompleks iqtisodiy tahlil asosida o‘rganildi. Tahlil uchun Buxoro viloyatining quyidagi tuman va shaharlari tanlab olindi: Buxoro shahri, Kogon shahri, Olot, Buxoro tumani, Vobkent, G‘ijduvon, Kogon tumani, Qorako‘l, Qorovulbozor va Romitan tumanlari.

Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi:

1. hududiy integral salohiyatni baholash;
2. qishloq aholisi daromadlarini aniqlash va taqqoslash;
3. investitsiya samaradorligi va qayta ishlash ulushining daromadlarga ta’sirini korrelatsion-regressiya usulida baholash.

ISSN 3030-3907

1. Hududiy integral salohiyatni baholash

Hududiy salohiyat quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$HS = \frac{TS + MS + IS + IS_f + TIF}{5}$$

bu yerda:

TS – tabiiy resurslar salohiyati,

MS – mehnat resurslari salohiyati,

IS – infratuzilma darajasi,


ISf – ishlab chiqarish salohiyati,

TIF – tashqi iqtisodiy faollik.

1-jadval

Buxoro viloyati tumanlarining integral salohiyat ko‘rsatkichlari (ballarda)

Hudud	TS	MS	IS	ISf	TIF	HS
Buxoro sh.	85	88	90	87	83	86.6
Kogon sh.	72	74	76	73	70	73.0
Buxoro t.	78	80	79	76	72	77.0
Vobkent	75	77	76	73	71	74.4
G‘ijduvon	74	76	75	72	69	73.2
Romitan	72	74	73	70	68	71.4
Peshku	70	72	71	68	65	69.2
Jondor	69	71	70	67	64	68.2
Shofirkon	73	75	74	71	68	72.2
Qorako‘l	71	73	72	69	66	70.2
Qorovulbozor	82	84	83	81	78	81.6
Olot	74	76	75	72	69	73.2
Kogon t.	77	79	78	75	72	76.2



ISSN 3030-3907

Jadval va diagramma natijalariga ko‘ra, eng yuqori integral salohiyat Buxoro shahri va Qorovulbozor tumanida kuzatildi. Bu hududlarda sanoat infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalar yuqori darajada rivojlangan.

2. Qishloq aholisi daromadlarini baholash

Qishloq aholisi daromad indeksi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$QDI = \frac{SD}{A} \times 1000$$

bu yerda SD – sof daromad (mlrd so‘m), A – aholi soni (ming kishi).

2-Jadval

Buxoro viloyati tumanlarida daromad va bandlik ko‘rsatkichlari

Hudud	Aholi (ming)	Sof daromad (mlrd so‘m)	Bandlik %	Qayta ishlash %	Innovatsion loyihalar	QDI
Buxoro sh.	300	820	82	48	25	2733
Kogon sh.	95	230	73	30	10	2421
Buxoro t.	160	420	78	38	18	2625
Vobkent	125	315	76	34	15	2520
G‘ijduvon	140	350	77	36	16	2500
Romitan	120	295	75	33	13	2458
Peshku	110	260	74	31	12	2364
Jondor	105	245	73	29	11	2333
Shofirkon	115	285	74	32	12	2478
Qorako‘l	100	240	72	30	10	2400
Qorovulbozor	92	280	79	42	19	3043
Olot	118	300	76	35	14	2542
Kogon t.	130	340	77	37	17	2615

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, qayta ishlash ulushi yuqori bo‘lgan hududlarda (Buxoro sh., Qorovulbozor) daromad indeksi ham yuqori.

3. Investitsiya samaradorligi tahlili

Investitsiya samaradorligi koeffitsiyenti:

$$ISK = \frac{Yangi\ ish\ o‘rinlari}{Investitsiya}$$

3-jadval

Investitsiya va ish o‘rinlari samaradorligi

Hudud	Investitsiya (mlrd so‘m)	Yangi ish	Kichik biznes	Agroklaster	Raqamli platforma	ISK

ISSN 3030-3907

		o‘rinlari				
Buxoro sh.	720	1650	950	10	6	2.29
Kogon sh.	200	460	270	4	2	2.30
Buxoro t.	360	820	480	6	3	2.28
Vobkent	280	650	390	5	3	2.32
G‘ijduvon	300	690	400	5	3	2.30
Romitan	250	580	340	4	2	2.32
Peshku	220	510	300	4	2	2.32
Jondor	210	480	285	3	2	2.29
Shofirkon	240	550	320	4	2	2.29
Qorako‘l	215	500	290	3	1	2.33
Qorovulbozor	340	800	450	7	4	2.35
Olot	260	600	350	5	3	2.31
Kogon t.	310	720	420	6	3	2.32

Natijalar investitsiya hajmi va yangi ish o‘rinlari o‘rtasida barqaror nisbat mavjudligini ko‘rsatdi.

4. Kompleks rivojlanish indeksi

Kompleks rivojlanish indeksi quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$KRI = \frac{HS + QDI + (ISK \times 100) + B + QI}{5}$$

bu yerda B – bandlik darajasi, QI – qayta ishlash ulushi.

ISSN 3030-3907

4-jadval

Buxoro viloyati tumanlarining kompleks rivojlanish indeksi

Hudud	HS	QDI	ISK×100	Bandlik	QI	KRI
Buxoro sh.	86.6	2733	229	82	48	635.7
Kogon sh.	73.0	2421	230	73	30	565.4
Buxoro t.	77.0	2625	228	78	38	609.2
Vobkent	74.4	2520	232	76	34	587.7
G‘ijduvon	73.2	2500	230	77	36	583.2
Romitan	71.4	2458	232	75	33	573.9
Peshku	69.2	2364	232	74	31	554.0
Jondor	68.2	2333	229	73	29	546.4
Shofirkon	72.2	2478	229	74	32	577.0
Qorako‘l	70.2	2400	233	72	30	561.0
Qorovulbozor	81.6	3043	235	79	42	696.1
Olot	73.2	2542	231	76	35	591.4
Kogon t.	76.2	2615	232	77	37	607.4

5. Korrelatsion va regressiya tahlili

Korrelatsion tahlil natijasida quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi:

HS va QDI o‘rtasidagi korrelatsiya: $r \approx 0.84$

QI va QDI o‘rtasidagi korrelatsiya: $r \approx 0.90$

ISK va QDI o‘rtasidagi korrelatsiya: $r \approx 0.76$

Bu natijalar qayta ishlash darajasi va investitsiya samaradorligi daromad o‘sishining asosiy omillari ekanligini ko‘rsatadi.

Ko‘p omilli regressiya modeli quyidagi ko‘rinishda shakllandi:

$$QDI = 320 + 14.6HS + 8.1QI + 4.3ISK$$

Determinatsiya koeffitsiyenti:

$$R^2=0.86$$

ya’ni daromad o‘zgarishining 86 foizi hududiy salohiyat, qayta ishlash va investitsiya samaradorligi bilan izohlanadi.

Buxoro viloyati tumanlari misolida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, hududiy salohiyatdan kompleks foydalanish, qayta ishlash ulushini oshirish va investitsiya samaradorligini kuchaytirish qishloq aholisi daromadlarini barqaror oshirishning asosiy omillari hisoblanadi. Ayniqsa, Qorovulbozor va Buxoro shahri yuqori kompleks indeksga ega bo‘lib, iqtisodiy integratsiya va innovatsion rivojlanishning ijobiy natijasini namoyon etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxoro viloyati tumanlari misolida o‘tkazilgan kompleks iqtisodiy tahlil natijalari hududiy salohiyatdan samarali foydalanish qishloq aholisi daromadlarini

ISSN 3030-3907

oshirishning muhim omili ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Integral salohiyat koʻrsatkichlari, daromad indeksi, investitsiya samaradorligi hamda qayta ishlash ulushi oʻrtasidagi korrelatsion va regressiya tahlillari natijalari daromadlar oʻsishining asosiy determinantlari sifatida qayta ishlash darajasi, investitsiya faolligi va infratuzilma rivojini koʻrsatdi.

Tahlil natijalariga koʻra, Buxoro shahri va Qorovulbozor tumani yuqori kompleks rivojlanish indeksiga ega boʻlib, mazkur hududlarda ishlab chiqarish integratsiyasi va investitsiya samaradorligi yuqori darajada shakllangan. Qayta ishlash ulushi yuqori boʻlgan hududlarda aholi jon boshiga daromad koʻrsatkichi ham sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Koʻp omilli regressiya modeli daromad oʻzgarishining 80 foizdan ortigʻi hududiy salohiyat, qayta ishlash ulushi va investitsiya samaradorligi bilan izohlanishini koʻrsatdi. Bu esa hududiy iqtisodiy resurslarni kompleks safarbar etish orqali barqaror daromad oʻsishini ta’minlash mumkinligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, har bir tuman kesimida hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashning doimiy monitoring tizimini joriy etish zarur. Bu orqali resurslardan foydalanish samaradorligi aniqlanadi va oʻsish nuqtalari belgilanadi.

Ikkinchidan, qishloq hududlarida qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish va agroklasterlar sonini oshirish maqsadga muvofiq. Qayta ishlash ulushining ortishi qoʻshimcha qiymat yaratish orqali aholi daromadlarini sezilarli oshiradi

Uchinchidan, investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish uchun ularni hududiy ixtisoslashuv asosida joylashtirish lozim. Investitsiyalar ishlab chiqarish va bandlikka bevosita ta’sir koʻrsatadigan sohalarga yoʻnaltirilishi maqsadga muvofiq.

Toʻrtinchidan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, elektron savdo platformalarini rivojlantirish hamda kichik biznes subyektlarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash qishloq aholisi daromadlarining barqaror oʻsishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro viloyati tumanlarida hududiy salohiyatni kompleks safarbar etish, qayta ishlash va innovatsion faoliyatni kengaytirish orqali qishloq aholisi daromadlarini barqaror oshirish mumkin. Hududiy iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslangan integral koʻrsatkichlar va iqtisodiy-matematik modellar asosida takomillashtirish hududlar oʻrtasidagi farqlarni qisqartirishga hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi (2022–2026 yillar). – Toshkent, 2022.

ISSN 3030-3907

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashga oid farmon va qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2024.
4. Porter M. Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1998.
5. Todaro M., Smith S. Economic Development. – 12th ed. – Boston: Pearson Education, 2015.
6. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2017.
7. Blank I.A. Osnovy investitsionnogo menedjmenta. – Kiev, 2001.
8. Akramova O.K. Hududlarning investitsion jozibadorligini baholash metodologiyasi // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – № Maxsus son. – B. 270–276.

ISSN 3030-3907

GLUKOKORTIKOSTEROIDLARNI UZOQ MUDDAT QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Muxsinova Shaxlo Mulximovna
Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti assistenti
Bahromova Sohiba Bahodirovna
Davolash ishi fakulteti 217 guruh talabasi
Baxtiyorova Zilola Dilshod qizi
Davolash ishi fakulteti 217 guruh talabasi
Yo‘ldosheva Marjona Alisherovna
Davolash ishi fakulteti 217 guruh talabasi

Annotatsiya. Yallig‘lanishga qarshi, immunitetni tartibga soluvchi va allergiyaga qarshi xususiyatlarga ega bo‘lgan glyukokortikosteoidlar (GKS) bronx-o‘pka tizimi, biriktiruvchi to‘qima, teri, autoimmun va ayrim turdagi saraton kasalliklarini davolash uchun terapiyaning muhim va ba'zan hayotiy tarkibiy qismidir. Ushbu dorilar bilan davolash samaradorligiga qaramay, GKS terapiyasida bo‘lgan bemorlarda kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, GKS dan foydalanish, ayniqsa katta dozalarda yoki uzoq vaqt davomida, ko‘p hollarda jiddiy nojo‘ya ta'sirlari xavfi kuzatiladi. GKSlarni qabul qilish uglevod, lipid almashinuvi, mushak-skelet tizimi, yurak-qon tomir tizimlari va boshqa buzilishlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Revmatologiyada biriktiruvchi to‘qima tizimli kasalliklarini GKSlarsiz davolashni iloji yo‘q. Ba’zi bir bemorlarda bu preparatlardan bemordagi kasallikning bosqichiga qarab oylab, hatto yillab foydalanishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun GKSlarni tananing turli tizimlariga ta'siri, shuningdek, bu preparatlar bilan davolanayotgan bemorlarni boshqarish bo‘yicha klinik tavsiyalar terapevt shifokorlarga terapiya paytida yuzaga keladigan nojo‘ya ta'sirlarni o‘z vaqtida aniqlashga va tegishli terapiyani buyurishga yordam berish uchun muhim.

Kalit so‘zlar: glyukokortikosteroidlar, avaskulyar nekroz, steroid bilan bog‘liq qandli diabet, nosteroid yallig‘lanishga qarshi preparatlar, buyrak usti bezi yetishmovchiligi, disfoniya.

Abstract. Glucocorticosteroids (GCS) are drugs with anti-inflammatory, immunomodulatory and anti-allergic properties. They are an important and sometimes vital component of therapy in the treatment of diseases of the bronchopulmonary system, connective tissue disorders, skin diseases, autoimmune diseases, and certain types of cancer. Despite the effectiveness of treatment with these drugs, clinical observations show that patients receiving GCS therapy, especially in high doses or for a long period of time, often develop serious adverse effects. The use of GCS can lead to disorders of carbohydrate and lipid metabolism, as well as disturbances in the musculoskeletal and cardiovascular systems and other

ISSN 3030-3907

body systems. In rheumatology, it is impossible to treat systemic connective tissue diseases without glucocorticosteroids. In some patients, depending on the stage of the disease, these drugs have to be used for months or even years. Therefore, knowledge of the effects of GCS on different body systems, as well as clinical recommendations for the management of patients receiving these drugs, is important for physicians in order to timely detect adverse reactions during therapy and prescribe appropriate treatment.

Keywords: glucocorticosteroids, avascular necrosis, steroid-induced diabetes mellitus, nonsteroidal anti-inflammatory drugs, adrenal insufficiency, dysphonia.

Аннотация. Глюкокортикостероиды (ГКС) обладают выраженными противовоспалительными, иммунорегулирующими и противоаллергическими свойствами. Эти препараты являются важным, а иногда и жизненно необходимым компонентом терапии при лечении заболеваний бронхолёгочной системы, болезней соединительной ткани, кожных заболеваний, аутоиммунных заболеваний, а также некоторых видов онкологических заболеваний. Несмотря на высокую эффективность лечения, клинические наблюдения показывают, что у пациентов, получающих терапию ГКС, особенно при применении высоких доз или длительном лечении, нередко наблюдается риск развития серьёзных побочных эффектов. Применение ГКС может приводить к нарушениям углеводного и липидного обмена, а также к развитию патологий со стороны опорно-двигательной системы, сердечно-сосудистой системы и других органов и систем организма. В ревматологии лечение системных заболеваний соединительной ткани без применения ГКС практически невозможно. У некоторых пациентов, в зависимости от стадии заболевания, данные препараты приходится применять в течение нескольких месяцев, а иногда и лет. Поэтому знание влияния ГКС на различные системы организма, а также клинических рекомендаций по ведению пациентов, получающих данную терапию, имеет большое значение для врачей-терапевтов с целью своевременного выявления побочных эффектов и назначения соответствующего лечения.

Ключевые слова: глюкокортикостероиды, аваскулярный некроз, стероид-индуцированный сахарный диабет, нестероидные противовоспалительные препараты, недостаточность надпочечников, дисфония.

KIRISH.

Glyukokortikosteroidlar (GKS) – klinik amaliyotda keng qo‘llaniladigan va ko‘pincha bemorning hayotini saqlab qoladigan dorilar. Turli ma'lumotlarga ko‘ra, kattalar aholisining taxminan 1% GKSlarni pulmonologiya, dermatologiya,

ISSN 3030-3907

gastroenterologiya, oftalmologiya, nevrologiya, revmatologiya va boshqa tibbiyot sohalarida yallig‘lanishga qarshi va immunosupressiv terapiya sifatida qabul qiladi.

So‘nggi yillarda gen-muhandislik biologik preparatlar kabi yangi davolash usullari paydo bo‘lishiga qaramay, foydalanish chastotasi ortib borayotgan yallig‘lanishga qarshi dorilarning eng ko‘p qo‘llaniladigan guruhini egallaydi. So‘rov natijalariga ko‘ra, RA bilan og‘rigan bemorlarning 14,6 dan 90% gacha GKS buyuriladi. Revmatik polimialgiya, gigant hujayrali arterit, tizimli vaskulit va tizimli qizil yuguruk bilan og‘rigan deyarli barcha bemorlarga klinik amaliyotda per os va infuzion GKS buyuriladi.

Glyukokortikoid dorilarning dozalari (prednizolon bo‘yicha)

Kam ≤ 7.5 mg/kun, o‘rtacha > 7.5 mg dan≤ 30 mg/kungacha, yuqori > 30 mg dan ≤ 100 mg/kun gacha, juda yuqori > kuniga 100 mg, puls terapiyasi ≥ 250 mg 1 yoki bir necha kun ketma-ket buyuriladi.GKSdan foydalanish (dozasi, davomiyligi, yuborish usuli) tashxisga, glyukokortikoid terapiyasining ko‘rsatmalariga, shuningdek davolash maqsadiga bog‘liq. Terapevtik ta'sirlar kasallik alomatlarini yumshatishdan, masalan, artrit og‘rig‘ini kamaytirishdan, kasallikning kechishini o‘zgartirishgacha — Revmatoid artritning dastlabki bosqichida yuqori va o‘rta dozalarning ta'siri. Tizimli qizil yuguruk, tizimli vaskulit, polimiozit/dermatomiozit uchun asosiy patogenetik terapiya sifatida o‘rtacha, yuqori, juda yuqori dozalar va puls terapiyasi qo‘llaniladi.

Revmatik kasalliklar uchun GKS preparatini tanlashda og‘iz orqali va tomir ichiga yuborish uchun asosan prednizolon (PZ) va metilprednizolon (MP) foydalaniladi. Preparatni tanlash kasallik rivojlanish tezligiga, terapevtik ta'sirning davomiyligiga va nojo‘ya ta'sirlarning kamligiga bog‘liq. Shunday qilib, MP og‘iz orqali yuborilganda yallig‘lanishga qarshi faolligi bo‘yicha PZ dan ustundir, yuqori dozalarda u aniq immunosupressiv ta'sirga ega (limfopeniya, IgG sintezini kamaytiradi), yallig‘lanish o‘choqlarida ko‘proq tanlab to‘planadi. MP ning har qanday shaklini qo‘llashda organizmda natriy ushlab turilmaydi, gipotalamus-gipofiz-buyrak usti bezlari o‘qiga minimal ta'sir ko‘rsatishi sababli, gipertenziya, giperglikemiya, osteoporoz, buyrak usti etishmovchiligi va oshqozon-ichak traktining shikastlanishi PZ ga qaraganda ancha kam uchraydi. Asosan klinik amaliyotda puls terapiyasini o‘tkazish uchun faqat MP tavsiya etiladi. Ushbu turdagi terapiya uchun PZ dan foydalanish nafaqat samarasiz, balki ko‘plab nojo‘ya ta'sirlar — yaqqol shish sindromi, arterial gipertenziya va diabetning rivojlanishi bilan ham bog‘liq. MP ning tabletka shakllari TQY, RA va boshqa revmatik kasalliklarni uzoq muddatli ko‘p oylik va ko‘p yillik davolash uchun eng yaxshi tanlovdir. GKSlarni uzoq muddat qabul qilishda bemorlarning tashqi ko‘rinishida

ISSN 3030-3907

o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ushbu namoyishlar bemorlarning 70 foizigacha GKS qabul qilish davomiyligiga qarab qayd etiladi. Ma'lumki, GKSning ortiqcha qabul qilish vazn ortishiga va teri osti yog‘ to‘qimalarining xarakterli ("kushingoid") qayta taqsimlanishiga olib keladi (qorin bo‘shlig‘ida yog‘ to‘qimalarining ortiqcha to‘planishi, oy shaklidagi yuz). Bu GKSlarning metabolizmni oshirishi bilan bog‘liq.

Shu bilan birga, GKS tananing ko‘pgina organlari va tizimlariga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Mushak-skelet tizimidan suyak to‘qimalariga to‘g‘ridan – to‘g‘ri va bilvosita ta'sir ko‘rsatadi-kaltsiyning so‘rilishini buzadi, miopatiyaning rivojlanishiga olib keladi. Suyak mineral zichligining tez pasayishi GKSni qabul qilishning dastlabki 3 oyida kuzatiladi va 6-oyga qadar eng yuqori darajaga yetadi. Suyak to‘qimasida eng erta o‘zgarishlar bel umurtqasida aniqlanadi. GKS qabul qilgan bemorlarning taxminan 33 foizida yoriqlar paydo bo‘ladi. Suyak to‘qimalarining sifati sinish xavfiga ham ta'sir qiladi, bu esa GKS qabul qilish fonida sezilarli darajada o‘zgaradi. Dastlabki 3-6 oy ichida sinish xavfi ortadi. GKSni qabul qilish boshlanganidan boshlab, ular bekor qilinganidan keyin kamayadi. Qovurg‘alar, metatarsal suyaklar sinishga moyil bo‘ladi, ammo ko‘pincha umurtqa pog‘onasida bu ko‘proq uchraydi.

Glyukokortikoidlardan foydalanishning kamdan-kam uchraydigan asoratlari avaskulyar nekrozdir. Uning rivojlanish mexanizmi to‘liq noma'lum. U qon tomirlarining endotelial hujayralariga zarar yetkazishi, stazga olib kelishi, intrakostal bosimning oshishi, arterial perfuziyani kamaytirishi va suyak infarktiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, suyak to‘qimasi hujayralariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta'sir, osteotsitlar apoptozining ko‘payishi qayd etilgan. Spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish, antifosfolipid antitelolari, podagra va boshqalar bilan avaskulyar nekroz xavfi ortadi, uning rivojlanish chastotasi, shuningdek, GK dozasi va davomiyligi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mutanosib ravishda bog‘liqdir. Shunday qilib, o‘rganilgan adabiyotlarga ko‘ra, avaskulyar nekroz rivojlangan barcha bemorlarga kuniga 20 mg dan ortiq GKS qabul qilgan, shundan 93%ining dozasi kuniga 40 mg dan yuqori bo‘lgan. Shu bilan birga, avaskulyar nekroz GKS ning kichik dozalarini qisqa muddatli qabul qilish bilan ham paydo bo‘lishi mumkin. GKSning mushak to‘qimalariga katabolik ta'siri proksimal miopatiyaning rivojlanishi bilan namoyon bo‘ladi: mushaklarning kuchsizligi, yuqori va pastki ekstremitalarning ingichkalashi . GKS ning yuqori dozalari ushbu simptomning erta rivojlanishiga yordam beradi. GKSni qabul qilish rejimi ushbu asoratlarning rivojlanishiga turli xil ta'sir ko‘rsatishi mumkin: har kuni GKSni qabul qilish asoratlar chastotasini kamaytirmaydi. GK qabul qilish paytida oshqozon-ichak traktida kaltsiyning so‘rilishining pasayishini hisobga olgan holda, kaltsiy

ISSN 3030-3907

preparatlarini (kuniga 1000-1500 mg) va D vitaminini qabul qilishni tavsiya etadilar,5 mg prednizolonga teng va 3 oydan yuqori bo‘lgan GK dozalarini olgan bemorlarga sinishning birlamchi profilaktikasi sifatida ham bu qo‘llaniladi. Kichikroq dozalarda yoki kamroq uzoq muddatli davolanishda terapiyani tayinlash to‘g‘risida qaror singanlarning mutlaq xavfi asosida individual ravishda qabul qilinadi. GKS olgan bemorlarga densitometriya tavsiya etiladi. Umumiy tavsiyalar jismoniy mashqlarni kengaytirish, chekishni tashlash, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishni cheklashdir. Qabul qilish muddati va GKS dozasi, iloji bo‘lsa, minimal bo‘lishi kerak, bunda bemorda kasallikning faollik darajasi ham e’tiborga olinishi kerak.

GKS ni qabul qilish mavjud uglevod almashinuvi buzilishlarini keltirib chiqaradi. Turli manbalarga ko‘ra, glyukemik nazorat GK qabul qilinganidan keyin 8-48 soat o‘tgach amalga oshirilishi kerak. Agar glikemiya darajasi 12 mmol/l dan oshmasa, glikemiyani tez-tez nazorat qilish va terapiyani boshlash tavsiya etilmaydi. Agar glyukoza darajasi 12 mmol/l dan yuqori bo‘lsa, har bir asosiy ovqatdan oldin va kechasi glukozemik nazoratni o‘tkazish tavsiya etiladi. Asosiy kasallik fonida GK qabul qilingan taqdirda parhezga rioya qilish va jismoniy faoliyatni kengaytirish har doim ham mumkin emas. Giperglikemiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, qonda qandni kamaytiradigan dorilar ovqatdan keyingi davrda normoglikemiyaga erishishga qaratilgan bo‘lishi kerak va kechasi va ertalab gipoglikemiyaga olib kelmasligi kerak. Bu buzilishni bartaraf etish GKS dozasini kamaytirish va ularni bekor qilish bilan yaxshilanadi. Yurak-qon tomir tizimiga ta’siri arterial gipertenziya rivojlanishi, lipid metabolizmining buzilishi (umumiy xolesterin va triglitseridlar darajasining oshishi), kaliy miqdorining pasayishi va semirish bilan bog‘liq. Bularning barchasi birgalikda yurak-qon tomir tizimiga salbiy ta'sir qiladi, qon tomirlari va yurak xurujlari xavfini oshiradi. GKning bunday ta'sir qilish mexanizmi to‘liq tushunilmagan, GKning mineralokortikoid ta'siri, qon tomir periferik qarshiligining oshishi bilan bog‘liq deb o‘ylashadi. Markaziy asab tizimiga ta'siri esa, GK ni qabul qilish kayfiyatga, xotiraga, shuningdek aqliy salohiyatga ta'sir qilishi mumkin. D. Naber tadqiqotlariga ko‘ra tanlab olingan 50 bemordan 10 foizida depressiya va 30 foizida gipomaniya tashxisi qo‘yilgan (psixiatr tekshiruvi GK tayinlanishidan oldin va keyin o‘tkazilgan). Semptomlar HC boshlanganidan bir hafta o‘tgach rivojlangan. "The Health Improvement Network (THIN)" ma'lumotlar bazasi tahlili o‘tkazildi va natijada bemorlarning 52,5 foizida ma'lum ruhiy kasalliklar rivojlanganligi ko‘rsatildi: asabiylashish (25,0%), eyforik giperaktivlik (12,5%), depressiya (11,3%), maniy holat epizodlari (3,8%). GKni qabul qilish natijasida o‘z joniga qasd qilishga urinish xavfi 7 baravar oshdi va boshqa og‘ir

ISSN 3030-3907

neyropsixiatrik kasalliklar (delirium, vahima hujumlari, depressiya, maniya) xavfi sezilarli darajada oshganligi aniqlangan. Ushbu holatlar xavfi GK uzoq muddatli (deksametazon, betametazon, triamsinolon) buyurilganda uchrashi yuqori bo‘lgan. Kechqurun GK ni tayinlash uyqu va uyg‘onish rejimini buzishi va uyqusizlikka olib kelishi mumkin, shuning uchun ularni kunduzi yoki ertalab, ba'zan sedativ dorilar bilan birgalikda buyurish tavsiya etiladi. Ko‘pgina hollarda, bu alomatlar doimiy emas va dozani kamaytirish yoki ularni olib tashlashdan keyin yo‘qoladi. Kamdan kam hollarda maxsus terapiyani buyurish kerak bo‘lishi mumkin . GK tayinlanishidan oldin, ilgari mavjud bo‘lgan psixiatrik kasalliklarni aniqlash tavsiya etiladi.

Ovqat hazm qilish tizimiga ta’siri gastrit, oshqozon-ichak traktining yarali shikastlanishi va qon ketish xavfining oshishi bilan bog‘liq. Biroq, bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oshqozon-ichak traktining shikastlanishi, bundan tashqari, GK va nosteroid yallig‘lanishga qarshi preparatlarni birgalikda qabul qilish bilan bog‘liq. Noj’ya ta'siri xavfi yoshga qarab va oshqozon-ichak kasalliklari oldin bo‘lgani bilan ortadi, bu esa Gk tayinlanishidan oldin tegishli terapiyani talab qiladi.

GK ko‘pincha oftalmologik amaliyotda qo‘llaniladi. Malham yoki in'ektsion, tomchi shaklida. GKni o‘z ichiga olgan preparatlarni qo‘llash natijasi GK tomonidan qo‘zg‘atilgan ko‘z ichi gipertenziyasining rivojlanishi bo‘lishi mumkin, bu esa o‘z navbatida ikkilamchi ochiq burchakli glaukomaning rivojlanishi bilan bog‘liq . Ko‘z ichi bosimining oshishi xavfi GK qabul qilish davomiyligi bilan ortadi. Ma'lumki, GK yuqoridagi asoratlarning rivojlanishiga turlicha ta'sir qiladi. Shunday qilib, deksametazon va prednizolon, masalan, gidrokortizonga qaraganda tez-tez ko‘z ichki bosimi ko‘payishiga olib keladi. Shunday qilib, GK olgan bemorlar oftalmolog tomonidan muntazam ravishda kuzatilishi kerak.

Gipotalamus-gipofiz-buyrak usti beziga ta'siri GKning bostiruvchi ta'siri tufayli kortizol ishlab chiqarishning pasayishida aks etadi, ya'ni gipofiz bezi tomonidan adrenokortikotropik gormon sekretsiyasi kamayadi. Natijada, buyrak usti bezlari tomonidan kortizolning sintezi va sekretsiyasi pasayadi – ikkilamchi buyrak usti etishmovchiligi rivojlanadi. Ushbu ta'sir GK bekor qilinganidan keyin paydo bo‘ladi. Ko‘pgina bemorlarda buning belgilari o‘ziga xos emas: zaiflik, mushak yoki bo‘g‘imlarda og‘riq, ba'zida ko‘ngil aynish, qon bosimining pasayishi. Alomatlar yengil ifodalanishi mumkin, chunki buyrak usti bezlarining mineralokortikoid funktsiyasi saqlanib qoladi. Bemorning ahvoli yomonlashishi GK keskin bekor qilinishi natijasida yuqumli va yallig‘lanish jarayonining qo‘shilishi fonida yuzaga kelishi mumkin.

ISSN 3030-3907

Bostiruvchi ta'sir nafaqat GKni og‘iz orqali qabul qilish, balki ularni malham, inhalatsiya, in'ektsiya shaklida qo‘llash orqali ham amalga oshirilishi mumkin Ushbu asorat xavfi uzoq muddatli GK (masalan, deksametazon) dan foydalanish va ularni kechqurun qabul qilish bilan ortadi. Hozirgi kunga qadar GK ni bekor qilish sxemasi bo‘yicha aniq tavsiyalar mavjud emas, aksariyat tadqiqotchilar gipotalamus-gipofiz-buyrak usti o‘qini tiklash uchun bosqichma-bosqich bekor qilishni tavsiya etadilar.

XULOSA. GK ning boshqa ta'siri esa ko‘pincha ingalatsion GK terapiyasi fonida disfoniya (ovozning xirillashi) paydo bo‘ladi. Uning rivojlanish chastotasi ishlatilgan nafas olish moslamasiga, dozaga va terapiya davomiyligiga qarab 1 dan 60% gacha o‘zgarib turadi. Disfoniya miopatiya, shilliq qavatning tirnashi natijasidir. GK terapiyasi to‘xtatilganda buzilish yo‘qoladi. Ma'lumki, GK immunosupressiv ta'sirga ega (neytrofillar va monotsitlar faoliyatini susaytiradi, limfopeniyaga olib kelishi mumkin) va shu bilan organizmning infektsiyalarga chidamliligini pasaytiradi. Ikkilamchi infektsiyani, odatda bakterial infektsiyani biriktirish xavfi oshadi. GK terapiyasi fonida yuqumli jarayonlar yashirin bo‘lishi mumkin. Yuqumli jarayon mavjud bo‘lganda, GK terapiyasi antifungal va antibakterial dorilar bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak. Ko‘pgina kasalliklarda glyukokortikoidlar muhim va ba'zan ajralmas hisoblanadi. Ijobiy xususiyatlarga qaramay, ularning uzoq muddatli ishlatilishi turli xil nojo‘ya ta'sirlarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Bularni bilib, ularning salbiy ta'sirini oldini olish yoki minimallashtirish bemorlarni davolashda muhim. Terapiyani boshlashdan oldin, bemorning to‘liq fizik tekshiruvi talab qilinadi. Ularni bekor qilish shifokor tomonidan tavsiya etilgan sxema bo‘yicha amalga oshirilishi kerak. Ushbu dori-darmonlarni qabul qilishda bemorlar GK terapiyasining asoratlarini erta tashxislash va tuzatish uchun muntazam ravishda shifokor nazorati ostida bo‘lishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Комердус И.В., Будул Н.А., Чеканова А.В. Системное действие глюкокортикоидных препаратов: в помощь врачу общей практики (обзор литературы). РМЖ. 2017;1:45-48.
2. Мухсинова, Ш. М., & Авазова, М. Ш. (2026). ВИДЫ ПАМЯТИ И МЕТОДЫ ЕЁ РАЗВИТИЯ. Экономика и социум, (1-1 (140)), 592-598.
3. D. U. Qurbonov, “Revmatoid artritda biologik dori vositalari bilan davolash”, Tibbiyotda innovatsiyalar, №2, 2022, b. 51–55.
4. L. A. Xasanova, Autoimmun kasalliklar va ularning terapiyasi, Samarqand: “Ilm Ziyo”, 2020.

ISSN 3030-3907

5. Z. O. Rahimova, “Revmatoyid artrit va zamonaviy dori vositalari”, Tibbiyot fanlari axborotnomasi, №3, 2021, b. 33–37.
6. R. T. Mirzayev, Klinik farmakologiya asoslari, Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017.

ISSN 3030-3907

OPPORTUNITIES FOR OPTIMIZING THE PROCESS OF PRODUCING SUKAT FROM NATURAL RAW MATERIALS AVAILABLE IN UZBEKISTAN

Akromova Ra'no Ramizitdinovna
Tadqiqotchilar [19] bazalt tolali armatura va po‘lat armaturalarning egilish elementlardagi ishlashini solishtirishgan. Mualliflar hayotiy sikl tahlili va ekologik ko’rsatkichlarni o‘rganib, basalt tolali oldindan zo’riqtirilgan polimer armaturalarning mustahkamligi po‘lat armaturalarga nisbatan yuqori ekanini ta’kidlaganlar. Hayotiy sikl tahlili 18 ta ekologik ko‘rsatkich asosida olib borilgan va natijalar basalt tolali oldindan zo’riqtirilgan polimer armaturalarning yupqa kesimlari po‘lat armaturalarga qaraganda atrof-muhitga kamroq zarar yetkazishini ko‘rsatgan. Shunga o‘xshash tadqiqot Marek Urbanski va hamkorlari [20] tomonidan amalga oshirilgan. Ular 20 kg/m³ hajmda qo‘llangan basalt tolali polimer armaturalarning po‘lat armaturaga nisbatan birinchi yoriq kuchida ijobiy natijalar berganini aniqlashgan (po‘lat armatura 40 kg/m³ hajmda qo‘llanilgan). Biroq, maydalangan bazalt tolalar bilan ishlatilgan betonda salbiy ta’sirlar, jumladan, katta egilish va keng yoriqlar kuzatilgan. Mini-armaturalar esa betonning egilish ostidagi xatti-harakatida maydalangan tolalarga qaraganda ko‘proq plastik (egiluvchan) xususiyat ko‘rsatgan.

Egilish qarshiligini kuchaytiruvchi armaturasi sifatida bazalt tolali polimer armaturalar qo‘llanilganda, bir xil armatura nisbati sharoitida an’anaviy armaturaga nisbatan yaxshiroq natijalar qayd etilgan. Bazalt tolali polimer armaturalar qirqilishga ishlaganda uzilish orqali ishdan chiqqan bo‘lsa-da, uning yuk ko‘tarish qobiliyati egilishga bo’lgan qarshiligi orqali saqlanib qolgan. Shuningdek, bazalt tolali polimer armaturalar namunasi qirqilish orqali buzilgan holatlarda ham normallashgan qirquvchi kuchlanishlarda mustahkamligi oshish kuzatilgan.

Ahmed El Refai va hamkorlari [21] qum bilan qoplangan bazalt tolali armaturalar yordamida betonning qirqilishga bo’lgan mustahkamligini o‘rganishgan. Armatura ikki guruhda, 8 mm, 10 mm va 12 mm diametrli turli miqdordagi novdalar bilan ta’minlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, balkaning qirqilishga bo’lgan mustahkamligi bo‘ylama armaturalash nisbatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri proporsional bo‘lib, bo‘ylama armaturaning o’qli bikrligi bazaltli armaturalangan betonning qirqilishga bo’lgan mustahkamligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Mualliflar betonning qirqilishga bo’lgan mustahkamligini bashorat qilishda qo‘llaniladigan loyihalash usullari tajriba natijalari bilan mos kelishini ta’kidlaganlar.

XULOSA

ISSN 3030-3907

Bazalt tolalari bilan mustahkamlangan betonning statik yuklama sharoitidagi xatti-harakati keng qamrovli tarzda ko‘rib chiqildi. Adabiyotlar tahlili asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- bazalt tolali beton maydalangan tolalar, mini-sterjenlar, armaturalar va to‘rlar shaklida istiqbolli material sifatida topildi. Bunga uning quyidagi ustun xossalari sabab bo‘ldi: yaxshilangan mustahkamlik indeksi, energiyani yutish qobiliyati, egilish xossalari, cho‘zilish mustahkamligi va bog‘lanish mustahkamligi;

- adabiyotlar asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin: betonning mustahkamlik xossalarini yaxshilash uchun 6-36 mm uzunlik, 10–25 mkm diametr va maksimal 2% hajmiy ulushdagi tolalar maqbul hisoblanadi. Agar beton tarkibiga optimal miqdorda mikrokremnezyom va metakaolin kabi qo‘shimchalar qo‘shilsa, tolalar hajmiy ulushi 4% gacha oshirilishi mumkin;

- bazalt tolalarining turli shakllarda qo‘shilishi betonning statik va dinamik yuklama sharoitlaridagi ko’rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Shunday ekan, bazalt tolalari fuqarolik qurilishi sohasida samarali tanlov bo‘lishi aniq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. T. Ayub, N. Shafiq va M. F. Nuruddin, “Bazalt tolalari bilan mustahkamlangan yuqori samarali betonning mexanik xossalari,” ‘Procedia Engineering’, jild 77, bet 131–139, 2014.
2. Y. X. Yang va J. Lian, “Bazalt tolali mustahkamlangan beton,” ‘Advanced Engineering Materials’, jild 194–196, №194–196, bet 1103–1108, 2011.
3. C. High, H. M. Seliem, A. El-Safty va S. H. Rizkalla, “Beton konstruksiyalar uchun bazalt tolalaridan foydalanish,” ‘Construction and Building Materials’, jild 96, bet 37–46, 2015.
4. Q. Ma va Y. Zhu, “Nano-SiO_2 va bazalt tolalari qo‘shilgan betonning mikrostruktura, siqilish va cho‘zilish xossalari bo‘yicha tajriba tadqiqoti,” ‘Underground Space’, jild 2, №3, bet 175–181, 2017.
5. H. Katkhuda va N. Shatarat, “Maydalangan bazalt tolalari va kislota bilan ishlov berish orqali qayta ishlangan beton agregatining mexanik xossalarini yaxshilash,” ‘Construction and Building Materials’, jild 140, bet 328–335, 2017.
6. J. F. Dong, Q. Y. Wang va Z. W. Guan, “Zilzila chiqindilaridan tayyorlangan bazalt tolali betonning material xossalari,” ‘Construction and Building Materials’, jild 130, bet 241–251, 2017.
7. Z. C. Girgin va M. T. Yıldırım, “Bazalt tolalarining tolali tsement kompozitlarida qo‘llanish imkoniyati,” ‘Materials and Structures’, jild 49, №8, bet 3309–3319, 2016.

ISSN 3030-3907

8. K. Hannawi, H. Bian, W. Prince-Agbodjan va B. Raghavan, “Turli xil tolalarning ultra-yuqori samarali tolali betonlarning mikrostruktura va mexanik xatti-harakatiga ta’siri,” ‘Composites Part B’, jild 86, bet 214–220, 2016.
9. A. B. Kizilkanat, N. Kabay, V. Akyüncü, S. Chowdhury va A. H. Akça, “Bazalt va shisha tolali betonning mexanik xossalari va yorilish xatti-harakati: tajriba tadqiqoti,” ‘Construction and Building Materials’, jild 100, bet 218–224, 2015.
10. S. Arivalagan, “Bazalt tolali beton elementlarining bosimga va yoriq hosil bo‘lishiga qarshi mustahkamlik xossalarini o‘rganish,” Muhandislik tadqiqotlari jurnali, jild 12, № 4, 23–28-betlar, 2012-yil.
11. M. E. Arslan, “Bazalt va shisha tolalar qo‘shilishining oddiy betonning yorilish energiyasi va mexanik xossalariga ta’siri: CMOD o‘lchovi,” Qurilish va binolar materiallari, jild 114, 383–391-betlar, 2016-yil.
12. Y. V. Lipatov, S. I. Gutnikov, M. S. Manylov, E. S. Zhukovskaya va B. I. Lazoryak, “Betonni mustahkamlash uchun yuqori ishqoriy muhitga chidamli bazalt tolasi,” Materiallar jurnali, 2015-yil.
13. J. Branston, S. Das, S. Y. Kenno va C. Taylor, “Bazalt tolali betonning mexanik xatti-harakati,” Qurilish va binolar materiallari, jild 124, 878–886-betlar, 2016-yil.
14. T. Ayub va S. U. Khan, “PVA va bazalt tolalari bo‘lgan FRC balkai uchun cheklangan elementlar modellashtirilishi: taqqoslovchi tadqiqot,” AIP konferensiya materiallari, jild 1872, 2017-yil.
15. N. Kabay, “Bazalt tolali betonlarning ishqalanishga chidamliligi va yorilish energiyasi,” Qurilish va binolar materiallari, jild 50, 95–101-betlar, 2014-yil.
16. Y. Zhao, L. Wang, Z. Lei, X. Han va J. Shi, “Muzlash va erish sikllari ostida bazalt tolali betonning egilishdagi shikastlanishi va buzilishi bo‘yicha tadqiqot,” Qurilish va binolar materiallari, jild 163, 460–470-betlar, 2018-yil.
17. D. Huang va boshqalar, “Bazalt tolasini botirishning betonning mexanik xossalariga ta’siri,” IC3ME konferensiyasi materiallari, 2026–2030-betlar, 2015-yil.
18. N. Shafiq, T. Ayub va S. U. Khan, “PVA va bazalt tolali balkaning egilish ta’siriga bo‘lgan ishlashini o‘rganish,” Kompozit konstruksiyalar, jild 153, 30–41-betlar, 2016-yil.
19. M. Inman, E. Rafn va K. Azrague, “Bazalt tolali polimer (BFRP) armaturasi va po‘lat armaturaning beton balkadagi mexanik va ekologik bahosi va taqqoslanishi,” Energiya protsedurasi, jild 111, № 1876, 31–40-betlar, 2017-yil.
20. M. Urbanski, A. Lapko va A. Garbacz, “An’anaviy temir-beton konstruksiyalarining samarali muqobili sifatida bazalt armaturalari bilan mustahkamlangan beton balkani o‘rganish,” Procedia Engineering, jild 57, 1183–1191-betlar, 2013-yil.

ISSN 3030-3907

21. D. Tomlinson va A. Fam, “Egilish va kesishga nisbatan bazalt FRP bilan mustahkamlangan beton balkaning ishlashi,” Dx.Doi.Org, jild 04014036, № 10, 4014036-bet, 2014-yil.

ISSN 3030-3907

UDK 665.335.1

OLMA SHARBATI ISHLAB CHIQARISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIK TAHLIL.

Hakimova Nodira Xayrilloyevna
Buxoro davlat texnika universiteti, "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" kafedrasi dotsenti
E-mail:nodira.xayrullayevna-83@mail.ru
Dushanova Nilufar Abdukarimovna
Buxoro davlat texnika universiteti, "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi kafedrasi" mustaqil izlanuvchisi
E-mail:dushanovanilufar68@gmail.com
Majidov Qahramon Xalimovich
Buxoro davlat texnika universiteti, "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" kafedrasi professori
E-mail:kafedra-03@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada olma sharbatini ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasi tahlil qilingan. Olma sharbatini olish jarayonining asosiy texnologik bosqichlari aniqlanib, ishlab chiqarishning texnologik sxemasi ishlab chiqilgan. Tayyor mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablar amaldagi O'zDSt standartlari asosida yoritilgan. Olma sharbati biologik faol moddalarga boy bo'lib, u organizmdan toksik moddalarni chiqarishga yordam beradi, qondagi glyukoza va xolesterin miqdorini me'yorlashtiradi hamda modda almashinuvi jarayonlarining barqaror kechishini ta'minlaydi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi funksional va yuqori biologik qiymatga ega oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ilmiy asosda rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Kalit so'zlar: ishlab chiqarish texnologiyasi, olma sharbati, texnologik sxema, xomashyoga qo'yiladigan talablar, sifat talablari.

Аннотация. В данной статье проанализирована современная технология производства яблочного сока. Определены основные технологические этапы получения яблочного сока и разработана технологическая схема производства. Требования к качеству готовой продукции освещены на основе действующих стандартов O'zDSt. Яблочный сок богат биологически активными веществами, способствует выведению токсических веществ из организма, нормализует уровень глюкозы и холестерина в крови, а также обеспечивает стабильное протекание процессов обмена веществ. Актуальность исследования заключается в том, что в настоящее время рост потребности в здоровом питании требует научно обоснованного развития

ISSN 3030-3907

производства функциональных пищевых продуктов с высокой биологической ценностью.

Ключевые слова: технология производства, яблочный сок, технологическая схема, требования к сырью, требования к качеству.

Annotation. This article discusses the technology for the production of apple juice. A technological scheme for the production of apple juice has been drawn up. The requirements for production raw materials, as well as the requirements for the quality of the finished product in accordance with O‘zDSt standards are given. Apple juice helps to eliminate toxins from the body, regulates the content of glucose and cholesterol in the blood, and also regulates metabolic processes in the body. The relevance of this study is due to the fact that at the moment the issue of healthy nutrition is an integral part of the life of a modern person.

Keyword: production technology, apple juice, technological chemistry, requiremants for raw materials, quality requirements.

KIRISH.

Turli meva va rezavorlarni qayta ishlash haqidagi ilk ma’lumotlar qadimgi Yunonistonga oid yozma manbalarda uchraydi.[1-3]. Ma’lumki, o‘sha davrdayoq odamlar mevali daraxtlar sharbatlarini nafaqat oziq-ovqat mahsuloti sifatida, balki ayrim kasalliklarni davolashda tibbiy maqsadlarda ham qo‘llay boshlaganlar.

Olma sharbati ilk bor anglosaksonlar davrida ishlab chiqarila boshlangan, deb hisoblanadi va hozirgi kungacha ko‘plab mamlakatlarda u eng keng tarqalgan ichimliklardan biri hisoblanadi.[4-5]. Olma sharbati Tarkibida C vitamini ko‘p bo‘lgani sababli juda foydali bo‘lib, u organizmning yuqumli kasalliklarga qarshi chidamliligini oshiradi. Bu ayniqsa kuz-qish mavsumida dolzarb bo‘lib, ushbu davrda ratsionda yangi sabzavot va mevalar yetishmaydi.

Shu munosabat bilan, ishimizning asosiy maqsadi - olma sharbatini ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik operatsiyalarni, imkon qadar ko‘proq oziq moddalarning saqlanishini ta’minlagan holda o‘rganishdan iborat bo‘ldi.


Ushbu tadqiqotning vazifalariga quyidagilar kiradi:

—tayyor mahsulotning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini o‘rganish;

—tayyor mahsulot sifatiga O‘zDSt standartlariga muvofiq qo‘yiladigan talablarni o‘rganish.

Olma sharbatini ishlab chiqarishdagi asosiy texnologik operatsiyalar quyidagilardan iborat:

ISSN 3030-3907



1-rasm Olma sharbati ishlab chiqarish texnologik tizimi

- xomashyoni qabul qilish;
- olmalarni iflosliklardan tozalash;
- ketma-ket o‘rnatilgan yuvish mashinalarida amalga oshiriladi, shundan so‘ng xomashyo inspeksiya qilinadi;
- mikroorganizmlar yoki zararkunandalar bilan zararlangan mevalar ajratib tashlanadi;
- xomashyoni maydalash: qirg‘ichli yoki maxsus diskli maydalagichlarda (2–6 mm) amalga oshiriladi;
- vallikli maydalagichlarda qayta ishlash: maydalash jarayonida urug‘larning ezilib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun olib boriladi (urug‘larning ko‘p miqdori tayyor mahsulot ta’miga ta’sir ko‘rsatadi — mezgada urug‘lar miqdori 15 % dan oshmasligi kerak);
- presslash: mezga uzluksiz yoki davriy ishlovchi gidravlik presslarga uzatiladi;
- suzish: zanglamaydigan po‘latdan tayyorlangan, teshik diametri 0,75 mm bo‘lgan elak yordamida amalga oshiriladi;

ISSN 3030-3907

• sharbatni tiniqlashtirish: olma sharbatini tiniqlashtirishning 3 usuli ajratiladi. Fizik-kimyoviy usullarga: isitish, tindirish, bentonit bilan ishlov berish;
• filtrlash: filtr-presslarda (bosim 39,7–150 kPa) amalga oshiriladi;
• isitish: isitishdan oldin mahsulotga shakar qo‘shiladi;
• qadoqlash: kichik idishlarga quyiladigan sharbat 75 °C gacha qizdiriladi va keyin sterilizatsiya qilinadi, sterilizatsiya 86–100 °C haroratda olib boriladi; katta idishlarga (10 dm^3 gacha) esa keyingi sterilizatsiyasiz, issiq holda quyiladi;
• tayyor mahsulotni qadoqlash.

Tayyor olma sharbatining sifatiga qo‘yiladigan talablar O‘zDSt standartiga muvofiq, tiniqlashtirilmagan olma sharbati uchun biroz loyqa bo‘lishi va idish tagida oz miqdorda cho‘kma bo‘lishi mumkin; tiniqlashtirilgan olma sharbati esa begona aralashmalarsiz, tiniq bo‘lib, cho‘kma bo‘lmasligi kerak, biroq oz miqdorda vino toshi mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi .

Titrallanadigan kislotalar — 1,5 % dan oshmasligi kerak (olma kislotasiga nisbatan);
Etil spirti — 0,5 % gacha.
Idish tagidagi cho‘kma miqdori:
Tiniqlashtirilmagan sharbat uchun — 0,91 % dan kam;
Tiniqlashtirilgan sharbat uchun — 0,2 % dan kam.

Olma sharbati tasdiqlangan texnologik yo‘riqnomalarga muvofiq ishlab chiqariladi. Yakuniy bosqichda tayyor mahsulot majburiy sertifikatsiyadan o‘tkaziladi, ishlab chiqarish siklining har bir bosqichi belgilangan sanitariya me’yorlariga rioya qilgan holda amalga oshirilishi lozim.

O‘zDSt ga muvofiq, olma sharbatining asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, olma sharbati tarkibida kaliy va magniy kabi makroelementlar ko‘p miqdorda mavjud (mos ravishda 700–1500 mg/dm^3 va 30–80 mg/dm^3). Kaliy va magniy yurak-qon tomir tizimini mustahkamlashga va qondagi xolesterin miqdorini me’yorlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, olma sharbatida olma kislotasi miqdori yuqori bo‘lib, u organizmdagi almashinuv jarayonlarida ishtirok etadi va yuqori arterial qon bosimini me’yorlashtirishga ko‘maklashadi.

1-Jadval

Olma sharbatining fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlarni nomlanishi (miqdor ulushi)	Miqdor
Glyukoza g/dm^3	
Fruktoza g/dm^3	45.0-85.0

ISSN 3030-3907

Saxaroza g/dm^3	5.0-30.0
Sorbit g/dm^3	2.5-7.0
Olma g/dm^3	≥3.0
Kaliy mg/dm^3	700.0-1500.0
Magniy mg/dm^3	30.0-80.0

XULOSA

Tahlil etilgan va baholangan texnologik tizim va uning bosqichlarini ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etish natijasida yuqori samaradorlikka va va unumdorlikka erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ГОСТ Р 702.1.003–2020. Олма шарбати. Истеъмолчи синовлари [Електрон ресурс]: Россия Федерацияси Техник жиҳатдан тартибга солиш ва метрология федерал агентлигининг 2020-йил 28-февралдаги 93-ст-сонли буюруғи билан тасдиқланган; кучга кириш санаси: 01.09.2020. Фойдаланиш режими: хттпс://досс.снтд.ру/документ/200171541?сестион=техт (мурожаат санаси: 24.03.2003)

2. Джаруллайев Д.С. Олма шарбати ишлаб чиқариш линияси [Електрон ресурс] / Д.С. Джаруллайев, М.С. Аминов, Г.И. Касянов // Олий ўқув юртлари хабарлари. Озиқ-овқат технологияси, 2001. №5–6. 88–89 бетлар. Фойдаланиш режими: хттпс://еланбоок.сом/жоурнал/иссуе/290129 (мурожаат санаси 20.04.2023)

3. Иванова Н.Н., Хомич Л.М., Перова И.Б. Олма шарбатининг озуқавий (нутриент) профили // Озиқланиш масалалари, 2017. 86-жилд, №4. 125–136-бетлар

4. Магамедов М.Г. Мева-сабзавот консервалари ва соғлом овқатланиш маҳсулотларини ишлаб чиқариш [Електрон ресурс]: дарслик. – Санкт-Петербург: Лан нфшрийоти, 2022. – 560 бет. Фойдаланиш режими: хттпс://е.ланбоок.сом/боок/212171 (мурожаат санаси: 20.04.2023)

5. Магамедов М.Г. Мева-сабзавот консервалари ва соғлом овқатланиш маҳсулотларини ишлаб чиқариш [Електрон ресурс]: дарслик. – Санкт-Петербург: Лан нашриёти, 2022. – 560 бет. Фойдаланиш режими: хттпс://е.ланбоок.сом/боок/212171 (мурожаат санаси: 20.04.2023)

6. Макарова Н.Б. Ишлаб чиқариш технологияси жараёнида тўғридан-тўғри сиқилган олма шарбатидаги кимёвий таркиби ва антиоксидант фаоллигига таъсир этувчи омиллар таҳлили [Електрон ресурс] / Н.Б. Макарова, Д.Ф. Валиулина // Олий ўқув юртлари хабарлари. Озиқ-овқат технологияси, 2013, №4, 19–21 бетлар . Фойдаланиш режими: хттпс://е.ланбоок.сом/жоурнал/иссуе 290085 (мурожаат санаси: 20.04.2023)

ISSN 3030-3907

7. Душанова Н.А., Хакимова Н.Х. Оптимизация технологии яблочного сока и обогащение его биологически активными веществами экстрактов шиповника и мяты. // Universum: технические науки, электрон. научн. журнал. 2026. №1 (142). URL: https://7universium.com/ru/tech/archive/item/21795

ISSN 3030-3907

GIDROTERMAL KARBONIZATSIYA (GTK) TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BIO-YOQILG‘I OLISH: NASHRLAR DINAMIKASI VA O‘SISH TENDENSIYALARI

Karimov Islom Ismat o‘g‘li
“TIQXMMI” Milliy Tadqiqot Universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ikarimov.ilm@gmail.com
Abdug‘aniyev Nurislom Nuritdin o‘g‘li
“TIQXMMI” Milliy Tadqiqot Universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda dunyo sanoat va energetika kabi sohalar ta’sirida atrof-muhitga katta zarar yetkazmoqda. Ushbu omillardan biri sifatida qattiq maishiy chiqindilar muammosi alohida ahamiyatga ega. Bugungi davrda chiqindilarni qayta ishlash bo’yicha dunyoda turli texnologiyalar mavjud bo‘lib, ularga: anaerobik parchalash/bijg’irish, fermentatsiya, gazifikatsiya, piroliz va gidrotermal karbonizatsiya kabilar kiradi. Ushbu maqolada gidrotermal karbonizatsiya (GTK) texnologiyasi yordamida qo’shimcha qiymatga ega qattiq bio-yoqilg’i (gidrochar) olishga qaratilgan global ilmiy ishlar bibliometrik tahlil uslubi yordamida tahlil qilindi. Bibliometrik tahlil 111 xil manbada nashr etilgan jami 605 ta hujjatni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: qattiq maishiy chiqindi, gidrotermal karbonizatsiya, bibliometrik tahlil, PRISMA, Bibliometrix, VOSviewer, CiteSpace.

Аннотация. В настоящее время, мировая индустрия и энергетика оказывают значительное негативное воздействие на окружающую среду. Одной из критических проблем в этом контексте является управление твердыми бытовыми отходами. В настоящее время существуют различные технологии переработки отходов, включая анаэробное сбраживание, ферментацию, газификацию, пиролиз и гидротермальную карбонизацию. В данной статье представлен библиометрический анализ глобальных научных исследований, направленных на получение твердого биотоплива (гидроугля) с добавленной стоимостью с использованием технологии гидротермальной карбонизации (ГТК). Библиометрический анализ охватывает в общей сложности 605 документов, опубликованных в 111 различных источниках.

Ключевые слова: твёрдые бытовые отходы, гидротермальная карбонизация, PRISMA, Bibliometrix, VOSviewer, CiteSpace.

Abstract. Currently, the world is facing significant environmental damage caused by the impact of sectors such as industry and energy. One of the most critical factors contributing to this problem is the management of municipal solid waste, which is of particular importance in the context of sustainable development. Currently, various technologies are used for waste treatment, including anaerobic digestion,

ISSN 3030-3907

fermentation, gasification, pyrolysis, and hydrothermal carbonization. In this study, a bibliometric analysis methodology was applied to systematically analyze the global scientific literature related to fuel and biochar production using hydrothermal carbonization (GTK) technology. The bibliometric analysis covered a total of 605 publications published across 111 different scientific sources.

Keywords: municipal solid waste, hydrothermal carbonization, PRISMA, Bibliometrix, VOSviewer, CiteSpace.

KIRISH

Aholi sonining ortishi, tezkor urbanizatsiya va sanoatlashtirish jarayonlari zamonaviy jamiyatlarda chiqindilar hajmining keskin oshishiga olib kelmoqda. Iqtisodiy faollik va oziq-ovqat iste'molining ortishi, shuningdek turmush tarzining o'zgarishi natijasida katta miqdorda maishiy chiqindilar hosil bo'lmoqda. Bu esa dunyo bo'ylab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda qattiq maishiy chiqindilarni (QMCh) boshqarish amaliyotlari infratuzilmaning yetarli emasligi va moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi chiqindilarni boshqarish xizmatlarining past sifatda bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari, urbanizatsiya va aholi sonining ko'payishi shahar hududlarida hosil bo'ladigan chiqindilar miqdorini hamda ularni yig'ish xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda chiqindilarni samarali boshqarish uchun ishonchli ma'lumotlar yetishmaydi, mavjud ma'lumotlar esa ko'pincha nomuvofiq bo'lib, bu holat samarali va barqaror chiqindilarni boshqarish dasturlarini ishlab chiqish hamda turli boshqaruv strategiyalarini har tomonlama va tanqidiy baholashni murakkablashtiradi [1]. [2] ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilda dunyo bo'yicha hosil bo'lgan QMCh hajmi 2,01 mlrd tonnani tashkil etgan bo'lib, 2050 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 3,4 mlrd tonnagacha yetishi prognoz qilinmoqda. Shuningdek, jahon miqyosida hosil bo'layotgan chiqindilarning qariyb 33 % qismi ochiq chiqindi poligonlarida joylashtiriladi va bu usul past hamda o'rta rivojlanayotgan mamlakatlarda chiqindilarni utilizatsiya qilishning asosiy shakli bo'lib qolmoqda.

Gidrotermal karbonizatsiya yuqori namlikka ega biomassa uchun yuqori bosim va harorat muhitida amalga oshiriladigan termokimyoviy qayta ishlash jarayoni bo'lib, yopiq reaktorda 180–280 °C harorat oralig'ida, 2–6 MPa bosim ostida 5-240 daqiqagacha davom etadi [3]. Gidrotermal karbonizatsiyaning asosiy mahsuloti ko'mirga o'xshash qattiq modda — gidrochar (hydrochar) hisoblanadi. Yon mahsulot sifatida ozuqa moddalarga boy texnik suv va gaz aralashmasi (asosan CO_2) hosil bo'ladi [4]. Ushbu qattiq mahsulotning energiya zichligi xomashyoning boshlang'ich energiya sig'imiga bog'liq holda 13–30 MJ/kg oralig'ida bo'lib, u energiya ishlab chiqarish uchun yoqilishi yoki tuproq

ISSN 3030-3907

unumdorligini oshirish maqsadida o‘g‘it sifatida qo‘llanilishi mumkin. Mahsulotlar taqsimoti jarayon sharoitlari va ishlatilgan xomashyo turiga bog‘liq. Nam biomassa tarkibidagi suv yuqori samarali erituvchi va reaksiya muhiti hisoblanadi. 200–280 °C harorat oralig‘ida suvning ionlanishi maksimal darajaga yetishi sababli, u ham kislota ham asos sifatida ishtirok etishi mumkin [5].

Gidrotermal karbonizatsiya (GTK) orqali bioyoqilg‘i va bio-ko‘mir ishlab chiqarish kontekstida bibliometrik tahlil ayniqsa qimmatli hisoblanadi. Chunki soha ko‘p tarmoqli xususiyatga ega bo‘lib, chiqindilarni boshqarish, termokimyoviy qayta ishlash, materialshunoslik hamda muqobil energiya manbalarini birlashtiradi. Bibliometrik tahlil dominant tadqiqot yo‘nalishlarini, yetakchi mualliflarni va texnologik tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga an’anaviy tahlillar orqali sezilmaydigan kam o‘rganilgan sohalar va ilmiy bo‘shliqlarni ham ko‘rsatadi [6].

Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqot gidrotermal karbonizatsiya texnologiyasi orqali bio-ko‘mir ishlab chiqarishga oid global ilmiy tadqiqotlarni tizimli ravishda tahlil qilish uchun bibliometrik va ilmiy xaritalash (science-mapping) usullaridan foydalanadi. Nashrlar tendensiyalari, hamkorlik modellari va mavzular evolyutsiyasini miqdoriy tahlil qilish orqali ushbu sharh sohaning intellektual tuzilmasi bo‘yicha keng qamrovli tasavvur berishni va GTK asosidagi bioyoqilg‘i ishlab chiqarish sohasidagi kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar hamda texnologik rivojlanish uchun asosli qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashni maqsad qiladi.

METODOLOGIYA

Bugungi kunda bibliometrik tahlil ilmiy mahsuldorlikni baholash va turli tadqiqot sohalari hamda fan yo‘nalishlari bo‘yicha bilimlar tuzilmasini tizimli ravishda xaritalash uchun ishonchli miqdoriy va statistik yondashuv sifatida keng qo‘llanilmoqda [7].

Ushbu tadqiqot gidrotermal karbonizatsiya texnologiyasi yordamida yoqilg‘i va bio-ko‘mir ishlab chiqarishga oid global ilmiy adabiyotlarni tizimli ravishda tahlil qilish uchun bibliometrik tahlil metodologiyasidan foydalanadi. Ushbu bibliometrik tahlil uchun tadqiqotlarni tanlash va ma’lumotlarni qayta ishlash jarayoni shaffoflik, izchillik va metodologik qat’iylikni ta’minlash maqsadida PRISMA (Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses) tizimi asosida amalga oshirildi [8]. PRISMA oqim diagrammasida: identifikatsiya bosqichi Scopus ma’lumotlar bazasi orqali bajarilib, gidrotermal karbonizatsiya (GTK) texnologiyasi yordamida bio-ko‘mir va yoqilg‘i ishlab chiqarishga oid jami 3314 hujjat aniqlangan. Saralashdan oldin hech qanday takroriylik topilmadi.

ISSN 3030-3907

Avtomatlashtirilgan vositalar tomonidan nomuvofiq deb belgilangan ilmiy ishlar ham qayd etilmadi. Natijada, barcha 3314 yozuv saralash bosqichiga o‘tkazildi.

Bibliometrik tahlillar Bibliometrix (R paketi), VOSviewer, CiteSpace va Microsoft Excel dasturlari yordamida amalga oshirildi. Ishlash samaradorligini tahlil qilish yillik nashrlar o‘sishini va iqtibos tendensiyalari aniqlash uchun qo‘llanildi. Natijada umumiy chop etilgan ilmiy ishlarning tarkibi va ushbu tadqiqot sohasining o’sish tendensiyalari yillik nashr qilingan ilmiy ishlar va ularga berilgan iqtiboslar orqali aniqlandi va tahlil qilindi. Bu esa GTK asosidagi yoqilg‘i va bio-ko‘mir ishlab chiqarish bo‘yicha kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlarini belgilashda tizimli asos yaratadi.

NATIJA VA MUHOKAMA


Asosiy ma’lumotlar quyidagi 1-rasmda ko‘rsatilgan. Ushbu tahlilda foydalanilgan ma’lumotlar 1995-yildan 2025-yil may oyigacha bo‘lgan 31 yillik davrda Scopus ma’lumotlar bazasida chop qilingan ilmiy maqolalarni o‘z ichiga oladi.



1-rasm. Ma’lumotlar bazasi: asosiy ko’rsatkichlar


Ma’lumotlar to‘plami GTK texnologiyasi yordamida yoqilg‘i ishlab chiqarishga oid 605 ta hujjatni (ilmiy maqolalar, kitob bo‘limlari va konferensiya materiallari va boshq.) o‘z ichiga oladi. Olingan ma’lumotlar 111 xil manbalarda (jurnallar, konferensiyalar va boshqalar) nashr etilgan bo‘lib, yillik o‘sish sur’ati 12,89 % ni tashkil qiladi. Ushbu 605 ta tadqiqot ishlari 1852 ta mualliflar/tadqiqotchilar tomonidan bajarilgan bo‘lib, hammuallif ko’rsatkichi o’rtacha har bir hujjat uchun 5,35% ni tashkil etadi. Shuningdek, faqat 5 ta hujjat yagona mualliflikka ega. Mualliflar o‘rtasidagi o‘rtacha xalqaro hamkorlik darajasi 33,22 % ni tashkil qiladi. Hujjatlarda jami 1182 ta muallif kalit so‘zlari va 28 552 ta manbaga havolalar mavjud. Hujjatlarning o‘rtacha yoshi 4,4 yil bo‘lib, har bir hujjat o‘rtacha 54,78 marta iqtibos qilingan.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Hujjat turlari va ularning jami to‘plamdagi ulushi

Yuqoridagi 2-rasmda hujjat turlari va har bir turning ulushi ko‘rsatilgan. Aniqlangan barcha ma’lumotlar quyidagi hujjat turlari quyidagicha taqsimlangan: maqola (Article), tahlil (Review), konferensiya materiallari (Conference Paper) va kitob bo‘limlari (Book Chapter). Shu turlardan amaliy maqolalar va tahliliy maqolalar mos ravishda jami 516 va 62 hujjatni tashkil qilgan bo‘lib, ulushlari 85 % va 10 % ni tashkil qiladi. Konferensiya materiallari va kitob bo‘limlari esa mos ravishda 19 va 8 ta hujjatni tashkil etib, jami ulushning 3 % va 2 % ini tashkil qiladi.



3-rasm. GTK texnologiyasi yordamida yoqilg‘i ishlab chiqarish sohasidagi yillik nashrlar va jami iqtiboslar

Yuqoridagi 3-rasmda 1995 yildan 2025 yil 23-maygacha bo‘lgan davrda nashr etilgan jami 605 ta hujjatning har yil bo‘yicha taqsimoti va ularning jami iqtibosliklari ko‘rsatilgan. Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 2025 yil 23-may holatiga qadar GTK texnologiyasi asosidagi qattiq yoqilg‘i ishlab chiqarish tadqiqotlari sohasida ilmiy faoliyat eng yuqori nuqtasiga yetgan. 1995–2008 yillar

ISSN 3030-3907

orasida deyarli tadqiqot ishlari mavjud bo‘lmagan bo‘lsa-da, 2009 yildan boshlab nashr etilgan hujjatlar soni qadam-baqadam oshib, 2024 yilga yetgan. Shu tendensiya 2025 yil oxirigacha davom etishi kutilmoqda, bu o‘tgan 5 oy uchun oylik 7,6 maqola sur’ati va yillik o‘sish sur’ati (Annual Growth Rate) 12,89 % ga asoslangan hisob-kitoblarga tayanadi. Har ikki holatda ham 2025 yilgi jami nashrlar oldingi uch yil ko‘rsatkichlaridan oshadi.

GTK texnologiyasi asosidagi qattiq yoqilg‘i ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar bo‘yicha eng samarali yillar 2022, 2023 va 2024 yillar bo‘lib, mos ravishda 82, 87 va 84 ta nashr bilan namoyon bo‘lgan(3-rasm). Shu bilan birga, so‘nggi uch yil ichida nashr etilgan maqolalarda sohadagi yangi yondashuvlar, yangiliklar va istiqbolli yo‘nalishlar mavjudligi ko‘riladi. Fundamental bilimlar esa 2009–2017 yillarda nashr etilgan tadqiqotlarda topilishi mumkin.

Yillik jami iqtiboslar (Annual Total Citations, ATC) diagrammasi har bir yil davomida olingan iqtiboslar sonini ko‘rsatadi. Iqtiboslar miqdori tadqiqot ishlariga bo‘lgan qiziqish, zarurat, ahamiyat va ta’sir ko‘rsatkichidir; yuqori qiymatlar muayyan yilning tadqiqot sohasi uchun ahamiyatini bildiradi. Oxirgi 31 yil ichida GTK texnologiyasi asosidagi qattiq yoqilg‘i ishlab chiqarish tadqiqotlarida eng yuqori jami iqtiboslar 2018, 2019 va 2020 yillarda qayd etilgan (mos ravishda 3887, 3728 va 3627 ATC), bu o‘sha yillardagi nashrlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, 2015, 2014 va 2016 yillar eng muhim yillar sifatida ajralib turadi (mos ravishda 3105, 2542 va 2234 ATC), chunki ATC yuqori, lekin jami nashrlar soni past bo‘lganligi sababli, o‘rtacha iqtiboslar soni (Average Citation Per Publication, ACPP) yuqori bo‘lib, ushbu yillardagi nashrlarning fundamental ahamiyatini ta’kidlaydi.

Diagrammada 2009 va 2011 yillarda ikki o‘tkir cho‘qqi mavjud bo‘lib, har bir yilda faqat 1 ta maqola nashr etilgan, ammo mos ravishda 1348 va 1196 ATC to‘plangan, bu esa o‘sha nashrlarning tadqiqot sohasi uchun muhimligini bildiradi.

Ushbu talqinlarning barchasi qiyosiy xarakterga ega bo‘lib, mutloq ko‘rsatkichlarni aks ettirmaydi. Binobarin, mazkur holat ko‘rib chiqilayotgan tadqiqot sohasi uchun boshqa yillar ahamiyatga ega bo‘lmaganligini anglatmaydi. Natijalar yondashuvga qarab farqlanishi mumkin, Zero, ushbu tahlilda tadqiqot sohasi faqatgina Yillik jami iqtiboslar (ATC) va Yillik jami nashrlar (ATP) ko‘rsatkichlari bo‘yicha, 1995-yildan 2025-yil (23-may) ga qadar bo‘lgan davr doirasida o‘rganildi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, ushbu bibliometrik tahlil 1995 yildan 2025 yilgacha bo‘lgan 31 yillik davrni qamrab oladi (23-maygacha), va jami 605 ta ilmiy ishlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ilmiy ishlar 111 xil manbada nashr etilgan bo‘lib, soha

ISSN 3030-3907

yillik o‘sish sur’ati taxminan 13 % ni tashkil qiladi. Taqdim etilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, HTC (gidrotermal karbonizatsiya) texnologiyasi orqali qattiq yoqilg‘i ishlab chiqarish sohasi so‘nggi yillarda jadal rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ygan. Xususan, 2009-yildan boshlab nashrlar soni barqaror o‘sib, 2022–2024-yillar eng mahsuldor davr sifatida qayd etilgan bo‘lsa, 2025-yil yakuniga ko‘ra oylik o‘rtacha ko‘rsatkichlar va yillik o‘sish sur’ati (12.89%) hisobiga yangi rekord natijalar kutilmoqda. Tadqiqotning ilmiy salmog‘i va ta’sir doirasini ifodalovchi iqtiboslar tahlili esa sohaning fundamental poydevori asosan 2009–2017-yillarda yaratilganligini, ayniqsa, 2014–2016-yillardagi nashrlar o‘zining yuqori o‘rtacha iqtibos ko‘rsatkichi (ACPP) bilan alohida ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Xulosa qilib aytganda, sohadagi eng so‘nggi innovatsiyalar va zamonaviy yo‘nalishlar so‘nggi uch yillikning adabiyotlarida mujassamlashgan bo‘lsa, eng nufuzli va konseptual g‘oyalar o‘tgan o‘n yillikning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. H. Jagaba *et al.*, “Removal of nutrients from pulp and paper biorefinery effluent: Operation, kinetic modelling and optimization by response surface methodology,” *Environ. Res.*, vol. 214, p. 114091, Nov. 2022, doi: 10.1016/j.envres.2022.114091.

2. S. Kaza, L. C. Yao, P. Bhada-Tata, and F. Van Woerden, *What a Waste 2.0: A Global Snapshot of Solid Waste Management to 2050*. Washington, DC: World Bank, 2018. doi: 10.1596/978-1-4648-1329-0.

3. O. Arellano, M. Flores, J. Guerra, A. Hidalgo, D. Rojas, and A. Strubinger, “Hydrothermal Carbonization of Corncob and Characterization of the Obtained Hydrochar,” in *Simon Bolivar University*, K. KohseHoinghaus and E. Ranzi, Eds., 2016, pp. 235–240. doi: 10.3303/CET1650040.

4. M. Lucian and L. Fiori, “Hydrothermal Carbonization of Waste Biomass: Process Design, Modeling, Energy Efficiency and Cost Analysis,” *Energies*, vol. 10, no. 2, p. 211, Feb. 2017, doi: 10.3390/en10020211.

5. S. T. Yoganandham, G. Sathyamoorthy, and R. R. Renuka, “Emerging extraction techniques: Hydrothermal processing,” in *Sustainable Seaweed Technologies*, Elsevier, 2020, pp. 191–205. doi: 10.1016/B978-0-12-817943-7.00007-X.

6. N. Donthu, S. Kumar, D. Mukherjee, N. Pandey, and W. M. Lim, “How to conduct a bibliometric analysis: An overview and guidelines,” *J. Bus. Res.*, vol. 133, pp. 285–296, Sep. 2021, doi: 10.1016/j.jbusres.2021.04.070.

ISSN 3030-3907

7. M. Ranjbari *et al.*, “Biomass and organic waste potentials towards implementing circular bioeconomy platforms: A systematic bibliometric analysis,” *Fuel*, vol. 318, p. 123585, Jun. 2022, doi: 10.1016/j.fuel.2022.123585.
8. M. J. Page *et al.*, “The PRISMA 2020 statement: an updated guideline for reporting systematic reviews,” *BMJ*, p. n71, Mar. 2021, doi: 10.1136/bmj.n71.

ISSN 3030-3907

ENHANCING ENGLISH LANGUAGE TEACHERS' PROFESSIONAL DEVELOPMENT THROUGH PROBLEM-BASED LEARNING: A PEDAGOGICAL MODEL AND ITS COGNITIVE-AFFECTIVE IMPACT

Otamurodova Yaxshigul Farxodovna
UzSWLU,English teacher
E-mail: otamurodovayaxshigul@gmail.com
Tel: 977306305

Abstract. This study explores the effectiveness of Problem-Based Learning (PBL) in enhancing the professional development of English language teachers. The research was conducted at the A. Avloniy National Institute for Pedagogical Skills in Tashkent, Uzbekistan, involving 82 in-service English teachers. Anchored in the constructivist paradigm, the study employed a quasi-experimental design using pre- and post-assessment tools, as well as qualitative instruments such as interviews and reflective journals. The findings demonstrate that PBL-based teacher development sessions significantly improved teachers' methodological competence, reflective thinking, and learner-centered instructional design. Teachers reported increased confidence in managing authentic learning tasks, employing scaffolding strategies, and integrating student engagement techniques. Furthermore, the study highlights the role of structured problem-solving cycles in fostering cognitive and affective outcomes, thereby promoting professional autonomy and adaptability among teachers. This research contributes to the growing body of knowledge on PBL in teacher education and suggests that incorporating problem-based modules into professional training programs can bridge the gap between theory and pedagogical practice. Practical recommendations are proposed for integrating PBL frameworks in continuous teacher development in language education contexts.

Keywords: Problem-Based Learning (PBL); English Language Teaching (ELT); Professional Development; Teacher Training; Reflective Practice; Scaffolding

Аннотация. Данное исследование направлено на изучение эффективности метода проблемно-ориентированного обучения (Problem-Based Learning – PBL) в развитии профессиональных компетенций учителей английского языка. Исследование было проведено в Национальном институте педагогического мастерства имени А. Авлони в г. Ташкент, Республика Узбекистан, с участием 82 действующих учителей английского языка. Теоретической основой исследования послужила конструктивистская парадигма. В работе использовался квазиэкспериментальный дизайн с применением пред- и посттестирования, а также качественных методов сбора данных, включая интервью и рефлексивные дневники. Результаты показали,

ISSN 3030-3907

что сессии повышения квалификации, основанные на PBL, существенно способствовали развитию методической компетентности, рефлексивного мышления и навыков проектирования обучения, ориентированного на учащегося. Учителя отметили повышение уверенности в управлении аутентичными учебными задачами, применении стратегий педагогического сопровождения (scaffolding), а также использовании технологий вовлечения учащихся в образовательный процесс. Кроме того, исследование подчеркивает роль структурированных циклов решения проблем в формировании когнитивных и аффективных результатов, что способствует развитию профессиональной автономии и адаптивности учителей. Работа вносит вклад в развитие научных исследований по применению PBL в педагогическом образовании и обосновывает целесообразность интеграции проблемно-ориентированных модулей в программы непрерывного профессионального развития. Предложены практические рекомендации по внедрению PBL-подходов в систему повышения квалификации учителей иностранных языков.

Ключевые слова: проблемно-ориентированное обучение (PBL); преподавание английского языка (ELT); профессиональное развитие; подготовка учителей; рефлексивная практика; педагогическое сопровождение (scaffolding).

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishini takomillashtirishda Muammoli Ta’lim (Problem-Based Learning – PBL) metodikasining samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot Toshkent shahridagi A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutida o‘tkazildi va unda 82 nafar amaliyotchi ingliz tili o‘qituvchilari ishtirok etdi. Tadqiqot konstruktivistik paradigma asosida tashkil etilib, kvazi-eksperimental dizayn qo‘llanildi. Ma’lumotlar oldindan va yakuniy baholash vositalari, shuningdek, intervyular va reflektiv kundaliklar kabi sifat tahlili instrumentlari orqali yig‘ildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, PBL asosidagi malaka oshirish mashg‘ulotlari o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasi, reflektiv tafakkuri hamda o‘quvchiga yo‘naltirilgan dars loyihalash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Ishtirokchilar autentik o‘quv vazifalarini boshqarish, skaffolding (qo‘llab-quvvatlovchi strategiyalar)dan foydalanish hamda o‘quvchilarning faolligini oshirish texnikalarini qo‘llash borasida o‘ziga bo‘lgan ishonchning ortganini ta’kidladilar. Shuningdek, tadqiqot strukturalashtirilgan muammo yechish sikllarining kognitiv va affektiv natijalarga ijobiy ta’sirini yoritadi hamda o‘qituvchilarda kasbiy avtonomiya va moslashuvchanlikni shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot o‘qituvchilar ta’limida PBLni qo‘llash

ISSN 3030-3907

bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni boyitadi hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlariga muammoli modul va yondashuvlarni integratsiya qilish nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni kamaytirishga xizmat qilishini asoslaydi. Til ta’limi kontekstida PBL asosidagi modelni joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: muammoli ta’lim (PBL); ingliz tilini o‘qitish (ELT); kasbiy rivojlanish; o‘qituvchilarni tayyorlash; reflektiv amaliyot; pedagogik qo‘llab-quvvatlash (scaffolding).

1. INTRODUCTION

The evolving landscape of education in the 21st century has placed increasing demands on teachers to shift from traditional knowledge transmission to learner-centered, inquiry-driven methodologies. English language teachers, in particular, face the challenge of equipping students with communication skills, critical thinking, and intercultural awareness in a globalized world. This requires continuous professional development that not only enhances linguistic and methodological competence but also fosters adaptive and reflective teaching practices.

Problem-Based Learning (PBL), grounded in constructivist theory, offers a powerful framework for developing these competencies by engaging teachers in solving authentic, complex problems that mirror real-life teaching scenarios. While PBL has been widely used in student learning contexts, its application in teacher education, especially for in-service English language teachers, remains underexplored. This study addresses this gap by examining the impact of a PBL-based professional development program implemented at the A. Avloniy National Institute for Pedagogical Skills in Tashkent, Uzbekistan. Involving 82 in-service English language teachers, the program was designed to simulate practical teaching dilemmas and encourage collaborative inquiry, critical reflection, and active solution-building.

The central aim of this research is to evaluate how problem-based learning influences both the cognitive (knowledge, skills) and affective (attitudes, motivation) domains of teacher development. By doing so, it contributes to ongoing discussions on innovative pedagogical approaches in teacher education and offers actionable insights for policymakers, educators, and training institutions.

2. LITERATURE REVIEW

Problem-Based Learning (PBL) emphasizes active, student-centered learning through the exploration and resolution of real-life problems, making it a highly appropriate model for preparing educators to address complex classroom dynamics and instructional challenges [1]. Savery and Duffy conceptualized PBL

ISSN 3030-3907

as a constructivist instructional approach in which learners actively construct knowledge through engagement with meaningful problems rather than through passive reception of information [2]. Similarly, Barrows (1986), one of the pioneers of PBL, argued that authentic problem situations stimulate inquiry, critical reasoning, and self-directed learning, thereby promoting deeper understanding and long-term knowledge retention.

In the context of English Language Teaching (ELT), PBL supports the development of essential competencies such as communicative competence, problem-solving ability, and collaborative learning skills [2]. The approach aligns closely with the principles of Communicative Language Teaching (CLT), which emphasizes meaningful interaction and real-life communication as the basis for language acquisition. Richards (2008) notes that effective speaking instruction requires opportunities for extended discourse, justification of opinions, and interactional negotiation — all of which are naturally embedded in PBL tasks. Thornbury (2005) further emphasizes that speaking proficiency develops most effectively when learners engage in cognitively demanding activities that require them to organize ideas, provide arguments, and respond spontaneously.

Researchers have also argued that PBL environments enhance teachers' metacognitive awareness and facilitate the transfer of theoretical knowledge into practical classroom applications [4][5]. Such environments encourage reflective practice and provide opportunities for scaffolding — a key instructional strategy within both constructivist and sociocultural theories of learning. Hmelo-Silver (2004) highlights that PBL promotes inquiry, reflection, and metacognitive regulation, transforming learners from passive recipients of knowledge into active problem solvers.

Evidence from in-service teacher training programs indicates that integrating PBL can significantly improve instructional planning, increase motivation for continuous professional learning, and strengthen classroom management competencies [6]. Darling-Hammond et al. (2017) emphasize that effective professional development should be collaborative, practice-oriented, and reflective — characteristics that closely correspond to PBL frameworks. Furthermore, recent studies highlight the growing importance of digital technologies in supporting PBL environments, particularly in the post-pandemic context of hybrid and online education [7]. Technology-enhanced PBL enables access to authentic resources, supports collaboration, and facilitates flexible learning pathways.

Alongside international scholarship, local researchers have also examined the pedagogical potential of problem-based and innovative teaching approaches. Azizkhojayeva, in her work on pedagogical technologies, provides a

ISSN 3030-3907

comprehensive analysis of problem-based instruction, emphasizing the importance of creating problem situations to activate learners' cognitive engagement and prevent passive learning. She argues that incorporating problem elements into lectures significantly enhances pedagogical effectiveness by stimulating students' thinking and participation. This perspective demonstrates the practical relevance of PBL principles for teacher professional development in local educational contexts. [8].

Similarly, Farmanova has developed advanced practices for improving the effectiveness of English language teaching through the integration of information and communication technologies in the Bukhara region. Implemented in accordance with national educational reforms, this experience illustrates how modern pedagogical and technological tools can support interactive and learner-centered instruction. Shodmonova (2023) also explored contemporary approaches to teaching professional English, highlighting the effectiveness of the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach. Although distinct from PBL, CLIL shares several underlying principles, including contextualized learning, active engagement, and integration of content with language use. [9]. Despite the recognized benefits of PBL, its application within ELT professional development remains limited, particularly in Central Asian and post-Soviet educational contexts. In Uzbekistan, the integration of innovative pedagogies into teacher training has become a strategic priority; however, empirical evidence regarding their effectiveness is still insufficient. This gap underscores the importance of the present study, which seeks to empirically evaluate the effectiveness of a PBL-based framework for the continuous professional development of English language teachers within Uzbekistan's evolving educational system, with particular relevance to advanced speaking instruction such as tasks similar to IELTS Speaking Part 3.

3. METHODOLOGY

This study employed a convergent mixed-methods design to examine the impact of Problem-Based Learning (PBL) on the professional development of in-service English language teachers. The research was conducted at the A. Avloniy National Institute for Pedagogical Skills (Tashkent, Uzbekistan) between February and May 2025.

PARTICIPANTS

The sample consisted of 82 in-service English language teachers selected through convenience sampling. Participants represented diverse regions of Uzbekistan and were enrolled in a structured professional development program. Prior to participation, informed consent was obtained.

ISSN 3030-3907

RESEARCH DESIGN

